Asosiy qism. Maqolaning dolzarbli shundaki, bugungi kunda talabalarning "Jismoniy madaniyat va sport" o'quv sohasi orqali jismoniy madaniyatni o'zlashtirish jarayoni davomida ularning jismoniy rivojlanish dinamikasini chuqurroq o'rganish, shuningdek, talabalarni salomatligi, jismoniy imkoniyatlari darajasiga muvofiqlikda jismoniy madaniyatini shakllantirish bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan, aniq maqsadni ko'zda tutuvchi dasturlarni xorijiy tajribalarga asoslanib ishlab chiqish zaruriyati vujduga kelmoqda. Jismoniy madaniyatni shakllantirishga ana shunday yondashish faoliyat samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

Ishining maqsadi: xorijiy oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning jismoniy madaniyatini

shakllantirishning samarali yo'llarini tahlil qilish.

Ishining maqsadiga ko'ra quyidagi vazifalar qo'yilgan:

1. Mavzuga oid ilmiy-uslubiy mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish.
2. "Jismoniy madaniyat va sport" fanlarini o'qitishda xorij tajribasini o'rganish.
3. Oliy ta'lif muassasalarida yoshlarning jismoniy tayyorgarligi holatini aniqlash.
4. Oliy ta'lif muassasalarida yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida qo'llanilayotgan usullarni tahlil etish.

Jismoniy madaniyat va sport sohasida o'quv jarayonini yanada takomillashtirish, ta'lifni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, xorijiy oliy ta'lifning tajribasi va taraqqiyotining tahlili, noan'anaviy ta'lifning didaktik asoslari, Jismoniy madaniyat va sportda innovastion texnologiyalar (pedagogik texnologiyalar, interfaol uslublar, ta'linda axborot kommunikatsion texnologiyalar), talabalar mustaqil ta'lifini tashkil etish va oliy ta'lif professor-o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalarini respublikamizda faolit yuritayotgan olimlaridan R.D.Xolmuxamedov, F.A.Kerimov, Maxkamjanov K.M., T.S.Uzmanodjayev, R.S.Salamov, E.A.Seytxalilov, I.A.Koshbaxtiyev, O.V.Goncharova, Sh.X.Xonkeldiyev, M.S.Olimov, S.S.Tajibayev, A.Q.Atoyev, X.A.Botirov, B.B.Mamurov, M.J.Abdullayev va boshqalar o'zlarining ilmiy-metodik izlanishlarida to'xtalib o'tganlar.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat vaadolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lif ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlash shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz. Respublikamiz Birinchi Prezidenti 1999-yil apreldagi Oliy Majlisning XIV sessiyasida "Yangi darsliklarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur" [1]ligini alohida ta'kidladilar. Bugun olimlar va o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas'uldirlar. Bu sohaga yaqin xorijiy davlatlarda ham e'tibor kuchaytirilmoqda. Muhim shundaki, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan Milliy dasturni ro'yogga chiqarishning 2-bosqichida (2001-2005-yillar) "O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Respublikamizdagi oliy (o'rta maxsus kasb-hunar mabtab) ta'lif tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzlucksiz tashkil etish davr talabidir. Shuning uchun ham bugungi kunda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida hamda xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanib amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Albatta, hozirda mamlakatimizda ta'lif-tarbiya va ma'naviy sohada ulkan islohotlar o'tkazilmoqda. Yurtimizda kadrlar tayyorlash borasidagi ta'lif va u bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy manbalarda barcha sohalar bo'yicha davr talablariga to'la layoqatli mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning ma'naviy va jismoniy barkamolligini tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda.

E'tirof etish lozimki, buning natijasini o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarining dunyodagi o'zining tengdoshlari orasida tashkil etilayotgan turli nufuzli ilm-fan va sport yo'nalishlaridagi olimpiadalar va musobaqalarda qo'lga kiritilayotgan katta-yu kichik yutuqlarida ko'rishimiz mumkin.

Bu jarayonlarda jismoniy madaniyat va sport ishlariga alohida e'tibor qaratilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu asosda ta'lif tizimida ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion ta'lif texnologiyalaridan keng va samarali foydalanish bugunning dolzarb masalasiga aylanib ulgurdi. Ta'lif sohasida xorij tajribasini kuzatar ekanmiz, bizning yurtimizda ham ularnikidan kam bo'Imagan sharoitlar yaratilgan bo'lib, bizning ta'lif tizimimiz puxta ishlangan rejaga asosan tashkil etilgan. Faqatgina yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ta'lifning barcha bosqichlarida yangicha fikrlaydigan va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalgalashishga etadigan mutaxassislar tayyorlash yuzasidan ish olib borish zarur.

Shu maqsadda sport mashg'ulotlarida va amaliy darslarni o'tkazishda sport turlari bo'yicha e'tiborli tadbirlar o'tkazilib, ularda innovastion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalardan maqsadli va samarali foydalanishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Muhokamalar va natijalar. Jismoniy madaniyat va sport fanini o'qitishda uning turlari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga xos bo'lgan mashg'ulot tuzilishlarini amaliyatga joriy qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarini tuzilishida asosiy maqsadlarni amalga oshirish, shug'ullanuvchilarning sport turlari texnikasini puxta egallashi uchun eng optimal va qulay mashg'ulot dasturlarini qo'llash muhimdir.

Ushbu ishining vazifalarini hal etish maqsadida xorijiy oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat va sport darslarining holati va talabalarning topshiradigan meyor talablarini ko'rib chiqamiz.

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida jismoniy madaniyat va sport fanining ishchi o'quv dasturini ko'rib chiqqanimizda, 1-2 kurslarda o'quv soati uchun 208 soat ajratilgan bo'lib, undan 18 soat ma'ruza, 190 soat amaliy mashg'ulotga ajratilganini ko'rishimiz mumkin.. Ularning 52 soati yengil atletika, 58 soat sport o'yinlari, 30 soat gimnastika va qolgani boshqa sport turlarini o'rgatish uchun ajratilgan. Agar talabalarning nazorat me'yorlarini topshirishini tahlil qiladigan bo'lsak, 100 m masofaga erkaklar 12,3 sek. maksimal ball va 13,6 sek. minimal ballni, ayollarda 13,8 sek. maksimal ball bo'lsa, 15,6 sek. minimal ballni, uzunlikka sakrash erkaklar 530 sm maksimal ball va 500 sm minimal ball, ayollarda 440 sm maksimal ball bo'lsa, 390 sm minimal ballni, granata uloqtirish erkaklar (700 gr) 45 m maksimal ball va 40 m minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda (500 gr) 25 m maksimal ball bo'lsa, 20 m minimal ballni tashkil qiladi.

Perm davlat farmasevtika akademiyasida jismoniy madaniyat va sport fani bo'yicha o'quv dasturi jami 392 soatdan iborat bo'lib, 8 semestr davomida o'tkaziladi. Undan 48 soat ma'ruza, 344 soat amaliy mashg'ulotga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Ularning 98 soati yengil atletika, 102 soat sport o'yinlari, 80 soat gimnastika va qolgani boshqa sport turlarini o'rgatish uchun ajratilgan. Agar talabalarning nazorat me'yorlarini topshirishini tahlil qiladigan bo'lsak, 100 m masofaga erkaklar 13,2 sek. maksimal ball va 14,6 sek minimal ballni, ayollarda 15,7 sek. maksimal ball bo'lsa, 18,7 sek. minimal ballni, uzunlikka sakrash erkaklar 520 sm maksimal ball va 500 sm minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda 420 sm. maksimal ball bo'lsa, 385 sm minimal ballni, granata uloqtirish erkaklar (700 gr) 42 m maksimal ball va 37 m minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda (500 gr) 26 m maksimal ball bo'lsa, 20 m minimal ballni tashkil qiladi.

Sankt-Peterburg Kino va televide niya universiteti jismoniy madaniyat va sport fanining ishchi o'quv dasturini o'rganganimizda, ushbu fanga 400 soat ajratilgan bo'lib, 6 semestr davomida o'tkaziladi. Undan 38 soat ma'ruza, 362 soat amaliy mashg'ulotga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Ularning 80 soati yengil atletika, 130 soat sport o'yinlari, 70 soat gimnastika va qolgani boshqa sport turlarini o'rgatish uchun ajratilgan. Agar talabalarning nazorat me'yorlarini topshirishini tahlil qiladigan bo'lsak, 100 m masofaga erkaklar 12,8 sek. maksimal ball va 13,8 sek. minimal ballni, ayollarda 14,8 sek. maksimal ball bo'lsa, 16,6 sek. minimal ballni, uzunlikka sakrash erkaklar 510 sm maksimal ball va 490 sm minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda 420 sm maksimal ball bo'lsa, 380 sm minimal ballni, turnikda tortilish erkaklar 15 ta maksimal ball va 12 ta minimal ballni tashkil qiladi. Ayollar uchun past turnikda tortilish 25 ta maksimal ball bo'lsa, 20 ta minimal ballni tashkil qiladi.

Kemerov davlat universitetining Anjero-Sudjenskdagi filialida jismoniy madaniyat va sport fanining ishchi o'quv dasturini kuzatdik. Jismoniy tarbiya fani uchun umumiyligi 408 soat ajratilgan bo'lib, 1-3-bosqich talabalariga 5 semestr davomida o'qitilar ekan. Shundan 48 soat ma'ruza, 360 soat amaliy mashg'ulotga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Ularning 112 soati yengil atletika, 168 soat sport o'yinlari, 50 soat gimnastika va qolgani boshqa sport turlarini o'rgatish uchun ajratilgan. Agar talabalarning nazorat me'yorlarini topshirishini tahlil qiladigan bo'lsak, 100 m masofaga erkaklar 13,2 sek. maksimal ball va 14,6 sek. minimal ballni, ayollarda 15,7 sek. maksimal ball bo'lsa, 18,7 sek. minimal ballni, uzunlikka sakrash erkaklar 530 sm maksimal ball va 500 sm minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda 430 sm maksimal ball bo'lsa, 390 sm minimal ballni, granata uloqtirish erkaklar (700 gr) 42 m maksimal ball va 38 m minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda (500 gr) 22 m maksimal ball bo'lsa, 18 m minimal ballni, turnikda tortilish erkaklar 15 ta maksimal ball va 11 ta minimal ballni tashkil qiladi. Ayollar uchun past turnikda tortilish 23 ta maksimal ball bo'lsa, 18 ta minimal ball qo'yilar ekan [26].

Nihoyat, Respublikamiz Oliy ta'lif muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fani uchun umumiyligi 46 dan 54 gacha soat ajratilgan bo'lib, talabalar 1-bosqichda 2 semestr davomida o'qitiladi. Shundan 2 soat ma'ruza, 44-52 soat amaliy mashg'ulotga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. Ularning 12 soati yengil atletika, 18 soat sport o'yinlari, 12 soat gimnastika va 12 soati qolgani boshqa sport turlarini o'rgatish uchun ajratilgan. Baholash mezoni "Alpomish" va "Barchinoy" test normalari asosida 100 metrga yugurish, uzunlikka sakrash, turnikda tortilish, granata uloqtirishdan o'tkaziladi. 100 m masofaga erkaklar 13,2 sek. maksimal ball va 14,2 sek. minimal ballni, ayollarda 16,0 sek. maksimal ball bo'lsa, 16,5 sek. minimal ballni, uzunlikka sakrash erkaklar 560 sm maksimal ball va 500 sm minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda 440 sm maksimal ball bo'lsa, 320 sm minimal ballni, granata uloqtirish erkaklar (700 gr) 45 m maksimal ball va 34 m minimal ballni tashkil qiladi. Ayollarda (500 gr) 22 m maksimal ball bo'lsa, 18 m minimal ballni, turnikda tortilish erkaklar 14 ta maksimal ball va 12 ta minimal ballni tashkil qiladi. Ayollar uchun past turnikda tortilish 26 ta maksimal ball bo'lsa, 15 ta minimal ballni tashkil qiladi.

Tahlil qilingan barcha ishchi o'quv dasturlarini o'rganish mobaynida sport turlari texnikasini o'rgatish bo'yicha soatlar va metodlar turlicha qilib berib o'tilgan. Misol uchun qisqa masofaga yugurish texnikasini o'rgatish bo'yicha start, start tezlanishi, masofa bo'ylab yugurish va finish qilish texnikasi ketma-ketligi turli xil ko'rinishlarda o'rgatilishi berib o'tilgan. Albatta, qisqa masofalarga yugurishda start olish va masofa bo'ylab yugurish texnikasi – sprinterning tezlik-kuch imkoniyatlarini amalga oshirishda hal qiluvchi omildir.

Sportchi startdan tezlik olishda mushaklar kuchidan hamda masofada o‘zining energiya zahirasidan qanchalik oqilona, tejamkorona va samarali foydalana ololsa, natija shunga bog‘liq bo‘ladi. Bunday natijaga erishish uchun esa mukammal ishlangan metodika kerak bo‘ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkin:

- bugun mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sport ishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Jismoniy madaniyat va sport ishlari davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shunga qaramay haligacha oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanlarini o‘qitish oldimizda turgan eng dolzarb vazifa biri bo‘lib qolmoqda;

- respublikamizning ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport mashg’ulotlari ana’naviy ta’lim uslublaridan foydalanib tashkil qilinmoqda. Bu natijasida talabaning o‘z ustida ishlashi, izlanishi, mustaqil ta’lim bilan shug’ullanishiga yetarli ahamiyat berilmayapti.

- hozirgi kunda sport turlarida natijalarning yuqori bo‘lib borayotgani va bunday raqobatga kirisha oladigan sportchilarni tayyorlashda murabbiy va o‘qituvchilardan mashg’ulotlar jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etishni talab qilmoqda.

- xorij tajribasini o‘rganib shu xulosaga keldikki, talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun oliy talim muassasalari tizimida “Jismoniy madaniyat va sport” fanlarini o‘qitishda o‘quv jarayoniga nafaqat innovastion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, shu bilan bir qatorda “Jismoniy madaniyat va sport” fanini o‘tish uchun ajratilgan o‘quv soatlari miqdorini qo‘paytirish maqsadga muvofiq. Chunki sport sohasi o‘zining xususiyatidan kelib chiqib mashg’ulot haftasida 2 soatdan 3 marta o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев М.Ж. Бошлангич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].

2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.

3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.

4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.

5. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физическоо и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].

6. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. -620 бет

7. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.

8. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.

9. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.

10. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.Niyazova. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html

12. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320

-
13. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of training for young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
 14. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
 15. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
 16. A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of young handball players // Academic. An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39p
 17. А.К.Ибрагимов. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00 №23].
 18. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
 19. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 6, 2020
 20. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov, N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 December
 21. S.S.Abdueva. Activities that increase children's interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки и образование международная научно-практическая конференция, 2020.
 22. F.Fazliddinov, M.Toshev N.Sabirova, B.Do'stov. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125. 2020
 23. F.Fazliddinov, K.Kobiljonov. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
 24. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. "Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping". ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2
 25. U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9, Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7.
 26. www.asf.ru>учебная рабочая.

Mehriddin ABDULLAYEVBuxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Zarina TURAYEVA**

Buxoro davlat universiteti magistranti

**TURLI YOSHDAGI SPORTCHILARGA SOG'LOMLASHTIRUVCHI AEROBIKA
MASHQLARIGA O'RGATISH USLUBIYATI**

Ushbu maqolada sog'lomlashtiruvchi aerobika bo'yicha majmua dasturlarini ishlab chiqish asosida turli yoshdagi sportchilarga sog'lomlashtiruvchi aerobika mashqlariga o'rgatish bo'yicha ishlar tahlil qilingan va yetakchi olimlarning fikr va mulohazalariga tayanib sog'lomlashtiruvchi aerobika mashqlariga o'rgatish uslubiyati ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: salomatlik, aerobika, step-aerobika, sheyping, akva aerobika, noana'naviy turlar.

В данной статье на основе разработки комплексных программ оздоровительной аэробики проанализирована работа по обучению спортсменов разного возраста упражнениям оздоровительной аэробики и разработана методика обучения упражнениям оздоровительной аэробики, основанная на мнениях и отзывах ведущих ученых.

Ключевые слова: здоровье, аэробика, степ-аэробика, шейпинг, аквааэробика, нетрадиционные виды.

In this article, work on the development of health-improving aerobics programs has been analyzed on the basis of teaching health-improving aerobics exercises to athletes of different ages, and the method of teaching health-improving aerobics exercises has been developed, relying on the opinions and feedback of leading scientists.

Key words: health, aerobics, step-aerobics, sheyping, aqua aerobics, non-traditional species.

Kirish. Salomatlik nafaqat jismoniy tarbiya bilan bog'liq, hozirgi paytga kelib o'quvchilarning harakat faoliyatini to'g'ri shakkantirish, shaxsni har tomonlama garmonik rivojlanirishdan iboratdir.

Afsuski, zamonaviy o'quvchi qizlarning harakat faoliyatini yetarli darajada emas. Buning natijasida turli kasalliklarga moyillik yuqori darajada qayd etilmoqda. Albatta, bu ko'rinishdagi tendensiya nasliy emas balki bu jismoniy mashqlarni bajarmaslik va jismoniy tarbiya darslariga kam qatnashish oqibatidir. Jismoniy tarbiya darslarida harakatlanish talablarining faqatgina 40-60% qondiriladi, 25% dan kam o'quvchilar doimiy jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb qilingan, darsdan tashqari jismoniy tarbiya faoliyati bilan 30-35% gina qizlar shug'ullanadilar.

Harakat tanqisligi organizmning o'sish va shakllanish davrida juda xavfli hisoblanadi. Demak, zamonaviy o'quvchilar va talabalarining katta qismida saqlanib qolinadigan turli xil kasalliklar uchraydi, jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik esa ko'pincha yosh meyorlariga javob bera olmaydi.

Asosiy qism. O'quv muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri - bu ayollar talabiga mos keluvchi hamda qizlar va ayollar orasida ancha ommalashgan jismoniy tarbiyaning yangi turlarini va shakllarini tadbiq qilish bilan o'quvchilardan harakat faolligini kengaytirishdir.

Shu maqsadda foydalilaniladigan ko'p turli vositalar orasida asosiy gimnastika, o'quv muassasalarida asosiy bazaviy jismoniy tarbiya hisoblanadi. Qat'iy gimnastika yo'nalishidagi mashqlar bilan bir qatorda, o'quvchi yoshlar orasida ommalashgan, harakat faollik turlaridan biri sog'lashtiruvchi aerobika - qizlarni jismoniy tarbiyaga jalb qilishning eng qulay uslubi hisoblanadi.

Barcha uchun mashg'ulotlarning boshlang'ich rivoji sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot hisoblangan aerobika - harakat go'zalligi, plastika, ijodiy yondashuvni estetik rivojlantiradi - jismoniy va funksional tayyorgarlikni oshiradi sog'liqni mustahkamlaydi.

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan: step-aerobika [4], kuch turlari [2], sheyping [3], akva aerobika [1, 4], noana'naviy turlar [3].

Shug'ullanuvchilar organizmiga sog'lomlashtiruvchi aerobika turlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar (V.N.Seluyanov 2001, T.S.Lisistkaya 2002, V.S.Cheburaev 2002 va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida kompleks mashg'ulotlar eng ommabop bo'lib, turli vositalarni o'z ichiga oladi.

Ammo bu sohada mavjud kam sonli ishlanmalar, tizimli tavsifga ega emas:

- birinchidan turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan shug'ullanuvchilar uchun qulay sog'lomlashtiruvchi aerobika vositalari aniqlanmagan;

- ikkinchidan, darsda va darsdan tashqari vaqtida o'tkaziladigan asosiy va qo'shimcha tadbirlar shaklidagi mashg'ulotlarni o'tkazish va o'rgantish uslubiyati ishlab chiqilmagan;
- uchinchidan, sport-sog'lomlashtirish markazlari amaliyotida foydalaniladigan majmua dasturlari o'ta murakkab.

Turli yoshdagi sportchilar bilan aerobikaning sog'lomlashtiruvchi turlari bilan mashg'ulotlar o'tkazish muammolari juda dolzarb bo'lib samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba tadqiqotlarni talab qiladi.

Ishning maqsadi. Sog'lomlashtiruvchi aerobika bo'yicha majmua dasturlarini ishlab chiqish asosida turli yoshdagи sportchilarning harakat faolligini oshirish.

Tadqiqotning vazifasi:

➢ turli tuzilmalarda aerobikaning sog'lomlashtirish yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlарини o'rganish;

➢ turli yoshdagи sportchilarga sog'lomlashtiruvchi aerobika mashqlariga o'rgatish uslubiyati bo'yicha olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil qilish;

➢ turli yoshdagи sportchilarga sog'lomlashtiruvchi aerobika mashqlariga o'rgatish uslubiyati bo'yicha olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil qilish asosida sog'lomlashtiruvchi aerobika bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

Tadqiqot uslubiyati

1. Adabiyot manbalarini tahlil qilish.
2. Anketalash.
3. Pedagogik kuzatuv.
4. Antromometrik o'lcham.
5. Nazorat sinovlari uslubiyati.
6. Pedagogik tajriba.
7. Matematik statistika uslubiyati.

Barcha sport turlari kabi, sog'lomlashtiruvchi aerobikada uzoq faollik bilan bog'liq hamma faoliyatlarda biz o'rgatish muammolari bilan to'qnash kelamiz.

Aerobika bo'yicha murabbiylar uchun eng muhammi, shug'ullanuvchilarga nafaqat chiroysi harakatlanishni, balki mashqlarni bajarish texnikasini to'g'ri ijro etishga o'rgata olishdir. Shuning uchun to'g'ri o'rgatish muammolari, aerobikada eng sodda harakatlarni o'zlashtirishda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki [16, 17], mashqlarga o'rgatish - bu o'qituvchi va o'quvchidan harakatlarni rejali va uslubiy to'g'ri tashkil qilishni talab qiluvchi pedagogik jarayondir. U o'rgatishning asosiy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan. Shug'ullanuvchilarning harakat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish ma'naviy-irodaviy sifatlarini tarbiyalashdir.

Sog'lomlashtiruvchi aerobika bo'yicha mashg'ulotlar, vositalar tanlovi, alohida mashqlar me'yori va navbatlashuvi, hamda ularni bajarilish tempiga ko'ra farqlanadi. Lekin, mashg'ulotlarning xilma-xil variantlari yagona shakl va tuzilish qonuniyatiga bo'ysunadi [8, 16].

Eng katta tuzilma birligi, majmua hisoblanib u o'z navbatida qismlarga bo'linadi, qismlar esa kichik seriyalarga bo'linib, mashqlar zanjiridan tashkil topadi. Mashqlardan kombinastiyojar, bog'lamlar tashkil qilinadi.

Bir qator mualliflarning ma'lumotlari bo'yicha [2, 4], sog'lomlashtirish aerobika mashg'ulotlari aerobika darsi shundan iboratki, o'quv jarayonini malakali instruktor boshqaradi.

Barcha darslar kabi, aerobika sinfining mashg'ulotlari ham tayyorlov, asosiy va yakuniy qismlardan iborat. Y.V.Menxin, A.V.Menxin (2002) aerobika bo'yicha mashg'ulotlarning tuzilishi o'rtacha 60 daqiqa tashkil qiladi, tayyorlov qismning davomiyligi mashg'ulotning umumiyligi vaqtini 5-10% ni; asosiy qism-80-85%; yakuniy qism esa 5-15% ni tashkil qiladi deb hisoblaydilar.

Yetarli darajada shug'ullaniganlar bilan 60 daqiqli mashg'ulot tuzilishi bo'yicha 90 daqiqa shug'ullanish mumkin. (O.A.Lomova 2002, M.L.Juravina, N.K.Menshikova 2002, J.K.Xolodov. V.S.Kuznestova 2002).

Sportdagi kabi, sog'lomlashtiruvchi aerobikada o'rgatish jarayoni shug'ullanuvchilar va instrukturlarning aniq tizimini o'zida namoyon qiladi. Bu harakatlar ongli bog'lanishga egadir va vaqt bo'yicha ketma-ket taqsimlangan. Ta'limning aniq vazifalarini navbatma-navbat yechish alohida bosqichlarga bo'lish imkoniyatiga asoslanadi [3, 5, 7].

O'rgatish jarayonining III - bosqichi ajratiladi:

I bosqich – mashqlarni bajarish texnikasi asoslariga o'rgatish, qo'pol shaklda bo'lsa ham uni bajarish bilimini shakllantirish;

II bosqich – chuqurlashtirib o'rgatish- texnikani boshlang'ich o'zlashtirilishini takomillashuvigacha

yetkazish;

IIIbosqich - mustahkamlash va keyinchalik takomillashtirish - individual xususiyatlarni erishilgan rivojlanish darajasiga muvofiq, mashqlarni ko‘pkarra bajarish.

Muhokamalar va natijalar. O‘tkazilgan tadtiqotlar asosida [9, 10, 11] sportda va aynan faqat aerobikada qo‘llaniladigan, o‘rgatishning umumiy prinsiplari farqlanadi.

L.M.Dikarevich (1996), Y.K.Gaverdovskiy (2001) ma’lumotlari bo‘yicha umumiy prinsiplarga quyidagilar kiradi:

1. Yengillik prinsipi.
2. Onglilik va faolik prinsipi.
3. Ko‘rgazmalilik prinsipi.

Bir qator mualliflar [1, 2], o‘rgatishda asosiy metodik usullar sifatida quyidagilarni ajratdilar:

1. Tezkor sharx va tushuntirish.

Mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida, mashqlarni bajarish paytida murabbiyning ko‘rsatmalari katta ahamiyatga egadir. M.P. Ivlievning (1987) fikricha, bu ko‘rsatmalar tashqi boshqaruv rolini o‘ynaydi. Uning yordamida shug’ullanuvchilar o‘zlarining shaxsiy harakatlari bo‘yicha tezkor tassavvurga ega bo‘ladilar.

2. Guruhni vizual boshqarish.

Amerikada ishlab chiqilgan guruhni boshqarishning shartli belgisi tizimi, sog’lomlashtiruvchi aerobika mashg’ulotlarini o‘tkazishni ancha yengillashtiradi.

Bundan tashqari, asosan parterda va turli xildagi amartizastiyali, og’irliliklar, jihozlar bilan kuch mashqlarini bajarishida u yoki bu mashq fazalari uchun tavsifli, to‘g’ri holatni mustahkamlashga yordam beruvchi turli shakldagi fiksastiyalar tez-tez qo‘llaniladi [10].

Amplituda hisobiga intensivlikni oshirish, amplituda hisobiga yuqori intensivlikdagi harakatlarni, past intensivlikka almashtirish, joydan joyga harakatlanish elementlarini bajarilish tempi (har bir hisobida, takt oralab va hokazo) kabi pedagogik usullar ishlab chiqilgan, bular o‘z navbatida guruh mashg’ulotlari sharoitida ham jarayonni individuallashtirishga imkon yaratadi.

3. Mashqlarni ko‘rsatish.

Koordinastiyasi sodda harakatlarni shug’ullanuvchilarga yuzlanib chap qo‘l va oyoqdan, murakkablarini esa shug’ullanuvchilarga orqa turib ko‘rsatish mumkin.

Shu vaqtning o‘zida shug’ullanuvchilarga uzoq vaqt orqa turib mashq o‘tkazish, ayrim insonlarda salbiy ta’sirni chaqirishi mumkin (T.S.Lisistkaya 1984, J.K.Xolodov, V.S.Kuznestov 2002 va boshqalar).


4. Simmetrik o‘rgatish.

L.M.Dikarevich (1996) fikricha, harakatlar ikkala tomonda ham birdek bajarilishi lozim. Turli o‘lchamdagagi yuklamalar organizmning har tomonlama rivojlanishga yordam beradi.

Mashg’ulotlarni tashkil qilish, rejalashtirish hamda bevosa aerobikaning klassik mashqlarini o‘rgatishda S.Rozensteveych (1988), quyidagi harakatlarning o‘zaro aloqa xususiyatlarini hisobga olishni tavsiya qiladi:

1) yangi harakatlarni o‘zlashtirishning boshlang’ich bosqichida harakatlarning ijobiy o‘zaro munosabati samaradorligi katta bo‘ladi.

2) harakatlarni bir vaqtida o‘rgatishga nisbatan ketma-ket o‘rganib o‘xshash harakatlarni tanlashda (juftlik, guruhlar) va ularni xususiyatlarini aniqlashda nafaqat shaklga (tashqi alomatlar) e’tibor qaratish lozim, vaholanki harakat tuzilishini qismlarigacha baholash kerak, xususan ularning miqdori, ko‘rsatkichlari: amplituda, vaqt, kuch, tezlik, ritm va boshqalar.



Kо'pgina yetakchi mutaxasislarning fikricha, jarayon ishonchli о'rganilishi uchun quyidagi talablarga rioxva qilish lozim:

1. O'rgatish va o'zlashtirilishi lozim bo'lgan operastiyalar to'plami maqsadini aniqlash.
2. Murakkablik xajmiga ko'ra qulaylashtirilgan o'quv materiallarini operastiyalar bo'yicha bo'lish.
3. O'quvchidan o'qituvchiga aksincha aloqa bilan me'yorlashtirilgan materiallarni o'zlashtirilishi bo'yicha muntazam sifat nazoratini o'tkazish.

4. Ishning tempi va berilgan materiallarning murakkabligi bo'yicha moslashish bilan o'zlashtirilgan materiallar sifatidan kelib chiqib, o'rgatishning egiluvchan differenstiyalanishi.

5. O'rgatishning maxsus texnik vositalarini va o'quv dasturlarining qo'llanilishi.

T.S.Lisistskaya (1994), sog'lomlashtiruvchi aerobika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan harakat materiallarini, quyidagi o'zlashtirish ketma-ketligida aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

1. Odatda ular aralash qo'llaniladi, ya'ni ko'rsatib berish so'z sharxi bilan olib boriladi. Shug'ullanuvchilarga orqa turib yoki (zerkalniy) ko'zgu usulida mashqlarni ko'rsatish keng qo'llaniladi.

2. Alovida harakat fazalariga urg'u berib ko'rsatish ham qo'llaniladi. Ko'rsatish doimo hisob va uslubiy sharxlar bilan birga olib borilishi shart. Bunda albatta shug'ullanuvchilar ustidan vizual nazorat o'rnatilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda Adabiyotlardan olingan ma'lumotlar va anketa so'rovnomaga materiallarini umumlashtirib shuni ta'kidlash kerakki, sog'lomlashtiruvchi aerobikaning yangi yo'nalishlarining paydo bo'lishi, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning boshqa turlari orasida yetakchilikni saqlab qolishga imkon beradi.

Sog'lomlashtiruvchi aerobika mashqlarini o'rgatish uchun an'anaviy uslublar: so'z, ko'rgazma uslubi, yaxlitlik va qismлага ajratib o'rgatish uslubiyatlari bir biri bilan uyg'unlashtirib qo'llaniladi.

Aerobikaning sog'lomlashtiruvchi turlari bo'yicha mayjud dasturlarda, ko'pchilik shug'ullanuvchilar o'zlariga ma'lum yo'nalishlarni, ya'ni raqs, kuch, sheypingni afzal biladilar. Ammo ular juda kam va katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan. O'quvchi-yoshlarning katta qismi quyidagi sabablarga ko'ra shug'ullanmaydilar:

- mashqlarni boshlang'ich bosqichlarini o'zlashtirish uchun yengil bo'lgan sog'lomlashtirish aerobika vositalari aniqlanmagan;
- murakkabligi bo'yicha (bog'lamlar, kombinastiyalar) o'quv materiallarining noqulay taqsimoti;
- 18-20 yoshli qizlar uchun o'rnatish dasturlari (bazaviy aerobika) ishlab chiqilmagan;
- slayd, step va boshqa kabi turlarda yordamchi vositalar, anjomlar, jihozlarni topish qiyin bo'lganligi sababli erishib bo'lmaydi;

Bularning barchasi, maxsus tadqiqotlarni o'tkazish va 18-20 yoshli qizlar uchun o'rgatish dasturlarini ishlab chiqish zaruriyatini aniqladi.

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadi, 18-20 yosh - o'qitishning zamonaviy vosita va uslubiyatlarini qo'llash bilan sog'lomlashtiruvchi faoliyk harakatlarni bajarish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Анрющенко Л.Б., Лосева И.В., Вялкина Т.Г. Ритмическая гимнастика в процессе физического воспитания студентов вуза. /Теория и практика физической культуры/, 2004, №5.
2. Беспутчик В.Г. Степ – аэробика. Физическая культура в школе. 2001, №5, 73 с.
3. Волков Н.И., Несен Э.Н., Осипенко А.А., Корсун С.Н. Биохимия мышечной деятельности. – Киев: “Олимпийская литература”, 2000, 503 с.
4. Лисицкая Т.С. Ритм + пластика. – М.: “ФиС”, 1987, 160 с.
5. Лисицкая Т.С. Система подготовки специалистов по аэробики /Т.С. Лисицкая, А.В. Кувшинникова Теория и практика, 2003, №12/.
6. Линец М.М. К вопросу об использовании шейпинг – программ в физическом воспитании студенток высших учебных заведений (Линец М.М., Гумен В.М., Ивлиев Б.К. Теория и практика физической культуры 2005, №3, 39-42 с.)
7. Панкратова Е. Фитнес без границ /ФиС/, 1999, №7.
8. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].
9. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII

Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.

10.Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.

11.Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.

12.Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].

13.Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тұхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиши методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. -620 бет

14. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.

15. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.

16. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.

17. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html

18. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320

19.M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85

20. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914

21.A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of young handball players // Academical. An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39

22. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of training for young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue 02, Feb 2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.

23. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.

Alisher IBRAGIMOVBuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrasi mudiri, dotsent**Feruz MO‘MINOV**Buxoro davlat universiteti
2-bosqich magistranti

YOSH FUTBOLCHILAR O‘QUV MASHG’ULOTLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI

Mazkur maqolada olimpiya zaxiralari bolalar-o‘smirlar sport maktablarida shug‘ullanuvchi 14 va 15 yoshli futbolchilarni tezlik, kuch va chidamkorlilik kabi jismoniy sifatlarining rivojlanishi hamda ularning mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish metodikasi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yosh futbolchi, sikl, nazariy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, nazorat o‘yinlari.

В данной статье научно освещена методика развития физических качеств 14-летних и 15-летних футболистов детско-юношеских спортивных школ олимпийского резерва, таких как скорость, сила и выносливость, а также оптимизации их тренировочных нагрузок.

Ключевые слова: юный футболист, цикл, теоретическая подготовка, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, психологическая подготовка, контрольные игры.

In this article, the development of physical qualities such as speed, strength and endurance of 14-and 15-year-old players engaged in sports schools of children and adolescents in the olimpia reserves, as well as the methods of optimizing their training loads are scientifically covered.

Key words: young player, cycle, theoretical preparation, general physical preparation, special physical preparation, technical preparation, tactical preparation, psychological preparation, control game.

Kirish. So‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g’risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa, yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqlar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekistonda futbolni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, mamlakat futbolini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo‘yicha mutaxassislarini tayyorlash, futbol klublari faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o‘quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish, mamlakatimizda futbol bo‘yicha yirik xalqaro musobaqlar, jumladan, o‘smirlar, yoshlar va xotin-qizlar jamoalari o‘rtasida jahon va qit‘a birinchiliklarini o‘tkazish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5368-son Farmoniga muvofiq:

Mazkur hujjatlar asosida Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida olimpiya zaxiralari kollejlari yaratilgan. Shu tariqa, xususan, mamlakatning o‘smirlar va yoshlar terma jamoalarini, oliv liga jamoalarining tarkiblarini to‘ldirishga qodir bo‘lgan yosh futbolchilarni o‘qitish va ularning tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan. Biroq, shu bilan birqalikda, ushbu sa’y-harakatlarga qaramasdan, kollejlarda o‘quv-shug‘ullanish jarayoni hali ilmiy tadqiqotlarning ma‘lumotlariga to‘liq asoslanmaydi. Bu o‘z navbatida, yosh futbolchilarning yashirin imkoniyatlarini aniqlash imkonini bermaydi.

Bu muhim masalalarni hal qilish aspektida yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini ishlab chiqish muammosining holatini tavsiflash va yosh futbolchilarni tayyorlashning sport tayyorgarligini tavsiflaydigan zaruriy sifatlarni rivojlanirish bo‘yicha yetarlicha o‘rganilmagan ilmiy-uslubiy yo‘nalishlarini ajratish lozim

bo‘ladi. Futbolchilarning jismoniy, funksional, texnik-taktik tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar jamlanmasini o‘z ichiga oladigan bir qator masalalar ilmiy-uslubiy adabiyotlarda hali o‘z aksini topmagan. Yosh futbolchilarning shug’ullanishi bo‘yicha ba’zi bir eksperimental va uslubiy ishlanmalar turlicha shart-sharoitlarda va yosh hamda malaka bo‘yicha har xil sportchilar bilan, ko‘pincha xususiy masalalarni hal qilish bilan cheklangan holda hech qanday tizimlilik va o‘zaro bog’lanishlarsiz bajarilgan [3, 4, 5]. Shu bois, bizning nazarimizda, yosh futbolchilarni tayyorlashning samaradorligini yetarlicha o‘rganilmagan masala sifatida majmuaviy nazorat qilish asosida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish bilan yanada chuqur tadqiq qilish va ishlab chiqish zarurati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: yosh xususiyatlarini hisobga olib yosh futbolchilarning o‘quv-mashg’ulotlari jarayonini optimallashtirish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib biz o‘z oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1. Yosh futbolchilarni yillik sikldagi jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi dinamikasini aniqlash.
2. Yosh futbolchilarning tayyorgarligini majmuaviy nazorat qilishni stabil va informativ testlarini belgilash.
3. Yosh futbolchilar tayyorgarligini chegaralovchi tomonlarini oshirishga yo‘naltirilgan metodikasi va vositalarini tajribada asoslash.

Qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiq qilish uslublaridan foydalanilgan:

1. O‘rganiladigan masala bo‘yicha adabiy ma’lumotlarni tahlil qilish.
2. Amaliy tajribani umumlashtirish.
3. Anketa so‘rovi.
4. Umumiylashtirish.
5. Sportchilarning funksional holatini test orqali baholash.
6. Matematik statistika uslublari.

Tadqiqotning obyekti – yosh futbolchilarni yillik sikldagi o‘quv-trenirovka jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – yosh futbolchilarning jismoniy sifatlarini va funksional tayyorgarliklarini rivojlantirish usullari va vositalari.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar bois keyingi 2020-yilda biz tomonimizdan asosiy pedagogik eksperiment o‘tkazilgan. Biz asosiy pedagogik eksperimentni rejalashtirishda organizmning jismoniy yuklamalarga moslashishining ijobiy samarasini faqatgina bolalar-o‘smirlar organizmi rivojlanishining tabiiy qonuniyatlarini hisobga olingan taqdirda mumkin bo‘lishidan kelib chiqdik, shu sababli ular shug’ullanish jarayonini qurishda asosiy vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Odam organizmi rivojlanishining bu umumiylashtirishini shug’ullanish jarayonini tashkil qilishning asosiy qoidalarini ifodalash imkonini bergen. Xususan, shug’ullanish yuklamalarining ixtisoslashtirilganlik, yo‘naltirilganlik, shiddat, koordinatsion murakkablik va kattalik kabi parametrlari faqatgina shug’ullanishning maqsadlariga mos kelib qolmasdan, shug’ullanuvchilar organizmining yosh holatiga ham mos kelishi zarur. Biz shug’ullanish jarayonida bu holatni hisobga olish bolalar-o‘smirlar yoshidagi futbolchilarni tayyorlashning samaradorligini oshiradi deb taxmin qildik.

Muhokamalar va natijalar. Asosiy eksperimentda 14 va 15 yoshli 23 ta va 22 ta futbolchi ishtirok etdi. Sinovdan o‘tkaziluvchilar jami bo‘lib 45 kishini tashkil qildi. Ularni tanlash shu bilan bog’lanadiki, aynan ana shu yoshda jismoniy rivojlanish tananing uzunligi, tananing og’irligi, o‘pkaning hayotiy sig’imi, kislorodni maksimal iste’mol qilish, bardoshlilik, anaerob-glikolitik qobiliyatlar, tezkorlik kabi asosiy parametrlari urg’u berilgan rivojlantirish davrlariga ko‘proq darajada mos tushadi. Tabiiy o‘sish sur’atlari “yuqori” va “juda yuqori” deb tavsiflenadi.

Asos sifatida OZBO‘SMIlar uchun dasturlar va uslubiy tavsiyalar olingan (Akramov R.A., 2001), ularga tadqiq qilinayotgan muvofiq biz tomonimizdan tuzatishlar – 1 va 2 jadvallar kiritilgan.

Yosh futbolchilar uchun yillik siklda biz tomonimizdan taklif qilingan grafikning prinsipial farqi shundan iboratki, biz soatlarning umumiylashtirishini o‘zgartirmagan holda, asosan, nazarliy tayyorgarlik, yo‘riqchilik va hakamlik amaliyoti hisobiga umumiylashtirishni jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik va texnik tayyorgarlik foizini oshirdik.

Masalan, 14 yoshli futbolchilar uchun mo‘ljallangan grafikdan ko‘rinib turibdiki, umumiylashtirishni tayyorgarlikka - 22,8%, maxsus jismoniy tayyorgarlikka – 25,6% va texnik tayyorgarlikka - 27,7% vaqt ajratilgan. Qolgan 23,9% vaqt boshqa tayyorgarlik turlariga bag’ishlangan. Tayyorgarlik turlarining taxminan xuddi shunday nisbatlari 15 yoshli futbolchilar uchun o‘quv soatlarini taqsimlash reja-grafigida ham rejalashtirilgan.

1-jadval. 14 yoshli futbolchilar uchun yillik siklda o‘quv soatlarining taqsimlanish reja-grafigi

"PEDAGOGIK MAHORAT" ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL 2021, Maxsus son

| № | Oylar Tayyorgarlik turlari | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr | Hammasi | |
|-----|-------------------------------|------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|--------------|-------------|
| | | Janvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr | Hammasi | |
| 1. | Nazariy tayyorgarlik | 2 2,8% | 1 1,4% | 1 1,2% | 2 2,2% | 1 1,1% | 1 1,2% | 1 1,2% | 2 2,2% | 1 1,2% | 2 2,5% | 1 1,3% | 1 1,5% | 16 17% | |
| 2. | UJT | 18 26% | 20 28,1% | 20 25,6% | 18 20,2% | 18 20,9% | 18 22,2% | 20 24,3% | 20 22,9% | 18 23,0% | 16 20,2% | 14 10,4% | 14 21,8% | 214 22,8% | |
| 3. | MJT | 16 23,1% | 18 25,3% | 20 25,6% | 22 24,7% | 22 25,5% | 22 27,1% | 24 20,2% | 22 25,2% | 20 25,6% | 20 25,3% | 18 25% | 16 25% | 240 25,6% | |
| 4. | Texnik tayyorgarlik | 18 26% | 20 28,1% | 24 30,7% | 26 20,2% | 26 30,2% | 24 29,6% | 20 24,3% | 24 27,5% | 20 25,6% | 20 25,3% | 20 27,7% | 18 28,1% | 260 27,7% | |
| 5. | Taktik tayyorgarlik | 10 14,4% | 12 16,9% | 12 15,3% | 10 20,2% | 10 20,9% | 10 19,7% | 14 17,0% | 16 18,3% | 18 23,0% | 18 22,7% | 16 22,7% | 14 21,8% | 180 19,2% | |
| 6. | Psixologik tayyorgarlik | 1 1,4% | — — | 1 1,2% | 1 1,1% | 1 1,1% | — — | 1 1,2% | 1 1,1% | 1 1,2% | 1 1,2% | 1 1,3% | 1 1,5% | 10 1,06% | |
| 7. | Testdan o'tkazish | 2 2,8% | — — | — — | 2 2,2% | — — | — — | — — | 2 2,2% | — — | — — | 2 2,7% | — — | 8 0,85% | |
| 8. | Nazorat o'yinlari | Musobaqalar taqvimi bo'yicha | | | | | | | | | | | | | |
| 9. | Musobaqaqlarda ishtirok etish | Musobaqalar taqvimi bo'yicha | | | | | | | | | | | | | |
| 10. | Tibbiy tekshiruvdan o'tkazish | 2 2,8% | — — | — — | 2 2,2% | — — | — — | 2 2,4% | — — | — — | 2 2,5% | — — | — — | 8 0,85% | |
| | | Jami | 69 7,3% | 71 7,5% | 78 8,3% | 89 9,5% | 86 9,1% | 61 8,6% | 82 8,7% | 87 9,2% | 78 8,3% | 79 8,4% | 72 7,6% | 64 6,8% | 936 100% |

Eslatma: yuqorigi qator – soatlar soni, pastki qator – foizlar

2-jadval. 15 yoshli futbolchilar uchun yillik siklda o'quv soatlarining taqsimlanish reja-grafigi

| № | Oylar Tayyorgarlik turlari | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr | Hammasi | |
|-----|-------------------------------|------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|--------------|--------------|
| | | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Iyul | Avgust | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr | Hammasi | |
| 1. | Nazariy tayyorgarlik | 2 2,8% | 2 2,6% | 2 2,3% | 2 2,1% | - | 2 2,8% | 2 2,0% | 2 2,2% | 2 2,2% | - | 2 2,5% | 2 2,5% | 20 0,52% | |
| 2. | UJT | 18 25,3% | 22 29,3% | 24 28,5% | 22 23,1% | 22 21,5% | 20 21,0% | 22 22,6% | 24 26,6% | 20 22,4% | 20 23,2% | 18 22,7% | 18 23,3% | 250 24,0% | |
| 3. | MJT | 17 23,9% | 19 25,3% | 20 23,8% | 26 24,7% | 30 29,4% | 29 30,5% | 29 30,5% | 22 24,4% | 19 21,3% | 18 20,9% | 17 21,5% | 17 22% | 200 25% | |
| 4. | Texnik tayyorgarlik | 10 25,3% | 20 26,6% | 22 26,3% | 25 26,3% | 30 29,4% | 24 25,2% | 22 22,6% | 22 24,4% | 24 26,9% | 24 27,9% | 22 27,8% | 22 28,5% | 275 26,4% | |
| 5. | Taktik tayyorgarlik | 10 14,0% | 12 16% | 14 16,6% | 16 16,8% | 18 17,6% | 20 21,0% | 20 20,6% | 20 22,2% | 22 24,7% | 20 23,2% | 18 22,7% | 16 20,7% | 206 19,8% | |
| 6. | Psixologik tayyorgarlik | 2 2,8% | - - | - - | 2 2,1% | - - | - - | 2 2,0% | - - | - - | 2 2,3% | - - | 2 2,5% | 10 0,96% | |
| 7. | Testdan o'tkazish | 2 2,8% | - - | - - | 2 2,1% | - - | - - | - - | - - | 2 2,2% | - - | 2 2,5% | 8 0,76% | | |
| 8. | Nazorat o'yinlari | Musobaqalar taqvimi bo'yicha | | | | | | | | | | | | | |
| 9. | Musobaqalarda ishtirok etish | Musobaqalar taqvimi bo'yicha | | | | | | | | | | | | | |
| 10. | Tibbiy tekshiruvdan o'tkazish | 2 2,8% | — — | 2 2,3% | — — | 2 1,9% | — — | 3 3,0% | — — | — — | 2 2,3% | — — | — — | 11 1,0% | |
| | | Jami | 71 6,8% | 75 7,2% | 84 8,0% | 95 9,1% | 102 9,8% | 95 9,1% | 97 9,3% | 90 8,6% | 88 8,5% | 82 8,2% | 77 7,5% | 77 7,4% | 1040 100% |

Eslatma: yuqorigi qator – soatlar soni, pastki qator – foizlar

Shunday qilib, avvaldan amal qilgan reja-grafiklarga tuzatishlar kiritishda biz o’smirlik yoshida futbolchilarni tayyorlashning zaruriy masalalari hal qilinadigan asosiy tayyorgarlik turlariga ajratiladigan soatlar sonini oshirdik.

Ma’lumki, jismoniy sifatlar va funksional tayyorgarlikni rivojlantirish va takomillashtirish qiyin ish, ba’zan esa, ayniqsa, O’zbekistondagi yuqori harorat sharoitlarida uzoq musobaqlar davri davomida buning iloji ham bo’lmaydi. Shu bois ikki siklli yillik rejelashtirish taklif qilingan (3-jadval), u oliv malakali futbolchilar tomonidan muvaffaqiyatlari qo’llanilmoqda.

3-jadval. Yosh futbolchilarni tayyorlashni yillik davrlashtirish rejasি

| I-sikl | | | II-sikl | | | O’tish davri |
|--------------------------------|------------------------------|----------------------|------------------------------|------------------------------|-------------------------|--------------|
| Tayyorgarlik davri | Musobaqa davri | Tayyorgarlik davri | Musobaqa davri | | | |
| Umumiy tayyorgarlik bosqichisi | Maxsus tayyorgarlik bosqichi | I davra musobaqalari | Umumiy tayyorgarlik bosqichi | Maxsus tayyorgarlik bosqichi | II davra musobaqalari | |
| Yanvar | Fevral Mart | Aprel May Iyun | Iyul | August | Sentyabr Oktyabr Noyabr | Dekabr |

Keltirilgan yillik siklning strukturasi yilning issiq paytida rasmiy o‘yinlarni, asosiysi, yosh futbolchilar bilan qo’shimcha bazaviy (funksional) tayyorgarlikni o’tkazishni istisno qiladi. Ushbu ikki siklli yillik rejelashtirishda asosiy e’tibor tayyorgarlik davrining ikkinchi qo’shimcha siklini tashkil qilishga qaratiladi.

Bu yerda, xuddi birinchi sikldagi kabi, ikkinchi siklning umumiy tayyorgarlik bosqichida vaqtning uchdan birdan ko’prog’ini funksional imkomiyatlarni nospestifik vositalar bilan takomillashtirishga ajratish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday holda, birinchidan, yosh futbolchilarni trenirovka samarasini eng yuqori bo’ladi, ikkinchidan, nospestifik mashqlarda yuklamani aniqroq dozalash mumkin [6, 7, 9]. Maxsus tayyorgarlik bosqichida nospestifik mashqlar vaqtining foizi spestifik mashqlarning solishtirma og’irligini oshirish hisobiga kamaytirilgan. To’p bilan bajariladigan spestifik mashqlarning qo’llanilishi texnik-taktik mahorat va jismoniy sifatlarga tutashgan ta’sir ko’rsatgan. Xulosa shu bosqichda nazorat o‘yinlari o’tkazilgan, ularda ishtirok etish musobaqa amaliyotini qo’llab-quvvatlaydi va taktik fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda bolalar-o’smirlar organizmida rivojlanishning sensitiv davrlarini hisobga olish bilan jismoniy sifatlarni rivojlantirish va funksional imkoniyatlarni oshirishda tayyorgarlik davrining ikkinchi siklini kiritish to’liq asoslangan bo’lib hisoblanadi. Bu 14 va 15 yoshli o’smirlar uchun ayniqsa muhim bo’ladi, chunki aynan ana shu yoshda barcha harakat sifatlari shiddat bilan rivojlanadi va bunga tezlik, tezlik kuch va chidamkorlilik, asab jarayonlarining yuqori qo’zg’aluvchanligi, organizmning plastikligi ayniqsa ko’proq ko’maklashadi.

Adabiyotlar

- Ш.Мирзиёев 30.10.2020 йилдаги ПФ-6099 сонли “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони. – Тошкент, 2020 йил 30 октябрь. Lex.uz
- Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Ўзбекистон республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қонуни. – Тошкент, 2015 йил 4 сентябрь. Lex.uz.
- Абдурахмонов Ф.А., Акромов Ж.А. Исследование возможностей моделирования тактических взаимодействий при нападении против организованной защиты гандбольных команд. В некой квалификации. В момент международной научной конференции “Проблемы совершенствования системы подготовки высококвалифицированных спортсменов к олимпийским играм”. - Ташкент, 2006, с.11-14.
- Абидов Ш.У. Автореф. дис... канд.пед.наук. -Тошкент, 2011.
- Айрапетянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. -Т.: “Ибн Сино”, 1991- 156с.
- Гакаме Р.З. Функциональное состояние и физическое развитие футболистов 9-22 лет: Автореф.дис. ... канд.билиог.наук. - Краснодар, 1995. с.-17.
- Лисенчук Г.А. Теоретико-методические основы управления подготовкой футболистов. Автореф. дисс. доктора наук. -Киев, 2004.
- Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир енгил

атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].

9. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.

10. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.

11. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.

12. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].

13.Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиши методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. 620 бет

14. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.

15. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.

16. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.

17. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html

18. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320

19.M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85

20. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914

21.A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of young handball players // Academical.An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39p

22. A.K.Ibragimov, F.I.Mo‘minov. Methodology of optimization of training for young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.

23. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.

Алишер ИБРАГИМОВБухоро давлат университети
факултетлараро жисмоний маданият
ва спорт кафедраси мудири, доцент**Фаррух ЭСАНОВ**

Бухоро давлат университети магистранти

БОКСДА МАШГУЛОТНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА МЕТОДИКАСИ АСОСЛАРИ

Уибу мақолада 14-15 ёшдаги боксчилар билан ўтказиладиган машгулотларни ташкил этиши бўйича олиб борилган ишлар ўрганилган ва илмий жиҳатдан таҳлил қилиниб, умумлаштирилган.

Калим сўзлар: мураббий ва спортчи, ёш боксчилар, спорт мотивацияси, тайёргарлик босқичлари, қизиқишилар, ўқув-машгулотлар, воситалар, усуллар.

В данной статье изучена и научно проанализирована и обобщена работа по организации тренировок боксеров 14-15 лет.

Ключевые слова: тренер и спортсмен, юные боксеры, спорт мотивация, подготовительные этапы, интересы, обучение, средства, методы.

In this article, the work on the organization of training sessions with boxers aged 14-15 has been studied and scientifically analyzed and summarized.

Keywords: coach and athlete, young boxers, sport motivator, preparation stages, interests, training, tools, methods.

Кириши. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуси ва ғамхўрлиги туфайли спорт фаолиятининг юкори даражада ўсганлиги кузатилмоқда. Кўпчилик спортчиларимизнинг халқаро мусобақалардаги муваффақиятли иштироки фикримиз далилидир. Ҳар хил спорт турлари бўйича Ўзбекистон терма жамоалари алоҳида жамоа сифатида Олимпия, Осиё ўйинларида ва жаҳон чемпионатларида қатнашиш имкониятига эга бўлдилар. Мамлакатимизда фаол ривожланиб келаётган спорт турларидан бири бокс ҳисобланади. Ёш боксчилар спорт маҳоратининг муваффақиятли такомиллашувини таъминловчи ўйларни излаб топиш долзарб муаммолардан бир ҳисобланади. Биринчи навбатда, бу техник-тактик маҳоратни такомиллаштиришга тааллуклидир, чунки тайёргарликнинг бу томони бўлгуси олимпиячилар захирасини ташкил этувчи боксчилар маҳоратининг энг нозик томони ҳисобланади.

Мутахассисларнинг фикрича, тайёргарлик кўпинча бир томонлама олиб борилади, зарур техник-тактик воситаларнинг такомиллашувига зарар келтирган ҳолда функционал ва жисмоний тайёргарлик даражасини оширишга алоҳида эътибор бераб амалга оширилади: И.П.Дегтярев, Н.А.Худадов (1978), Г.О.Джероян (1980), А.М.Базеян (1990), Е.В.Калмыков (1996), А.Г.Ширяев (2002).

Асосий қисем. Маълумки, боксда турли-туман техник-тактик тайёргарлик вазифалари орасида машғулот шароитларида ўзлаштирилган ҳаракатларнинг бажарилиш техникасидан уларни мусобақаларда қўллашга ўтишни тезлаштириш энг муҳим муаммолардан бири ҳисобланади. Боксчиларнинг техник-тактик такомиллашуви тизимида машғулот жанглари мунтазам равишда ва катта ҳажмларда, биринчи навбатда, мусобақаларга яқинлаштирилган шароитларда ҳаракатларнинг кўлланилиш вазиятларини моделлаштириш зарурияти туфайли қўлланилади [1, 2]. Бунда ўқув жанглари ва мусобақалардаги олишувларнинг техник-тактик миқдори ўртасидаги фарқлар уларнинг айrim таркибларида муҳим аҳамият касб этади, бу баъзи мутахассислар томонидан ҳамда ёш боксчиларда олиб борилган тадқиқотлар маълумотлари билан тасдиқланади [3, 5, 8].

Олдинга қўйилган муаммолар боксчиларнинг техник-тактик тайёргарлигини жадаллаштириш учун уларнинг машғулот ҳамда мусобақа фаолиятининг таъсир белгиларини илмий жиҳатдан излаб топиш эҳтиёжини белгилаб беради.

Тадқиқот обьекти ва предмети: 14-15 ёшдаги боксчиларнинг техник-тактик қуролланганлиги. Машғулот жанглари ва расмий мусобақаларда ҳаракат турлари ҳамда уларнинг тактик таркибларининг кўлланилиш кўрсаткичлари.

Тадқиқотнинг мақсади: 14-15 ёшдаги боксчилар билан олиб бориладиган машғулотларни ташкил этилиши ва методикасини аниqlаш

Тадқиқот вазифалари: тадқиқот мақсадидан келиб чикиб биз ўз олдимизга қуидаги вазифаларни белгилаб олдик:

- мавзуга оид адабиётларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш;
- машғулот жанглари ва мусобақаларда асосий ҳаракат турлари таркибидан фойдаланишда ёш боксчиларнинг индивидуал хусусиятларини, шунингдек, ҳаракатларнинг қўлланилиш кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликлар даражасини аниглаш.

Бокс техникаси ва тактикасини ўргатиш учун методик усувлар орасида умумий қабул қилинганлари [1, 12, 13]:

- бир қатор сафда туриб мураббийнинг умумий буйруғи остида усувлар ва ҳаракатларни (шериксиз) гурух бўлиб ўзлаштириш;
- икки қатор сафда туриб мураббийнинг умумий буйруғи остида усулни (шерик билан) гурух бўлиб ўзлаштириш;
- мураббий билан “яssi қўлқоп”да ёки қўлқопда ишлаганде боксчининг усувлар ва ҳаракатларни индивидуал эгаллаши;
- зал бўйлаб эркин ҳаракат қилаётган жуфтликларда мураббий топшириғи бўйича усувларни мустақил эгаллаш;
 - ҳар бир боксчига вазифа чеклаб берилган ҳолда шартли жанг;
 - паст даражада техник вазифалар қўйилган шартли жанг;
 - эркин жанг (рақиб ҳаракатлари чекланмаган жанг).

Бокс машғулотининг типик йўналиши, одатда, асосий ҳаракат турларини такомиллаштиришни ўз ичига олади [16]. Улар орасида қуидагилар бор:

- a) тайёргарлик ҳаракатлари – тик туриш, жой, масофа, силжиш, кўчиш ва алдамчи ҳаракатларнинг ҳар хил варианtlари;
- б) хужум ҳаракатлари – иккала қўлда бошга ва гавдага тўғридан, ёндан ва пастдан зарбалар;
- в) химояланиш ҳаракатлари – қўллар, гавда ёрдамида, силжиб юриш билан ва комбинациялашган химоя усувлари;
- г) қарши хужум ҳаракатлари – иккала қўлларда жавоб ва қарши зарба шаклидаги тўғридан, ёндан, пастдан бошга ва гавдага зарбалар.

Деярли ҳар бир машғулотда машқ қилинадиган базавий ҳаракатлардан ташқари, мустақил режалар асосида қуидагилар ўзлаштириб борилади [20, 21]:

- янги усувлар, ҳаракатлар, улар қўлланилишининг тактик турлари, энг самарали ва тез-тез қўлланиб туриладиган ҳаракатлар комбинациялари, рақибларнинг қаршилик кўрсатиш вазиятларини моделлаштиришда уларни тайёрлаш ҳамда қўллаш бўйича қўнималар ихтисослаштирилади;
- бир хил вазиятларда машқ қилинадиган ёқтирилган ҳаракатларни тақрорлаш;
- муайян рақибларга қаршилик кўрсатиш учун жанговар ҳаракатлар ва вазиятлар;
- намунавий тактик моделлар билан олишувни олиб бориш учун маълум бир ҳаракатлар таркиби – хужумкорлик ёки химояланиш тарзида, тез ёки пойлаш тарзида, манёвр олиб бориш ёки позицион тарзда;
- асосий ҳаракат турларини тайёрлаш ва қўллашнинг психологик хусусиятлари;
- айrim базавий ҳаракатларни қўллашга тўскинлик қилувчи психологик тўсиқларни бартараф этиш воситалари.

Шериксиз бажариладиган машқларга қуидагилар киради:

- зарбага қўлларни қўйиш ҳаракатлари, химояланиш имитациялари, жой ўзгартиришлар, силжиб юришлар ва алдамчи ҳаракатларни мустақил тақрорлаш;
- усувларни сериялаб бажариш;
- машқлар орасидаги танаффусларда ўзаро йўл-йўриклар кўрсатиш;
- усувларни оқим бўлиб бажариш.

Таъкидлаш жоизки, шериксиз бажариладиган деярли ҳамма машқлар моҳиятига кўра Ѹзига хос гимнастика бўлиб, у турли хил ҳаракатларни бажаришда гавда аъзолари ўзаро алоқаларининг Ѹзига хос динамикасига эга бўлган усувларнинг ҳаракат тузилишини эгаллашга қаратилган [19].

Спортчилар, ихтисослаштирилган ҳаракатларни мустақил тақрорлаётib, маълум бир бокс воситаларини бажаришга бўлган кўрсатмаларни амалга оширадилар, мураббийнинг назорати эса бажарилиш даражасига зудлик билан баҳо беришга ва мувофиқ равишда йўл қўйиладиган ноаниқликлар ёки хатоларни тузатишга имкон яратади [14].

Буйруқ ёки сигнал бўйича усулларнинг бажарилиши берилган ҳаракат тузилишларининг яхлитлигини ёки усулларнинг таркибий (фазавий) қисмларга бўлинишини тартибга солишга ёрдам беради. Ушбу ҳолда мураббийнинг буйруқлари шундай бериладики, шуғулланувчилар берилган ҳаракатлар тузилишини ҳаёлан тасаввур қилишга улгурышлари лозим [15].

Сериялаб бажариш алоҳида спортчи ёки шуғулланувчилар гурухи учун ўрганилаётган ҳаракатларни тўхтовсиз ва кўп марта такрорлашга шароит яратади. Бунда маҳсус чидамлиликни шакллантирувчи катта мотор зичликка эришилади [17].

Ўзаро йўл-йўриклар кўрсатиш бирга машқ қилаётганларнинг бир- бирига галма-галдан ёрдам бериши ва улар томонидан йўриклилар малакаларини бошланғич ўзлаштирилиши хисобланади. Агар мураббий томонидан берилган машқни шуғулланувчилар умумий сафда галма-гал бажарсалар, ушбу ҳолда улар шерикларига ижобий томонларни ва очиқ кўриниб турган камчиликларни кўрсатган ҳолда усулларни бажариш техникасига баҳо бериш имкониятига эга бўладилар [18].

Усулларнинг оқим бўлиб бажарилиши вазифаларнинг кетма-кет (навбатма-навбат) бажарилиши хисобланади, бир шуғулланувчи томонидан ҳаракатнинг тугалланиши ўнг ёки чап томонда турган спортчига старт олиш учун сигнал бўлиб хизмат киласди. Шундай қилиб, машқларнинг бажарилиши худди елпигисимон хусусиятга эга бўлади, бу мураббийга ҳар бир шуғулланувчини кузатиб боришга ва тезкор баҳолашга имкон беради [4].

Тасаввурдаги (ҳаёлан мавжуд бўлган) шерик (ракиб) билан машқ қилиш кўпинча “соя билан жанг” деб юритилади. У асосий турдаги хужум ва ҳимояланиш, шунингдек, жавоблар ва қарши ҳужумларга қаршилик кўрсатиш ҳаракатлари воситаларидан иборат усуллар комбинацияларининг бажарилишини ўз ичига олади. Комбинациялар ва алоҳида ҳаракатлар серияларини танаффусиз бажариш зарур. Боксчи гўёки рақибнинг ҳаракатларини олдиндан сезган ҳолда ва унинг назарида тактик жиҳатдан мос келадиган яккакураш воситаларидан фойдаланиб жанг олиб боради [9].

Боксчиларни жангларга тайёрлашда бокс снарядлари ва тренажёрларида бажариладиган машқлар катта ўрин эгаллайди.

Бунда нишоннинг хусусиятига, хусусан деворга осилган ва ҳаракатсиз, силжиш амплитудаси номаълум даражада ўзгариб турадиган ҳаракатланувчи хислатларига қараб, улар ёрдамида зарбалар аникилиги ва кучни ошириши юзасидан турли хил педагогик вазифалар ҳал қилиниши мумкин [11].

Муҳоммадлар ва натижалар. Кўп сонли тадқиқотларда аниқланишича, нишонга аниқ этиб бориш, биринчи навбатда, зарбанинг намунавий техникасига риоя қилиш, уни кутилмагандан ўзгарувчи вазиятларга мос ҳолда кўчириш кўнімларни, олдиндан сезиши (идрок этиш), танлаш реакциялари ҳамда табақалашган реакцияларнинг ихтисослашганлик даражаси билан белгиланади. Ундан ташқари, ҳаракатланувчи нишон кўп жиҳатдан шуғулланувчиларнинг мусобака шароитларига мослашиш жараёнлари тезлаштирилиши сабабли зарба бериш аникилигини такомиллаштириш вазифаларини ҳал этишга ёрдам беради. Шундай қилиб, ҳар хил масофалардан туриб ва тез ҳамда аниқ зарбаларга кўрсатма берилган ҳолда бажариладиган нишонлардаги турли-туман машқлар боксчиларда олишувларда намоён қилиниши зарур бўлган ихтисослашган ҳаракат малакаларини шакллантиради.

Машқларни олиб боришнинг энг кенг тарқалган шакллари қўйидагилар [1, 6]:

- шерик билан машқлар;
- мураббий билан “яси қўлқоп”да индивидуал ишлаш;
- эркин жанглар;
- силжиб юриш усулларини мустақил такомиллаштириш;
- қопларда ва тренажерларда бажариладиган машқлар;
- эркин жанглар сериялари.

Шерик билан машқлар боксчиларни ўргатиш ва машқ қилдириш воситаси сифатида биринчи галда энди шуғулланәётган ва ёш боксчилар билан гурухли машғулотлар олиб бориш асоси ҳисобланади. Шу билан бирга, юқори малакали спортчилар машғулотларида ҳам шерик билан бажариладиган машқларнинг айрим турлари кўлланилади. Уларнинг самараси шерикларнинг ўзаро ҳаракатларни бир-бирига ёрдам берган ҳолда бажаришдан тортиб, то башорат қилиниши қийин бўлган тезкор ва тўқнашувли яккама-якка олишувгача кенг доирада ўзgartириш имкониятлари билан тушунтирилади.

Жуфтлик машқларини ташкил қилиш шаклларининг турлари орасида ўзаро ёрдам билан бажариладиган машқлар бор. Улар усул ёки тактик кўнімларнинг ҳаракат тузилишини эгаллаш зарур бўлган пайтларда кўлланилади. Бироқ ҳамма холларда шериклардан бири ҳужум қиласди, бошқаси эса олдиндан шартлашилган усуллар ёрдамида ҳужумга қаршилик кўрсатиб, зарба ўтказиб юбориши ёки уни қайтариши мумкин. Машқлар аввал турган жойда ўтказилиши мумкин, бу, айниқса, усулларни бажариш пайтида вақт-макон боғлиқларининг шаклланишини енгиллаштиради.

Кейинчалик машқлантирувчи воситаларни ўзлаштириш манёвр олиб бориш ҳисобига, айникса, хужум қилувчи (кейин эса ҳимояланувчи) ташаббусга эга бўлган пайтда, қийинлаштирилади.

Машқларнинг шу тарзда ташкил қилиниш шакли мураббий томонидан берилган ҳаракат турларини, жумладан, жавоб билан ҳимояланишлар, қарши хужумлар, қарши жавоб билан қарши ҳимояланишларни амалга оширишда зарба бериш техникасини барқарорлаштиришга кўпроқ ёрдам беради. Кўпинча ўзаро дарслар ҳам ўтказилади, улар малакали боксчилар тайёрлаш амалиётида қўлланилади. Улар мураббий томонидан берилган кенг доирадаги ҳаракатлар ёрдамида бир-бирига ёрдам бериш орқали бажариладиган намунавий машқлардан фарқ қиласди. Шундай шартлар ҳам қўйилиши мумкинки, бунда шериклардан бири машқларни шарҳлаб ва бажарилётган усулларни баҳолаган ҳолда бошқаси билан ўзаро ҳаракат қиласди.

Ўйин тартибида ўтказиладиган шерик билан жанговар машқлар техник малакаларни барқарорлаштириш, ҳаракат тезлигини ихтисослаштириш ва тўғридан, пастдан ҳамда ёндан бериладиган қарши зарбаларни жойида туриб ёки уларни манёвр олиб бориш билан бирга қўшиб бажарган ҳолда алмашлашга хос тактик қўнималарни шакллантириш асосида ҳимояланишлар ҳамда жавоб қарши зарбаларининг машқ қилинишини жадаллаштириш имконини беради.

Шерикларнинг ҳар бир машқдаги тўхтовсиз ўзаро ҳаракатлари цикли 20-70 сонияни ташкил қиласди.

Тезлик билан қаршилик қўрсатиш машқлари муҳим аҳамият касб этади, улар “қарши” атамаси билан қўлланилади. Улар боксчилар машғулотида асосан иккита педагогик вазифа билан қўлланилади:

- жавоб қайтариш билан хужум ва ҳимояланишлар техникасини таомиллаштириш;
- ҳаракат тезлигининг намоён бўлиши ва реакция қилишларни ихтисослаштириш.

“Қарши” ҳаракатлардаги яккама-якка олишув шартлари, жумладан, шериклар (рақиблар) орасидаги масофани мураббий белгилаб беради, боксчилар эса аввал фақат қисман мавхум шароитда бўла туриб (хужумни бошлаш пайти маълум), номуқобил шароитда ҳаракат қилишлари мумкин. Кўрсатмага мувофиқ хужум қилувчи фақат мураббий томонидан топширилган битта хужумни, масалан, иккита алдамчи ҳаракатлар ва бошга тўғридан зарба беришни бажаради.

Ҳимояланувчи бундай вазиятда фақат аниқ битта ҳимояни, масалан, ён томонга оғиш билан ҳимояланишни қўллаш хукукига эга бўлади. Кўриниб турибдики, бундай вазиятларда, яъни ҳимояланувчи унга қай тарзда ва қайси тана қисмига хужум қилишларини билиб турган бир пайтда, у фақат ҳаракатнинг бошлангич даражасини тез ҳамда кутилмагандан амалга ошириш ҳисобига хужум ўюштиришда муваффақиятга эришиши мумкин.

Мураббий билан “яssi қўлқоп”да индивидуал ишлаш бокс машғулотларини ташкил қилишнинг, шунингдек, машқлар ўтказишнинг мустақил шакли ҳисобланади [1].

Бунинг устига, ёш спортчилар машғулотида ҳаракатларнинг ҳажмлари мунтазам қўлланилиши техник-тактик таомиллашув жараёнига методик таъсир қўрсатиш самараси бўйича жуфтлик машқлари ҳамда жанговар амалиётдан орқада қолади.Faқат мураббий билан “яssi қўлқоп”да ишлашнинг назорат функциялари ва техник хатоларни тез ва мақсадли тузатиш, мусобақадаги ўзаро ҳаракатларга яқинлаштирилган вазиятларнинг бир бўлакларини моделлаштириш учун уни қўллашдаги имкониятлар олдинги қаторга чиқади [10]. Жанговар амалиётнинг бошқа машғулот воситаларига қараганда кичик ҳажмлари ва вақти-вақти билан, бир ойда камида 2-3 марта натижага учун ўтказиладиган назорат жанглари боксчиларнинг узоқ давом этадиган ва психик жиҳатдан ўта шиддатли мусобақа жангларини олиб бориш учун функционал тайёргарликларини ихтисослаштириш асосини ташкил қиласди. Машғулот ва назорат жанглари серияларида ҳаракатлар ва уларни тайёрлаш ҳамда қўллашнинг тактик таркиблари оптималлаштирилади, индивидуал тузатишлар киритилади [7].

Хулоса қилиб айтганда маҳсус адабиётлар таҳлили ва бокс назарияси ҳамда методикаси соҳасидаги етакчи мутахассислар ўртасида ўтказилган сўров натижалари шундай хулоса қилишга имкон берадики, спорт фанида азалдан спорт машғулоти назарияси билан боғлиқ бўлган масалалар биринчи ўринга чиқиб, баъзан спортчи мусобақа фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинмаган. Аниқ кўриниб турибдики, спортчини маълум бир натижани эгаллашга тайёрлашдан олдин яккакурашнинг кечиш шароитларини, организмнинг алоҳида вазифаларига қўйиладиган талабларни, унинг энергия сарфлаши ва бошқаларни билиш лозим, кейин эса шулардан келиб чиқиб, машғулот жараёнини тузиш зарур.

Адабиётлар

1. Абдиев А.Н. Индивидуал дарсда тренер маҳоратининг асослари. Монография. -Т., 2000.169 б.

2. Акопян А.О., Новиков А.А. Анализ характеристик соревновательной деятельности как фактор построения тренировочного процесса в единоборствах. - М.: ВНИИФК, 1985. – 18 с.
3. Базеян А.М. Технико-тактическая подготовка боксеров юниоров на основе учета показателей их соревновательной деятельности: Автореф. дисс.... канд. пед. наук. - М., 1990. – 23 с.
4. Бокс: Тренеру об основах мастерства боксера /В.М.Романов //Ежегодник. - М.: "Физкультура и спорт", 1981. – 51 с.
5. Гаськов А.В. Теоретико-методологические основы управления соревновательной и тренировочной деятельностью квалифицированных боксеров: Автореф. дисс канд. пед. наук. - М., 1999. – 41 с.
6. Гаськов А.В. Теория и методика спортивной тренировки в единоборствах. - Улан-Удэ, Изд-во Бурят. Гос. университета. - 2000. – 271 с.
7. Гаськов А.В. Спортивная тренировка единоборцев как системный процесс планирования и управления //Восток-Запад: Проблемы физической культуры и спорта в современных условиях: Матер. II междунар. науч.- практич. конф. - Улан-Удэ, Изд-во Бурт. Гос. университета. - 2000. - Ч.2. - 24-28 с.
8. Горстков Е.Н. Анализ тренировочной и соревновательной деятельности боксеров тяжелых весовых категорий //Бокс: Ежегодник. - М.: "ФиС", 1983. - 43-46 с.
9. Дегтярев И.Н. Тренированность боксеров. - Киев: "Здоровья", 1985. - 140 с.
10. Иванов И.И. уроки бокса: Метод. пособие.-М.:Воениздат, 1970.-128с.
11. Качурин А.И. Варианты технико-тактического применения ударов в боксе (методическая разработка для тренеров и спортсменов) /А.И.Качурин. - М.: МИИТ, 1998. – 41 с.
12. Котешев В.Е. Подготовка боксеров в ходе многолетнего учебно- тренировочного процесса: Учебное пособие. - Краснодар, 1992. - 216 с.
13. Лаптев А.П. управление тренированностью боксеров /А.П.Лаптев, В.А.Лавров, П.Г.Левитан. - М.: "Физкультура и спорт", 1973. – 104 с.
14. Остянов В.Н., Гайдалюк И.И. Бокс (обучение и тренировка). - Киев. "Олимпийская литература", - 2001. – 239 с.
15. Романенко М.И. Молодому боксеру. -М.: "Физкультура и спорт", 1968. - 128 с.
16. Таймазов В.А. Индивидуальный подход к технико-тактической подготовке боксеров с учетом их спортивно-важных качеств: Автореф. дисс.... канд. пед. наук. - Л., 1981. - 189 с.
17. Филимонов В.И. Бокс. Спортивно-техническая и физическая подготовка. Монография /В.И.Филимонов. - М.: "ИСАН", 2000. - 432 с.
18. Филиппов С.С., Таймазов В.А., Квачадзе Д.И. Спортивная тренировка в боксе как объект информационного обеспечения //Теория и практика физической культуры. - 1999. - №1. - 36-38 с.
19. Шатков Г.И., Ширяев А.Г. Юный боксер. - М.: "Физкультура и спорт", 1982. - 127 с.
20. Щитов В. Бокс: Эффективная система тренировки. - М.: ФАИР- ПРЕСС, 2003. - 432 с.
21. Щитов В. Бокс для начинающих /А.Щитов. - М.: "ФАИР-ПРЕСС", 2004. - 448 с.

Алишер ИБРАГИМОВ

Бухоро давлат университети
факултетлараро жисмоний маданият
ва спорт кафедраси мудири, доцент

Абдулатиф ЛАТИПОВ

Бухоро давлат университети
II босқич магистранти

ЁШ ГАНДБОЛЧИЛАРНИ МУСОБАҚАЛАРГА БОШЛАНГИЧ САРАЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ АНИҚЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Уибу мақолада ёш гандболчи қизларларнинг иқтидорлилигини ташхислашга муҳим даражада таъсир қилувчи бир қатор мезонлар кўриб чиқилган. Бошлангич босқичда соглигини башорат қилишида турли хил саралаш услублари қўлланилганда олинган натижалар таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: гандбол, саралаш, мезон, спорт, жисмоний, морбофункционал кўрсаткичлар, қизлар, омиллар, гандбол, реакция тезлиги, ҳаракат координацияси.

В данной статье рассмотрен ряд критериев, оказывающих существенное влияние на диагностику одаренности юных гандболисток. На начальном этапе анализировались результаты, полученные при применении различных методов сортировки при прогнозировании состояния здоровья.

Ключевые слова: гандбол, сортировка, критерий, спортивные, физические, морбофункциональные показатели, девушки, факторы, гандбол, скорость реакции, координация движений.

In this article, a number of criteria that significantly affect the diagnosis of puberty in young girls are considered. The results obtained were analyzed when different sorting methods were used in predicting health at the initial stage.

Key words: handball, sorting, criterion, sports, physical, morphofunctional indicators, girls, factors, handball, reaction speed, movement coordination.

Кириш. Замонавий гандболда ўйин ҳаракатларининг юқори суръати, ўйин вазиятларининг тез ўзгариши, тўпни эгаллаб туриш вақтининг чекланганлиги, эмоционаллик ва бу ўйиннинг бошқа хусусиятлари шундаки, спортчиларнинг тайёргарлигига юқори талаблар қўйилади. Сўнгги йилларда ўйин янада жадаллашди. Бу биринчи навбатда, манёвр олиб боришнинг ўрганилганлигига, ўйинчиларнинг тез ҳаракатчанлигига, тўп учун ёки майдоннинг ҳар бир қисмидан жой эгаллаш учун жадал курашга киришишда намоён бўлмоқда. Рақибларнинг фаол қаршилиги, ҳаракатларнинг юқори тезликда бажарилиши ва жанг олиб бориш техник–тактик воситаларининг мураккаблиги оқибатида юзага келган катта асаб – психик зўриқиши спорт – ўйин фаолиятини янада мураккаблаштиради.

Асосий қисм. Спорт ихтисослигини эрта босқичда мос танлаш ўта муҳим, зеро бу танлов организмнинг генетик захираси ҳамда спорт маҳорати ўсишининг башорат қилиш ғолибликтининг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Ёш гандболчиларнинг иқтидорлилигини ташхислаш муҳим даражада таъсир қилувчи бир қатор мезонлар катта аҳамиятга эга. Мезонларга махсус қобилияtlарнинг сифат-сон тавсифлари киради. Бироқ максимал тўлиқ ахборотни тўплаш техник жиҳатдан қийин.

Тадқиқот мақсади - гандбол спорт турида гандболчиларни мусобақаларга бошлангич саралаш жараёнида комплекс баҳолашнинг теехнологияларини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот методлари. Тадқиқот мақсадларини ҳал этиш учун 6-9 ёшдаги болаларнинг гандбол машғулотларига бўлган қобилияtlари даражаси тўғрисида ҳар томонлама ахброт олиш ҳамда таҳлил қилиш имконини берувчи усуllар комплекси қўлланилди. Унга қўйидагилар киради:

1. Анкета сўрови (анкета ёки суҳбатлар усули ёрдамида).
2. Антропометрия.
3. Биологик ёшни аниқлаш (текшириш пайтидаги доимий тишлар сони бўйича, С.В. Васильев).
4. Спорт – педагогик тестлаш.
5. Функционал тайёргарликни тадқиқи қилиш усуllари.
6. Блянкали усуllар ёрдамида психологик тестлаш.
7. Педагогик кузатувлар.
8. Педагогик тажриба.

Сўров. 6-9 ёшдаги болалар ва уларнинг ота – оналари иштирокидаги анкета сўрови гандбол машғулотларига бўлган ҳохишистак ва мотивацияни аниқлаш, шунингдек, дастлабки ҳаракат тажрибасининг мавжудлигини аниқлаш мақсадида ўтказилди. Оилада боланинг танланган спорт тури билан шуғулланишига бўлган муносабат, ота-оналарнинг спортта алоқадорлиги аниқланди.

Антропометрия. Антропометрия ўлчашлар умумий қабул қилинган услубият бўйича ўтказилди Куйидаги антропометрик кўрсаткичлар аниқланди:

1. Тана узунлиги (см).
2. Қўллар қулочи (см), бу кўрсаткич гандболчилар учун жуда муҳим.
3. Узун қўллар коэффициенти (нисб.бир).
4. Тинч ҳолатда кўкрак айланаси (см).
5. Тана оғирлиги (кг).

Изоҳ: узун қўллар коэффициенти қўллар қуличининг тана узунлигига нисбати билан аниқланди.

Биологик ёшини аниқлаши. Текширувлар пайтида ёриб чиқсан доимий тишлар сони бўйича биологик ёшни аниқлаш ва олинган натижаларни мавжуд стандартлар билан таққослаш спорт мактаб интернати стомотолог врачи М.В. Смирнова ўрдамида ўтказилди.

Спорт - педагогик тестлаши. Ёш гандболчиларнинг маҳсус сифатлари ривожланиш даражасини аниқлаш учун назорат комплекс машқлари қўлланилди.

Барча назорат машқлари бир хил шароитларда ўтказилди. Тестлар мазмуни ва уларни бажариш услубияти билан барча текшириувчилар олдиндан танишиб чиқдилар. Тестлар стандарт чигалёзди машқларидан сўнг ўтказилди (20 – 25 минут).

Ёш гандболчиларнинг координацион имкониятларини баҳолаш иккита услубият ёрдамида ўтказилди.

Психологик тестлаши. Ёш гандболчиларнинг касбий муҳим бўлган психологик сифатларини эксперт баҳолаш ИБЎОЗМ мураббийлари томонидан ўтказилди.

Мураббийлар томонидан беш баллик тизим асосида қуйидагилар баҳоланди:

Педагогик кузатувлар

Педагогик кузатувлар ёш гандболчилар мусобақа фаолиятининг сон ва сифат тавсифларини аниқлаш, шунингдек, гандболчиларнинг касбий муҳим психологик сифатларини баҳолаш учун ўтказилди.

Педагогик тажриба

Педагогик тажриба табиий шароитларда Тошкент шаҳар Учтепа ва Миробод туманидаги умумтаълим ва спорт мактаблари базасида икки йил мобайнида 2017 йил сентябрь ойидан 2019 йил сентябрь ойигача ўтказилди. Унинг мақсади гандбол бўлинмаларида шуғулланиши учун 6-9 ёшдаги ёш гандболчиларнинг келажақдаги истиқболини баҳолаш юзасидан ишлаб чиқилган услубиятни текширишдан иборат эди [2, 3, 4].

Бошлиғич босқичда яроқлиликни баҳорат қилиш турли хил саралаш услублари қўлланилганда олинган натижаларни талқин қилишда объектив қийинчиликларга дуч келади. Саралаш пайтида болаларнинг ҳамма қобилиятлари ҳам бир хил ёрқин ифодаланилган бўлмайди, бу, биринчи навбатда, уларнинг ҳаракат режими, етилиш суръатлари, ижтимоий ва бошқа омилларнинг бир–биридан фарқ қилиши билан боғлиқ. Бу ҳолат мавжуд ташҳислаш самараదорлигини албатта пасайтиради. Спорт ихтисослигини танлаш масаласини ҳал этишда комплекс ёндашув тамойили нафақат кенг қўламли маълумот олишга, балки маҳсус қобилиятларни шакллантириш мумкинлиги нуқтаи назаридан ҳар хил ҳаёт фаолияти соҳаларига тааллуқли бўлган кўрсаткичларни таққослашга имкон беради. Шахснинг барча сифатлари ва ҳоссалари бир–бири ва ўйин фаолияти самараదорлиги билан мураккаб муносабатда бўлади. Шунингдек, улар спорт тайёргарлиги жараёнида ўзгаришларга учрайди. Муносабатлар ва ўзгарувчанлик қонуниятлари шу сабабли муҳимки, улар саралашда қобилиятларни тўғри ва ўз вақтида баҳолашга йўналтиради.

Маҳсус адабиётларда мавжуд тадқиқотлар маълумотлари асосида гандболчиларнинг мусобақа фаолияти самараదорлигига таъсир қилувчи энг муҳим кўрсаткичлар аниқанди. Ундан ташқари, биз томонимиздан ўқув-машғулотлар жараёнида кам ривожлантириладиган, гандбол учун муҳим бўлган кўрсаткичлар ҳам кўриб чиқилди.

Гандболда юқори спорт натижаларига эришиш учун ўйинчи юқори даражада ривожланган тезкорликка (тезлик қобилиятларига) эга бўлиши керак. Жисмоний сифат бўлган тезкорлик деганда гандболчининг ҳаракатларни минимал вақт оралиғида бажара олиш қобилияти тушунилади. Чунки тезкорлик – бу комплекс жисмоний сифат, маҳсус адабиётларда тезкорликнинг намоён бўлишининг айрим шаклларини ажратиш қабул қилинган: реакция вақти, битталик ҳаракат вақти ва ҳаракатларнинг максимал суръати. Ўйин фаолиятида тезлик сифатлари турли хил кўринишида намоён бўлади:

ўйинчиларнинг ҳаракатланиш тезлиги, хужум ҳаркатларидан ҳимояланиш ҳаракатларига ўтиш тезкорлиги, сакраш тезкорлиги, ўйин усулларининг бажарилиш тезкорлиги. Исботланганки, спорт ўйинлари вакиллари қарор қабул қилиш тезкорлигига катта устунликка эгадар. Тезкор фикрлаш, айниқса, вазият ўзгариш эҳтимолини инобага олиш зарурлигига, шунингдек, эмоционал шиддатли вазиятларда қарор қабул қилишда жуда муҳимдир. Барча жисмоний сифатлардан айнан тезкор ҳаракатлар кўпроқ генетик назорат қилинади. Бундай тезкор ҳаракалар, биринчи навбатда, асаб тизимиning алоҳида тезлик хоссаларини – асаб жараёнларининг юқори даражадаги мобиллиги (кўшгалиш жараёнлари кечиши тезлиги) ва ҳаракатчанлигини, шунингдек организм анаэроб имкониятларининг ривожланиши ва скелет мушакларида тез толаларнинг мавжудлигини талаб этади [1, 5].

Малакали ўйинчилар ўзгарувчан ўйин вазиятларига реакция қилиш тезкорлиги ва ҳаракатланишлар тезкорлигини юқори даражада ривожланишига эришадилар. Айнан шу иккита параметр 6-9 ёшдаги гандболчиларнинг тайёргарлиги ва истиқболини баҳолашда энг муҳим ҳисобланади.

Maxsus ададиётларда гандболчиларнинг келажакдаги истиқболини баҳолаш учун қуйидаги параметрларни ҳисобга олиш жуда муҳим эканлиги эътироф этилди: қўллар ва оёқларнинг реакцияси вақти, танлаш реакцияси вақти. Биз ҳар хил ёшдаги ёш гандболчиларда ушбу параметрларни текшириб кўрдик. Олинган натижалар ушбу эътирофнинг тўғри эканлигини тасдиқлади. Шу нарса аниқландики, қўллар ва оёқлар реакцияси вақти бир –бири билан боғлиқ эмас, лекин бу кўрсаткичларнинг ҳар бири ўйин ҳаракатлари самарадорлигининг кўп сонли кўрсаткичлари билан ўзаро боғлиқ.

Реакция тезлиги мусобақа фаолияти билан якиндан боғлиқ, шунинг учун реакция вақти ахборотни идрок этиш ҳамда қайта ишлаш жараёнлари тезлиги ва сифатининг ишончли функционал кўрсаткичи ҳисобланади. Реакциянинг марказий таркиблари генетик жиҳатдан белгилаб берилган, бу ушбу мезондан саралаш жараённида фойдаланишга имкон беради. Синергист ва антогонист мушаклар фаолияти координацияси, муайян бир бўғилишнинг антагонист мушаклари фаоллиги чекланган бир пайтда фаоллаштириладиган сигентист мушакларни тўғри танлаш катта аҳамиятга эга. Маълум даражадаги чаққонликни намоён қилиш учун ҳаракатларни юқори тезлиқда бажариш шароитларида амалга ошириладиган сайди-харакатлар аниқлиги катта аҳамиятга эга. Бундай мувофиқлик ҳаракатлар ритмини таъминлайди. Сакровчанлик ривожланганлигининг муҳим омилларидан бири – жисмоний ва координацион сифатларнинг намоён бўлиш даражасидир. маълумки машгулотнинг бошланғич босқичида кучнинг ривожланиш даражаси – сакровчанликнинг асосий таркибларидан бири бўлган портловчан куч кўрсаткичларини ошириш учун муҳим шарт–шароитdir.

Ҳаракат координацияси – ҳаракат тайёргарлигининг муҳим таркибий элементларидан биридир. Унинг юқори даражадаги ривожланиши ҳар хил спорт турларида, айниқса, якуний натижага юқори даржадаги техник тайёргарликка боғлиқ бўлган спорт турларида, шу қатори, гандболда муваффақият пойдевори ҳисобланади. Координациянинг ривожланганлик даражаси, ҳам ҳаракат техникасини эгаллашга, ҳам жисмоний сифатларнинг ривожланишига ёрдам беради. Шу сабабли уни объектив ўлчаш ва баҳолаш катта ҳамиятга эга. Кўпгина психологик ва психофизиологик кўрсаткичлар яққол генетик назорат остида бўлади. Улар орасида - ахборотни қайта ишлаш тезлиги, мия ўтказиш қобилияти, чироқ милтирашлари қўшилиб кетишнинг критик суръати, асаб тизимиning типологик хоссалари, темперамент қирралари. Ирсият, айниқса, хулкнинг учта жиҳатларида – ижтимоий муҳитга мослашунчанлик, эмоционаллик ва фаоллиқда намоён бўлади

Муҳокамалар ва натижалар. Юқори малакали гандболчиларда тактик фикрлашни тадқиқ қилиш натижасида тактик вазифаларни ҳал этишда ахборотни қайта ишлаш қобилиятининг ошиб бориши даражасига кўра спорчиларнинг учта гурухини ажратиб имкони пайдо бўлди:

- ўргатиш учун юқори даражада қобилиятга эга гандболчилар (кузатилган барча спорчиларга нисбатан 30%), уларда 12 та машғулот ичида мия ўтказиш қобилиятининг ўсиши (с) 1.8 бит/с га тенг бўлди (ўйин фаолияти вақтида ўтказиш қобилиятининг дастлабки ўртача даражаси с=2 бит/с бўлганда);

- ўргатиш учун ўрта даражада қобилиятга эга гандболчилар (44% спорчилар), ўсиш с=1,5 бит/с.
- ўргатиш учун паст даражада қобилиятга эга гандболчилар (22% спорчилар), ўсиш с=1,2 бит/с.

Юқорида санаб ўтилган кўрсаткичлар бўйича доимий материал 2017 – 2019 йиллар давомида тўплланган ва таҳлил килинган. Тадқиқотда Учтепа ва Миробод туманидаги ИБЎОЗМ нинг 6-9 ёшдаги гандболчилари қатнашган бўлиб, уларнинг спорт билан шуғулланиш стажи 3-6 ойни ташкил этади.

Тадқиқот давомида тактик вазифаларни ҳал этишга юқори даражада ўрганувчи гандболчиларни саралаб олиш учун ахборотли психофизиологик кўрсаткичлар аниқланди. Улар паст ҳавотираниши (Спильбергер Ханиннинг ўз – ўзини баҳолаш шкаласи бўйича), ўзини ҳис қилиш ва кайфиятни

баҳолашда юқори танқидий мулоҳаза ҳамда дикқатнинг юқори даражадаги танлашга мойиллиги ҳамда жамланиши билан ифодаланади.

Хулоса. Олинган барча маълумотлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, морбофункционал кўрсаткичлар ва спорт натижаларининг ўртача ўсиш кўрсаткичларига эга шахслар оммаси билан бир қаторда, бу кўрсаткичларнинг машғулотларда юқори ёки паст даражада ўсишга эришган шахслар гурухи ҳам (таксминан 10-30%) мавжуд. Юқори машқланувчи шахсларни излаб топиш спортга саралашда бош вазифа ҳисобланади, шу мақсадда биз ушбу башоратловчи услугиятни тажрибада синаб кўрдик) ва тадқиқотлар 6-9 ёшдаги гандболчилар билан ўтказилди.

Адабиётлар

1. Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А., Акрамов Ж.А. Гандбол- Т.: “УзДЖТИ” нашриети, 2005. – 126 б.
2. Сологуб Е. Б. Простые методики для массовых обследований и самоконтроля функциональной подготовленности и работоспособности. Методическое пособие. - СПб: СПб ГАФК им. П. Ф. Лесгафта. - 1995. -15 с.
3. Сологуб Е. Б. Физиологическая характеристика спортивных игр. Лекция. - Л.: ГАФК им. П. Ф. Лесгафта. - 1978. - 20 с.
4. Бриль М. С. Отбор в спортивных играх. - М.: “Физкультура и спорт”, 1980.-127с.
5. Латышевский Л.А., Турчин И.Е., Маневич Л.Р. Гандбол. -Киев:“Висцая школа”, 1988. -198 с.
6. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шугулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкен, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].
7. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.
8. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.
9. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.
10. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
11. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиши методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. -620 бет
12. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.
13. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.
14. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.
15. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html
11. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320
12. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.

13. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
14. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
15. A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of young handball players // Academic An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39p
- 16..Ибрагимов А.К. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославль, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00№23].
17. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
18. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7,Issue 6,2020
19. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov, N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 December
20. S.S.Abdueva. Activities that increase children's interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки и образование международная научно-практическая конференция, 2020.
21. F.Fazliddinov, M.Toshev, N. Sabirova, B.Do'stov. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125. 2020
22. Фазлидинов Ф., Кобилжонов К. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
23. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. "Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping". ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2
24. U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9,Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7
25. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
26. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.

Alisher IBRAGIMOVfakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrasi mudiri, dotsent**Shoxruh USMONOV**

Buxoro davlat universiteti magistranti

**19-21 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA SAKROVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH
DINAMIKASI**

Ushbu maqolada oliv ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi 19-21 yoshli voleybolchilarda sakrovchanlikni rivojlanirish dinamikasini ta'minlovchi kinematik omillarni o'rghanish asosida mazkur qobiliyatni jadal hamda samarali shakllatirish vositalari ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: sakrovchanlik, Abalakov, dinamika, kinematik, qobiliyat, joydan vertikal sakrash, yugurib kelib vertikal sakrash, yuqoriga ko'tarilgan qo'lidan 25 sm. balandda osilgan to'pga maksimal marta sakrab qo'l tekkazish.

В данной статье разработаны и научно обоснованы средства ускоренного и эффективного формирования данной способности на основе изучения кинематических факторов, обеспечивающих динамику развития прыгучести у 19-21-летних волейболистов, занимающихся в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: прыжковая ловкость, Абалаков, динамика, кинематика, ловкость, вертикальный прыжок с места, вертикальный прыжок с разбега, 25 см от поднятой руки, максимальное количество раз, когда вы прыгаете на мяч, висящий высоко.

This article develops and scientifically substantiates the means of accelerated and effective formation of this ability based on the study of kinematic factors that ensure the dynamics of the development of jumping ability in 19-21-year-old volleyball players engaged in higher educational institutions.

Key words: jumping agility, Abalakov, dynamics, kinematics, agility, vertical jump from a place, vertical jump from a run, 25 cm from a raised hand. the maximum number of times you jump on a ball hanging high.

Kirish. Ma'lumki, sportning porloq kelajagi sport zahiralari doirasining kengligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Binobarin, o'zbek sportini jahon maydoniga olib chiqish, uni raqobatbardosh pog'onaga ko'tarish bolalar sportini ilmiy asosda tashkil qilish va bu borada samarali pedagogik texnologiyalar joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina maqsadga muvofiq tashkiliy va uslubiy tadbirlarning ilmiy asosda amalga oshirilishi talab qilinadi. Lekin bunday sifatlarga erishish nihoyatda ehtiyyotkorlik, mashg'ulot yuklamalarini asta-sekinlik bilan, "to'lqinsimon" yo'nalishda oshira borish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Albatta, bu jarayon uzlusiz va muntazamlilik hamda mashg'ulot yuklamalarini shug'ullanuvchi "obyekt"ning funksional imkoniyatlariga mos tarzda qo'llash tamoyillari asosida yanada samarali va jadalroq kechadi. Hozirgi kunda ko'p joylarda sport to'garaklari, BO'SMlar, hatto, ayrim terma jamoalarda ham mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish, yuklamalarini rejalashtirish, umumiy va ixtisoslashtirilgan mashqlarni tanlash hamda qo'llashda shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, jinsi, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlari obyektiv test natijalariga asosan amalga oshirilmaydi. Ana shunday kamchilik va muammolar voleybolchilar tayyorlash amaliyotida ham ko'zga tashlanadi.

To'g'ri, so'nggi yillarda voleybol bo'yicha chop etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarida mazkur mavzu yoki masalalarga bag'ishlangan ma'lumotlar hamda tadqiqot natijalari talqin etilgan (L.R.Ayrapetyanst, M.A.Godik 1991; Y.D. Jeleznyan, 1998, 2005; A.V.Belyayev, M.V.Savin, 2000, 2009; Y.N.Kleshev, 2003; L.R.Ayrapetyanst, 2006; L.R.Ayrapetyanst, A.A.Pulatov, 2012).

Shu bilan bir qatorda, ushbu manbalarda turli zonalardan zarba berish, to'siq qo'yish, sakrab orqaga yoki oldinga to'p uzatish, to'p kiritish uchun ijro etiladigan sakrashlar koordinastiyasi, balandligi, holat-yugurib kelish, oyoqlarni bukish burchagini tanlash masalalari tadqiqot predmeti sifatida atroflicha o'r ganilmagan. Boz ustiga, sakrovchanlik (sakrash balandligi) faqat Abalakov yoki "diagonal ekran" (kosoy ekran) o'lchov usuli bilan baholanadi. Sakrash chidamkorligi esa muayyan balandlikda osilgan to'pga maksimal marta sakrab qo'l tekkizish usuli orqali baholanadi. Darvoqe, ayrim tadqiqotlarda "tezometrik platforma" asbobida ham ushbu sifatlar sur'ati aniqlangan. (A.V. Belyayev, M.V. Savin, 2009). Ammo tenzometrik asboblar o'zining og'irligi, ekspluatatsion jihatdan ko'p vaqtini talab qilishligi bilan sakrovchanlikni tezkor baholash va nazorat qilish imkonini bermaydi. Ana shu va sakrovchanlikni ta'minlovchi boshqa xususiyatlarni (yuqorida muhokama etilgan) e'tiborga olgan holda biz ushbu sifatning turli qirralarini o'rghanish imkoniyatini yaratadigan yangi texnologik asbobni ixtiro qilishga erishdik.

Muhokama etilayotgan mazkur ma'lumot, muammo va omillar bitiruv ishi bo'yicha tanlangan mavzuning o'ta dolzarb amaliy ahamiyatga loyiq ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot maqsadi: oliv ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi 19-21 yoshli voleybolchilarda sakrovchanlikni rivojlantirish dinamikasi ta'minlovchi kinematik omillarni o'rganish asosida mazkur qobiliyatni jadal hamda samarali shakllatirish vositalarini aniqlash.

Tadqiqot ishi maqsadiga ko'ra quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- yosh voleybolchilarda sakrovchanlik va uni ta'minlovchi kinematik omillarni amaldagi Abalakov usuli yordamida o'rganish;

- sakrovchanlikni nazorat qilish va baholash maqsadida ishlab chiqilgan texnologik asbobni sinovdan o'tkazish;

- sakrovchanlikni ta'minlovchi kinematik elementlarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus mashqlar samaradorligini aniqlash.

Voleybol to'garaklari, voleybol klublari va terma jamoalarga muvofiq nomzodlarni tanlov asosida qabul qilishda hamda o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini o'tkazish davomida mutaxassis-trenerlar sakrash qobiliyati, sakrovchanlik va sakrash chidamliligi kabi jismoniy sifatlarga alohida e'tibor qaratishadi. Lekin barcha trenerlar ham ushbu qobiliyat va sifatlarni rivojlantirishda doimo samarali mashqlardan foydalana bermaydi va ularni shakllanish (o'sish) dinamikasini muvofiq testlar yordamida baholab berish jiddiy masala sifatida qabul qilinmaydi. Vaholanki, sakrash ko'nikmalariga o'rgatish, sakrovchanlik va sakrash chidamliligini rivojlantirishda maqsadli mashqlarni tanlash, ushbu sifatlarning rivojlanish dinamikasini muntazam nazorat qilib borish (baholab borish) mazkur jarayonni samarali tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

Ana shu dolzarb muammolarni e'tiborga olgan holda biz turli yosh va sport tayyorgarligiga ega voleybolchilar ustida bir qator tadqiqotlar uyuشتirdik.

Muhokamalar va natijalar. Tadqiqotga voleybol bilan 2 yil davomida shug'ullangan 24 nafar 19-21 yoshli o'g'il va qiz bolalar ishtirok etdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan shu narsa ko'zga tashlandiki, tadqiqot obyekti bo'lgan barcha voleybolchilar bilan olib borilayotgan odatdag'i an'anaviy mashg'ulotlar va ularda qo'llanilayotgan sakrash mashqlari sakrovchanlik hamda sakrash chidamkorligini shug'ullanuvchilar yoshi va sport tayyorgarligiga nisbatan yetarli emasligidan darak beradi. Chunonchi, maktab voleybol to'garagida 2 yil davomida shug'ullanib kelgan 19-21 yoshli o'g'il bolalarda joydan vertikal sakrash balandligi 2019-yil sentyabr oyining boshida o'rtacha $30,2 \pm 2,24$ sm ni tashkil etgan bo'lsa, oradan sal kam 4 oydan so'ng (dekabrning boshi) $30,8 \pm 2,26$ sm, yana oradan 3 oy o'tganda – $32,2 \pm 2,38$ sm (2019-yil, noyabr), yana 3 oydan so'ng $33,0 \pm 2,41$ sm gacha ortdi xolos (1 jadval).

Ko'rinish turibdiki, deyarli 1 yil davomida olib borilgan an'anaviy mashg'ulotlar davomida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati juda sust borgan. Y.D.Jeleznyak (1998, 2002) va L.R.Ayrapetyan, A.A.Pulatov (2012)larning ma'lumotlariga qaraganda 2-3 yil davomida voleybol bilan shug'ullangan 19-21 yoshli bolalarda vertikal sakrash balandligi 40-42 sm, atrofida bo'lishi lozim ekan yoki o'rtacha 41,4 sm ga teng bo'lishi kerak. Demak, mazkur tadqiqot ishtirokchilari bo'lmish 19-21 yoshli voleybolchilarda qayd etilgan sakrovchanlik darajasi talabga javob bermaydi – deb ta'kidlash mumkin.

1-jadval. Voleybol bilan 2 yil shug'ullangan 19-21 yoshli voleybolchilarda sakrovchanlikning rivojlanish dinamikasi (n=24), ($\bar{x} \pm \sigma$)


| Testlar | 2019-yil sentyabr | 2019-yil oktyabr | 2019-yil noyabr | 2019-yil dekabr |
|---|----------------------|---------------------|--------------------|--------------------|
| Joydan vertikal sakrash (sm) | $30,2 \pm 2,24$ | $30,8 \pm 2,26$ | $32,2 \pm 2,38$ | $33,0 \pm 2,41$ |
| Yugurib kelib vertikal sakrash (sm) | $32,6 \pm 2,44$ | $33,2 \pm 2,34$ | $34,5 \pm 3,02$ | $36,4 \pm 3,14$ |
| Yuqorida ko'tarilgan qo'ldan 25 sm balandda osilgan to'pga maksimal marta sakrab qo'l tekkazish (marta) | $6,34 \pm 0,44$ | $6,88 \pm 0,48$ | $7,38 \pm 0,74$ | $9,66 \pm 0,82$ |

Yugurib kelib vertikal sakrash balandligi tadqiqot o'tazilgan davrlarga muvofiq ravishda $32,6 \pm 2,44$ sm, $33,2 \pm 2,34$ sm, $34,5 \pm 3,02$ sm, $36,4 \pm 3,14$ sm ni tashkil etdi. Afsuski, qayd etilgan bunday ko'rsatkichlar taqqoslanadigan bo'lsa, joydan sakrash va yugurib kelib sakrash balandligi o'rtasida taxminan 2-3 sm bilan farq 8-2 smni, katta yoshli malakali voleybolchilarda esa 20-30 sm gacha bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan manbaalarda 13-14 yoshli voleybolchilarda yugurib kelib vertikal sakrash balandligi 50 sm atrofida qayd etilgan.

Ma'lumki, bugungi voleybol mashg'ulotlari 2-3 soatni, musobaqa o'yinlari esa 1-2 soatgacha davom etadi. Agar musobaqa sikllarida o'tkaziladigan mashg'ulot va musobaqa o'yinlari e'tiborga olinadigan bo'lsa,

voleybolchilar uchun nafaqat yuksak sakrovchanlik, balki sakrash chidamkorligi ham o‘ta muhim ekanligi ayon bo‘ladi.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan 19-21 yoshli voleybolchilarda sakrash chidamkorligini ifodalovchi ko‘rsatkich – yuqoriga ko‘tarilgan qo‘ldan 25 sm balandda osilgan to‘ldirma to‘pga maksimal marta sakrash soni $6,34 \pm 0,44$ (2019-yil, sentyabr), $6,88 \pm 0,48$ (2019-yil, oktyabr), $7,38 \pm 0,74$ (2019-yil, noyabr), $9,66 \pm 0,82$ (2019-yil, dekabr) martani tashkil etdi.



1-rasm. 19-21 yoshli voleybolchilarda joydan vertikal sakrash balandligining o‘sish dinamikasi

Izoh: 1. 2019-yil, sentyabr; 2. 2019-yil, oktyabr; 3. 2019-yil, noyabr; 4. 2019-yil, dekabr

Ushbu o‘rtacha ko‘rsatkichlar shu yoshdagi voleybolchi bolalar uchun yetarlimi yoki yo‘qmi? – degan savol tug‘iladi. Agar zamonaviy voleybolda deyarli barcha o‘yin usullari sakrab ijro etilishi hisobga olinsa, albatta, bunday sakrash chidamkorligini yetarli deb bo‘lmaydi. Afsuski, aynan biz qo‘llagan test orqali sakrash chidamkorligini baholash natijalari rasmiy manbalarda keltirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari va ularning qiyoysi tahlili quyidagi xulosalarni e’tirof etishga imkon beradi.

1. Turli yosh va tayyorgarlikka mansub voleybolchilar mashg’ulotlarini vizual usulda tahlil qilish natjisida shu narsa aniqlandi, bugungi voleybolda ustuvor ahamiyatga loyiq sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda sakrash texnikasi, koordinastiyasi va sakrash balandligini ta’minlovchi qator muvofiqlashgan holda ijro etilishiga jiddiy e’tibor qaratilmas ekan.

2. 2019-yilda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlanish dinamikasini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shundan darak beradi. Ushbu sifatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘sish dinamikasi 19-21 yoshli voleybolchilarda o‘ta sust o‘sganligi bilan farqlangan bo‘lib, (sakrovchanlik 2sm ga, sakrash chidamkorligi 3,32 martaga), dastur bo‘yicha belgilangan me’yoriy talablar darajasiga yetmaganligi aniqlandi. Hatto, Buxoro viloyat terma jamoasiga mansub voleybolchi qizlarda ham ushbu ko‘rsatkichlar yuksak natijalar bilan farqlanmadи.

3. Sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini ta’minlovchi, shu bilan bir qatorda sakrab ijro etiladigan o‘yin usuliga mos sakrash texnikasining tarkibini belgilovchi asosiy kinematik elementlari birligi hamda uning integratsion funksiyasiga rioya qilinmasligini isbotlab berdi. Aynan ana shu holat sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini voleybochilar imkoniyatidan past darajada ijro etishga olib keladi – deb xulosa qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00 №16].
2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.
3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.
4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.

5. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
6. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тұхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни үқитиши методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриети, 2017 й. 620 бет
7. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.
8. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.
9. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.
10. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html
11. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320
12. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
13. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
14. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine,2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
15. A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of yong gril handball players // Academical.An International Multidisciplenary Research Journal 2.35-39p
16. А.К.Ибрагимов. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославль, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00№23].
17. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
18. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7,Issue 6,2020
19. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov, N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 december
20. S.S.Abdueva. Activities that increase children's interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки и обозование международная научно-практическая конференция, 2020.
21. F.Fazliddinov, M.Toshev N.Sabirova, B.Do'stov. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125. 2020
22. Фазлидинов Ф., Қобижонов К. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
23. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. “Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping”. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Referee & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2
24. U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multimedidimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9,Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7

Мөхриддин АБДУЛЛАЕВБухоро давлат университети профессори,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**Зарифа ЖЎРАЕВА**

Бухоро давлат университети магистранти

ТУРЛИ ЁШДАГИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК

Мазкур мақолада ҳаракатли ўйинларни қўллаш орқали бошлангич тайёргарлик босқичида шугулланувчи ёш енгил атлетикачиларнинг жисмоний ва психологоик тайёргарлигининг ўзаро корреляцион боғлиқлиги ва уни ривожлантириши методикаси илмий жиҳатдан такомиллаштирилган ва асосланган.

Калим сўзлар: бошлангич тайёргарлик босқичи, куч, тезкор-чидамлилик, чидамлилик, чаққонлик, жисмоний тайёргарлик, психологик тайёргарлик, мулоқотга кириша олиш қобилияти.

В данной статье научно обоснована корреляционная зависимость физической и психологической подготовленности юных легкоатлетов, занимающихся на этапе начальной подготовки с использованием подвижных игр, и методика ее развития.

Ключевые слова: начальный подготовительный этап, сила, сообразительность-выносливость, выносливость, ловкость, физическая подготовка, психологическая подготовленность, умение вступать в общение.

In this article, the correlation between physical and psychological training of young athletes engaged in the initial preparation phase through the use of moving games and the methods of its development are scientifically improved and based.

Key words: initial preparatory stage, strength, quick-endurance, endurance, agility, physical preparation, psychological preparation, ability to enter into communication.

Кириш. Ҳозирги даврда кун сайн ортиб бораётган руҳий ва маълумотлар тигизлиги босими остида ўзгариб бораётган ижтимоий ва экологик шароитлар таъсирида инсон ривожланиши ва мослашишининг кулай йўл ва воситаларини излаши зарурияти туғилгани барчага аёнлашиб қолди.

Ижтимоий маданият ва инсон шахси камол топишида муҳим ўрин тутувчи, спорт нафакат соглиқни мустаҳкамлаш ва жисмоний маҳоратни ошириш воситаси, балки руҳий-маънавий ривожланиш ижтимоий мослашиш, касбий лаёқатга эришиш, юқори маҳорат даражасини эгаллаш сингари долзарб мақсадларга эришишда инсоннинг содиқ қўмакчисига айланиб улгурди.

Мамлакатимиз Президенти ва ҳукуматимиз томонидан аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, соглом турмуш тарзини шакллантириш, ҳалқимизнинг спорт билан янада кўпроқ ва изчилроқ шугулланишга бўлган қизиқиши ва эҳтиёжларини қониқтириш йўлида қабул қилинаётган кўплаб қарор ва қонунларнинг чиқарилаётганлиги, ўзгариб бораётган ижтимоий шарт-шароитлар ва шахсий хусусиятларни эътиборга олиб, болалар ва ёшларни спорт билан шугулланишига янада кўпроқ жалб қилиш, уларни ҳар томонлама камолга етган жисмоний, психологик ва ақлий сифатлари юксак даражада ривожлантирилган фуқаролар сифатида тарбиялашдек олий мақсадларга эришиш йўлида қўйилаётган қадамлардир [1, 2]. Танланган спорт тури бўйича иқтидорли болаларни спортга жалб этиш, уларнинг спорт маҳоратини ўстиришда жисмоний, техник-тактик, психофизиологик, интеллектуал тайёргарликнинг ўрни бекиёсдир. Спорт турларининг шиддатли ривожланиши мазкур соҳада замонавий илмий-тадқиқотларни ўtkазиш ва уларнинг натижаларига таянган ҳолда ўкув-машғулотларини илмий асосда ташкил қилиш бугунги кунда болалар ва ўсмиirlар спортини ривожлантиришнинг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади.

Асосий қисм. Юртимизда бошлангич тайёргарлик босқичида шугулланувчи ёш енгил атлетикачиларнинг машғулотлари жараёнида спорт тури хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳаракатли ўйинларни саралаш, ўйинларни жисмоний (куч, чаққонлик, чидамлилик, тезлик, тезкор-куч) ва психологик (мулоқотга кириша олиш, ўз тенгдошини тушуна олиш, бажарилиши белгиланган фаолиятнинг вазифаларини англаш, ўз тенгдошларига муносабатларини ифодалаш тўғрисидаги тасаввурлари, катталар билан муносабатларини қуриш ҳақидаги тасаввурлари ва бошқалар) тайёргарликни ривожлантиришда қўллаш методикасини такомиллаштириш ҳозирги кунда долзарб масалалардан биридир [11].

Шунингдек болалар ва ўсмирлар спорти назарияси ва услубияти соҳасида ўсмир спортчиларни тайёрлаш тизимининг замон талабларига мослаштириш юзасидан қўплаб илмий тадқиқот ишлари ўтказилган.

В.И.Лях, А.Н.Нормуродов, Э.Р.Андрис, В.Г.Никитушкин, Т.С.Усмонходжаев, К.Т.Шакиржанова, С.С.Тажибаев ва бошқаларнинг таъкидлашича, бошлангич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир ёшдаги спортчиларнинг жисмоний ва психологик тайёргарлигини мақсадли ташкиллаштириш келажақда етук спортчиларни тайёрлашнинг гарови ҳисобланар экан[5, 6, 7, 8, 10].

Илмий-услубий адабиётларни таҳлил қилиш натижасида ёш енгил атлетикачиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш ва психологик тайёргарлигини илмий-методик таъминлаш ишлари бўйича услубий тавсиялар етарли даражада ишлаб чиқилмаганлигини кўрсатмоқда.

Тадқиқотнинг мақсади турли ёшдаги енгил атлетикачиларнинг жисмоний ва психологик тайёргарлигининг ўзаро корреляцион боғлиқлиги таҳлил қилиш.

Тадқиқотнинг вазифалари:

енгил атлетикачиларнинг жисмоний ва психологик тайёргарлигининг ёшга хос динамикасини ўрганиб, кўрсаткичлар ўртасидаги корреляцион боғлиқликларни аниқлаш;

ёш енгил атлетикачиларда жисмоний тайёргарлик даражасининг психологик тайёргарликка таъсирини аниқлаш;

Тадқиқотнинг обьекти сифатида ёш енгил атлетикачиларнинг ўқув-машғулотлар жараёни олинган.

Тадқиқотнинг предмети ёш енгил атлетикачиларнинг ўқув машғулотлари самарадорлигини оширишда харакатли ўйинлардан фойдаланиш.

Тадқиқотнинг усуллари. Ишда илмий-услубий адабиётлар таҳлили, педагогик кузатув, педагогик тестлаш, инструментал метод, психологик тестлаш, педагогик тажриба ва математик статистик таҳлил методларидан фойдаланилди.

Спорт таълим муассасаларида ёш шуғулланувчилар шахсиятнинг шаклланиши асосини улар жалб қилинувчи фаолият тури ташкил қиласди. Ушбу нуқтаи назардан ёш енгил атлетикачиларнинг фаоллиги тизими таркибида сезиларли даражада аҳамиятга эга ҳисобланган ҳаракатларга оид фаолият имкониятларига эътибор қаратиш болаларнинг ҳар томонлама уйғунликда ва баркамол ривожланишлари учун зарурый ҳолат сифатида қайд қилинади. Одамга таъсир кўрсатиш шиддати бўйича жисмоний тарбия ўзининг алоҳида ўрнига эга ҳисобланади. Одамнинг руҳий ҳолати, фикрлаш тарзи, сезгилари ва ҳаракатлари ўртасида ўзаро боғлиқликнинг мавжудлиги сўзсиз равиша тасдиқланган факт ҳисобланади [3, 5, 11].

Спорт таълим муассасаларида 10-12 ёшли шуғулланувчилар шахсиятнинг шаклланиши асосини улар жалб қилинувчи фаолият тури ташкил қиласди. Ушбу нуқтаи назардан 10-12 ёшли енгил атлетикачиларнинг фаоллиги тизими таркибида сезиларли даражада аҳамиятга эга ҳисобланган ҳаракатларга оид фаолият имкониятларига эътибор қаратиш болаларнинг ҳар томонлама уйғунликда ва баркамол ривожланишлари учун зарурый ҳолат сифатида қайд қилинади. Одамга таъсир кўрсатиш шиддати бўйича жисмоний тарбия ўзининг алоҳида ўрнига эга ҳисобланади. Одамнинг руҳий ҳолати, фикрлаш тарзи, сезгилари ва ҳаракатлари ўртасида ўзаро боғлиқликнинг мавжудлиги сўзсиз равиша тасдиқланган факт ҳисобланади [15, 16, 13].

10-12 ёшли енгил атлетикачиларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири бу саломатлик, жисмоний ва асабий-руҳий тизим нуқтаи назаридан ривожланишнинг ўзаро чамбарчас алоқадорлиги ҳисобланади. Маълумки, жисмоний жиҳатдан соғлом ва бақувват болалар нафақат турли хил касалликларга кам чалинадилар, улар руҳий томондан ҳам бошқаларга нисбатан яхши ривожланиши кузатилади, шундай қилиб жисмоний тарбия соғломлаштирувчи таъсирга эга бўлиш билан бирга тарбиявий аҳамиятга ҳам эгадир. Болалик даврида дикқат-эътибор ва кузатувчанлик, ироди сифатлари ривожланади, умуман одамнинг шахсий хусусиятлари қарор топади [19, 22].

Муҳокамалар ва натижалар. Ҳаракатли ўйинларда иштирок этиш ёш енгил атлетикачиларда ўзаро бир-бири билан муносабатларга кириша олиш қобилиятини оптималлаштирувчи самарали воситалардан бири ҳисобланади, шунингдек, бунда ёш енгил атлетикачилар жамоаларида ўзаро бир-бирини тушуна олиш, дўстона ҳамкорлик тавсифидаги муносабатларнинг шаклланиши учун замин яратилади. Ушбу таҳлил қилинаётган доирада ўзаро мулоқот ва муносабатлар зарурый ва сезиларли даражада таъсирга эга бўлган омил сифатида аҳамиятли бўлиб, нафақат ҳаракатларга оид фаоллик, балки ахборотлар алмашинуви ва битта жамоа таркибида ўйинда иштирок этётган болаларда эмоционал ҳолатларнинг ўзаро алмашинувлари каби функциялар нуқтаи назаридан воситачи омил сифатида ўрин тутади. Бу кўринишдаги ўзаро таъсирлашишлар натижасида ёш енгил атлетикачиларда ўзаро бир-бирини тушуна олиш ва ҳамкорлик қилишга мойиллик ривожланади. Яъни бунда

“PEDAGOGIK MAHORAT” ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL 2021, Maxsus son

ҳаракатларга оид фаоллик ва шахснинг ривожланиши ўртасида бевосита ва билвосита ўзаро боғлиқлик мавжуд ҳисобланади.

Юқорида келтирилган ҳолатларни ҳисобга олиб, биз тадқиқотларда мулоқотга кириша олиш қобилияти намоён бўлишининг ҳаракат тайёргарлиги даражасига боғлиқлик хусусиятларини ўрганиш йўналишида тажрибалар олиб боришни режалаштиридик. Амалга оширилган тадқиқотлар натижалари кўйидаги 1-жадвалда келтирилган.

Бошлангич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи 10 ёшли енгил атлетикачилардаги жисмоний тайёргарлик даражасининг мулоқотга кириша олиш қобилияти ривожланишига таъсирини аниқлаш юзасидан ўтказилган тажрибалар шуни кўрсатади.

1-жадвал. 10 ёшли енгил атлетикачиларда жисмоний тайёргарлик даражасининг психологик тайёргарликка таъсири (% ҳисобида)

| T/т | Тайёргарлик холати | 18% | 34% | 48% |
|--------------------|--|--------------|----------------|-------------|
| Тайёргарлик холати | Мулоқотга кириша олишнинг ташқи намоён бўлиши Жисмоний тайёргарлик даражаси | Юқори даражা | Ўртacha даража | Паст даража |
| 17% | Юқори даража | 65 | 17,4 | 17,6 |
| 38% | Ўртacha даража | 25 | 19 | 56 |
| 45% | Паст даража | 3 | 13 | 84 |

Шундай килиб, жисмоний тайёргарлик даражаси “паст” деб баҳолангандардан болаларда 84% ҳолатларда мулоқотга кириша олиш қобилиятининг даражаси ҳам “паст” бўлиши, шунингдек, тадқиқотларда синовдан ўтказилган болаларнинг 13% қисмини ташкил қилувчи жисмоний тайёргарлик даражаси “паст” ҳисобланган болаларда ҳам мулоқотга кириша олиш қобилиятининг “ўртacha” даражада бўлиши, жисмоний тайёргарлик даражаси “паст” ҳисобланган болаларнинг факат 3% қисмидагина мулоқотга кириша олиш қобилиятининг етарли даражада юқори эмаслиги кузатилди.

Жисмоний тайёргарлик даражаси “ўртacha” деб баҳолангандардан 11 ёшли енгил атлетикачиларнинг 58 % қисмида мулоқотга кириша олиш қобилиятининг ҳам даражаси “паст” бўлиши, 20 % жисмоний тайёргарлик даражаси “ўртacha” бўлган енгил атлетикачиларда, мулоқотга кириша олиш қобилиятининг “ўртacha” эканлиги, жисмоний тайёргарлик даражаси “ўртacha” бўлган ёш енгил атлетикачиларнинг факат 22 % қисмидагина мулоқотга кириша олиш қобилиятининг етарли даражада юқори эмаслиги аниқланди (2-жадвалга қаранг).

2-жадвал. 11 ёшли енгил атлетикачиларда жисмоний тайёргарлик даражасининг психологик тайёргарликка таъсири (% ҳисобида)

| T/т | Тайёргарлик холати | 18% | 34% | 48% |
|--------------------|--|--------------|----------------|-------------|
| Тайёргарлик холати | Мулоқотга кириша олишнинг ташқи намоён бўлиши Жисмоний тайёргарлик даражаси | Юқори даража | Ўртacha даража | Паст даража |
| 17% | Юқори даража | 56 | 25 | 19 |
| 33% | Ўртacha даража | 22 | 20 | 58 |
| 50% | Паст даража | 4 | 15 | 81 |

Бунда болаларнинг жисмоний тайёргарлик даражаси ортиши билан мулоқотга кириша олиш қобилиятининг ҳам ривожланиб бориши маълум бўлди.

Жисмоний тайёргарлик даражаси “юқори” деб баҳолангандардан 18,2 % енгил атлетикачиларда мулоқотга кириша олиш қобилиятининг даражаси “паст” бўлиши, шунингдек, тадқиқотларда синовдан ўтказилган енгил атлетикачиларнинг 17,8 % қисмини ташкил қилувчи, жисмоний тайёргарлик даражаси “юқори” ҳисобланган шуғулланувчиларда мулоқотга кириша олиш қобилиятининг “ўртacha” даражада бўлиши ва жисмоний тайёргарлик даражаси “юқори” ҳисобланган болаларда факат 64 % қисмидагина мулоқотга кириша олиш қобилиятининг етарли даражада юқори эмаслиги кузатилди (3-жадвалга қаранг).

Шубҳасиз, жисмоний тайёргарлик даражасининг юқори бўлиши мулоқотга кириша олиш қобилиятининг нисбатан тезкорлик шаклланишини белгилаб берувчи, бунга турткни берувчи омил сифатида ўрин тутиши мумкин.

3-жадвал. 12 ёшли енгил атлетикачиларда жисмоний тайёргарлик даражасининг психологик тайёргарликка таъсири (% хисобида)

| T/т | Тайёргарлик ҳолати | 18% | 34% | 48% |
|--------------------|--|--------------|----------------|-------------|
| Тайёргарлик ҳолати | Мулоқотга кириша олишнинг ташқи намоён бўлиши Жисмоний тайёргарлик даражаси | Юқори даражা | Ўртacha даража | Паст даражা |
| 17% | Юқори даражা | 64 | 17,8 | 18,2 |
| 38% | Ўртacha даража | 20,9 | 21,1 | 58 |
| 45% | Паст даражা | 3,5 | 12 | 84,5 |

Даражалар бўйича корреляцион таҳлил натижалари болаларда мулоқотга кириша олиш қобилиятининг ташқи намоён бўлишини тавсифловчи кўрсаткичлар ва жисмоний тайёргарлик даражасини ифодаловчи кўрсаткичлар ўртасида турли хил даражада ифодаланган ўзаро боғлиқлик мавжудлигини кўрсатади (4-жадвалга қаранг).

Жисмоний тайёргарликнинг алоҳида кўрсаткичлари ва мулоқотга кириша олишнинг ташқи намоён бўлиши кўрсаткичларини ифодалаб берувчи коэффициентлар ўртасида турли хил даражадаги боғлиқларнинг мавжудлиги қиз болалар ва, шунингдек, ўғил болалар гурухларида ҳам аниқланди.

Тезлик, тезлик-куч ва координацион қобилиятларнинг намоён бўлиш даражасини белгилаб берувчи тестлар кўрсаткичлари ўртасидаги корреляцион боғлиқлик қиз болаларда бевосита чамбарчас корреляцион боғлиқлик даражаси чегарасида ($r=0,78-0,88$) бўлиши аниқланди.

Ўғил болалар гурухларида мулоқотга кириша олиш қобилиятининг ривожланишини тавсифловчи кўрсаткичлар ва жисмоний ривожланиш даражаси кўрсаткичлари ўртасидаги чамбарчас корреляцион боғлиқлик ҳолатлари - тезлик, тезлик-куч, куч ва координацион қобилиятларни ифодаловчи тестлар кўрсаткичларида қайд қилинди ($r=0,821-0,873$).

4-жадвал. Ёш енгил атлетикачиларда жисмоний ва психологик тайёргарлик кўрсаткичлари ўртасидаги боғлиқлик

| Жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари | | 30 м га югуриш (с) | 3×10 м мокисимон югуриш (с) | 60 м га югуриш (с) | Тўлдирма тўпни улоқтириш (1 кг) (метр) | Турган жойдан узуннинка сакраш (см) | Турган жойдан кўл ҳаракатисиз узуннинка сакраш (см) | Турган жойда уч хатлаб сакраш (см) | Тик турган холда олдинга эгилиш (см) | Турникда тортилиш (марта) | Юқорига сакраш (Абдалаков бўйича) (см) | 6 дақиқалик югуриш (м) |
|------------------------------------|------|--------------------|-----------------------------|--------------------|--|-------------------------------------|---|------------------------------------|--------------------------------------|---------------------------|--|------------------------|
| 10 ёшли енгил атлетикачилар | 0,65 | 0,78 | 0,82 | 0,70 | 0,59 | 0,59 | 0,59 | 0,60 | 0,59 | 0,59 | 0,32 | |
| | 0,74 | 0,82 | 0,81 | 0,75 | 0,48 | 0,48 | 0,48 | 0,60 | 0,48 | 0,48 | 0,41 | |
| 11 ёшли енгил атлетикачилар | 0,65 | 0,78 | 0,82 | 0,70 | 0,59 | 0,59 | 0,59 | 0,60 | 0,59 | 0,59 | 0,32 | |
| | 0,74 | 0,82 | 0,81 | 0,75 | 0,48 | 0,48 | 0,48 | 0,60 | 0,48 | 0,48 | 0,41 | |
| 12 ёшли енгил атлетикачилар | 0,65 | 0,78 | 0,82 | 0,70 | 0,59 | 0,59 | 0,59 | 0,60 | 0,59 | 0,59 | 0,32 | |
| | 0,74 | 0,82 | 0,81 | 0,75 | 0,48 | 0,48 | 0,48 | 0,60 | 0,48 | 0,48 | 0,41 | |

“6 дақиқалик югуриш”, “тўлдирма тўпни улоқтириш”, “олдинга эгилиш” тестларида қиз болалар ва, шунингдек, ўғил болалар гурухларида ҳам таҳлил қилинаётган кўрсаткичлар ўртасидаги корреляцион боғлиқлик даражаси нисбатан паст қийматга эга эканлиги аниқланди ($r=0,32-0,66$). Бу далилни 10-12 ёш даврида қиз болаларда чидамлилик билан боғлиқ бўлган ва куч қобилиятининг

намоён бўлишини белгилаб берувчи ҳаракатларга оид топшириқларни бажаришнинг нисбатан қийинлиги, бундан ташқари, ушбу ёш даврида ўғил болаларда эгилувчанлик қобилиятини талаб қилувчи фаолиятни амалга оширишга нисбатан мойиллик ва хоҳиш-истак даражасининг паст бўлиши билан изоҳлаш мумкин.

Фаол ҳаракатлар билан боғлиқ фаолиятнинг мулоқотларга кириша олиш қобилиятига таъсирдаги улушкини аниқлаш учун тадқиқотларда дeterminация коэффициентини ҳисоблаш амалга оширилди. Бунда жисмоний тайёргарлик даражаси кўрсаткичлари ва мулоқотга кириша олиш қобилиятининг ташки намоён бўлиш кўрсаткичлари ўртасидаги боғлиқлик даражаси қиз ва ўғил болаларда нисбатан “сезиларли” даражада ифодаланиши қайд қилинди.



1-расм. 10 ёшли енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги ва психологик тайёргарлигининг ўзаро боғлиқлиги

10 ёшли қиз болаларда 66% ва ўғил болаларда 68% ҳолатларда жисмоний тайёргарлик даражасининг мулоқотга киришиш қобилиятига таъсир кўрсатиши аниқландиган бўлса (1-расмга қаранг), 11 ёшиларда жисмоний тайёргарлик даражасининг мулоқотга киришиш қобилиятига таъсир кўрсатиши қиз болаларда 66% ва ўғил болаларда 69% натижа қайд этилди. Шунингдек, 12 ёшли қиз болаларда 67% ва ўғил болаларда 66% ҳолатларда жисмоний тайёргарлик даражасининг мулоқотга киришиш қобилиятига таъсир кўрсатиши аниқланди. 10-12 ёшдаги болаларда ўйнашга мойиллик юқори бўлиб, бунда ҳаракатли ўйинлар жамоа бўлиб ўйналадиган ўйинлар ҳисобланади.

Ҳаракатли ўйинларда иштирок этишда ўйин қоидаларига мувофиқ, ўйинчиларнинг ўзаро белгиланган тартибда ўзаро муносабатга киришишлари қилинади. Бунда болалардан ўйинни олиб борувчи етакчининг топшириқлари билан келишиш, ўйин қоидаларига амал қилиш ва ўйин давомида юзага келувчи зиддиятли вазиятларга ечим топиш талаб қилинади. Ўз навбатида, ўйин давомида баҳс-мунозараларга сабаб бўлувчи вазиятлар қанчалик кам бўлса, демак, ҳаракатларга оид фаолиятни амалга ошириш самарадорлиги ҳам шунчалик даражада юқори бўлиши қайд қилинади.

Хуласа. Шундай қилиб, ҳаракатлар билан боғлиқ бўлган фаолият 10-12 ёшли болаларда таълим олиш ва тарбияланиш жараёни давомида мулоқотга киришиш тажрибасини кенгайтириш учун қулай шарт-шароитларни юзага келтиради. Бу тажрибалардан ўз вақтида мақсадга мувофиқ қарорларни қабул қилиш, ўзаро биргаликда фаолият олиб боришда келишиб ишлаш, юзага келиш эҳтимоли мавжуд бўлган ўзаро зиддиятли вазиятларнинг олдини олишда фойдаланилади. Шу сабабли педагогик жараён таркибида енгил атлетика машғулотларини тузиб чиқишида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш шугулланувчиларда мулоқотга киришиш қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилган вазифаларни ҳал қилишга ёрдам беради ва уларнинг жисмоний ривожланишини таъминлаш билан бир вақтда шахс сифатида ҳар томонлама баркамол ривожланиши имконини беради.

Адабиётлар

1. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шугулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00 №16].
2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 7-10.
3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 10-14.
4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 14-18.
5. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе

- физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
6. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиши методикаси. Дарслик. -Тошкент: "Баркамол файз медиа" нашриёти, 2017 й. -620 бет
7. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.
8. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.
9. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.
10. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html
11. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320
12. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
13. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
14. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*,2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
15. A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of yong gril handball players // Academical.An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39
16. А.К.Ибрагимов. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославл, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00№23].
17. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
18. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 6, 2020
19. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov, N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 december
20. S.S.Abdueva. Activities that increase children's interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки и обозование международная научно-практическая конференция 2020.
21. F.Fazliddinov, M.Toshev N.Sabirova, B.Do'stov. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125. 2020
22. F.Fazliddinov, K.Kobiljonov. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
23. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. "Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping". ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Referee & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2

Мөхриддин АБДУЛЛАЕВБухоро давлат университети профессори,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**Ҳаким ҚУРБОНОВ**

Бухоро давлат университети магистранти

ЎСМИР ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАР ОРГАНИЗМИГА ИҶЛИМ ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Мазкур маколада турли ёшдаги енгил атлетика турлари билан шугулланувчиларнинг жисмоний тайёргарлиги ҳамда иссиқ иҷлим шароитида улар билан ўtkaziladig'an машгулотларнинг тузилиши илмий жиҳатдан таҳлил қилинган ва асосланган.

Калим сўзлар: куч, чидамлилик, тезкор-куч, тезкорлик, координацион, эгилувчанлик, жисмоний тайёргарлик, енгил атлетика, машгулот.

В данной статье научно проанализирована и обоснована физическая подготовка занимающихся различными видами легкой атлетики, а также структура занятий с ними в условиях жаркого климата.

Ключевые слова: сила, выносливость, быстрота-сила, быстрота, координация, гибкость, физическая подготовка, легкая атлетика, тренировка.

In this article, the physical training of those engaged in athletics of different ages and the structure of training conducted with them in hot climates are scientifically analyzed and based.

Key words: strength, endurance, speed-strength, agility, coordination, flexibility, physical preparation, athletics, training.

Кириш. Ҳозирги кунда жаҳонда таълимни модернизациялаш шахсни маънавий ва жисмоний ривожлантириш ҳамда таълим муассасаларида таълим жараёнининг сифатини оширишга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлиdir. Хорижий мамлакатларда енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси дарсларини ўқитиш самарадорлигини ошириш бўйича маҳсус дастурлар ишлаб чиқилган. Хусусий таълим муассасаларида эса ўқув дастурларини танлаш таълим муассасаларига нисбатан эркин бўлганлиги сабабли турли педагогик муқобилларнинг апробацияси ўтказиб турилади. Аста-секин индивидуаллашган таълим тизими, яъни ҳар бир талабага унинг қобилияти ва фаоллигига қараб ўқищдаги турлича йўналишига кўра мослашувчан ёндашув таълим жараёнига татбиқ қилинмоқда.

Асосий қисм. Дунёнинг етакчи таълим муассасаларида, асосан, олий таълим муассасаларида енгил атлетика бўйича тўғарак машғулотлари жараёнда талabalарнинг индивидуал имкониятларини инобатга олган ҳолда уларнинг саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлашга қаратилган таълим муҳитини таъминлайдиган чоралар мажмуаси ва тизимли тадбирлар, саломатлик ва соғлом турмуш тарзи қадриятини шакллантирувчи шароитларни ташкил этишга қаратилган муаммолар ўрганиб келинмоқда. Шунинг учун айнан ҳозирги даврда ўқувчилар саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлашга қаратилган таълим жараёнини ташкил этишнинг хилма-хил шакллари самарадорлигини синчилаб, комплекс тарзда илмий таҳлил килиш зарур.

Тадқиқотнинг мақсади: иссиқ иҷлим шароитида ўсмир енгил атлетикачилар билан олиб бориладиган тўғарак машғулотларини ташкил қилиш методикасини такомиллаштириш.

Тадқиқотнинг вазифаси: ушбу мақсадга эришиш қуидидаги асосий вазифаларни ҳал қилиш билан таъминланади:

- мавзуга оид илмий-услубий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш;
- Ўзбекистон иҷлим шароитини ўрганиш ва таҳлил қилиш;
- енгил атлетика учун муҳим бўлган малакалар ва кўникмаларга ўргатиш (юриш, югуриш, сакрашлар ва улоқтиришлар);

Тадқиқотнинг усуслари: ишда илмий-услубий адабиётлар таҳлили, педагогик кузатув, педагогик тестлаш, инструментал метод, психологик тестлаш, педагогик тажриба ва математик статистик таҳлил методларидан фойдаланилди.

Ҳозирги вақтда, ўқувчи организмига мушакларининг тинч ва жисмоний юкламалар таъсири остидаги ҳолатида ташки муҳитни турли метеорологик шароитлар пайтидаги таъсир кўрсатиши бир қатор мутахассислар томонидан ўрганилган (Филин В.П., 1853; Иванов И.Я., 1970; Юсупов И.Ю., 1972; Лигута В.А., 1960; Кирсанов С.В., 1984; Каган Г.Д., 1959; Мотылянская Р.Е., 1964; Асатрян К.В., 1968, 1969, 1974; Багиров Б.Г., 1975; Курбанмамедов. М.К., 1968; Строгова А.А., 1971; Длигач Д.Л.,

Пономарев В.А., Литвин А.Г., 1984; Агаджанян Н.А., 1987). Уларнинг кўпчилиги, ўқувчи организмига, унинг ишчанлик қобилияти ва жисмоний ривожланганлиги даражасига атроф-муҳитнинг микроиқлими сезиларли даражада таъсир қилишини аниqlашган.

Лекин, ўсмир организми адаптация қилишга, яъни ташки муҳитга мослашишга маълум бир даражадаги қобилиятга эга бўлиб, бу, машқ қилганлик ва жисмоний тайёргарлик даражаларини оширишга халақит бермайди.

Ҳавонинг ҳарорати юқори ва намлиги баланд бўлган вактда одам организмидан катта миқдорда тер ва у билан бирга, ҳар хил тузлар ва витаминалар ажралиб чиқади. Табиийки, бундай метеорологик омил ўсмир спортчилар машғулот жараёнларининг самарадорлигини оширишни мураккаблаштиради.

И.М.Сеченов ва И.П.Павловнинг ишларидан келиб чиқкан ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, ушбу илфор физиологлар бир бутун организм ва унинг ташки дунё билан ўзаро муносабати тўғрисида ягона тўғри, асл илмий тасаввурни яратган. Организмнинг бир бутунлиги ва унинг атроф-муҳит билан алоқаси асаб тизими воситачилиги орқали, уни шартли ва шартсиз рефлекслар шаклида намоён қиласидаги бошқарув ва акс этиш функцияси туфайли амалга оширилади [27, 23].

Мураббийлар ушбу ҳолатни ўсмир енгил атлетикачилар томонидан югуриш, сакрашлар ва улоқтиришлар техникасини ўрганиши пайтида ҳисобга олишлари зарур [15, 16, 20, 25].

Одам организмида табиий омилларнинг таъсир қилиши жуда мураккаб йўл орқали амалга оширилади. Одам организми атроф-муҳит билан ўзаро таъсири жараённида тана ҳароратини, ақлий фаолиятини ва жисмоний ишчанлик қобилиятини иқлим шароитларига боғлиқ бўлмаган ҳолда доимий саклашга интилади. Термобошқарув жараённида бош мия катта яримшарлари пўстлоғи жуда муҳим рол ўйнайди. Шартли-рефлекторли таъсирларнинг мавжудлиги ва уларни одамнинг моддалар алмашинуви ва термобошқарув жараёнларига таъсири бир қатор тадқиқотларда тасдиқланган [32].

Муҳокамалар ва натижалар. Ҳозирги вактда ўтказилган кўпчилик тадқиқотлар ташки муҳит ҳароратига мослашиш жараённида одамнинг бош мияси пўстлоғи импульсларини устувор роли тўғрисида гапиради. Бунда, турмуш ва ўқиш, спорт билан шуғулланиш муҳити шартли сигнал ҳисобланади. Муҳит ҳароратининг ўзгаришлари организмга нокулай таъсир кўрсатиши билан курашиш иссиқликни бошқариш тизими томонидан амалга оширилади.

М.Е.Маршакнинг [22] маҳсус тадқиқотлари, тана ҳароратини 1-1,5°C дан юқори ошиши организмга, хусусан унинг асаб тизимида таъсир қиласи, бу, ишчанлик қобилиятининг пасайишини ва умумий ҳолатининг ёмонлашишини чақиришини тасдиқлайди. Организмнинг ортиқча қизиб кетиши пайтида (39°C ва ундан юқори) унинг энг муҳим функцияларида катта бузилишлар ва офтоб уриши ҳолати содир бўлиши мумкин. Ҳар хил масофага югурувчи спортчиларнинг рактал ҳароратининг ўзгаришларини ўрганган Б.С.Гиппенрейтер [17] ҳароратни энг катта кўтарилишлари (38,8-39°C) узун масофаларга югурувчи спортчиларда кузатилишини аниqlаган. Ўзбекистон шароитида машғулот оли бориш жараённида ўрта ва узоқ масофаларга югурувчи спортчиларда тана ҳароратининг худди шундай ўзгаришларини [18] кузатишган. Ушбу муаллифлар, тадқиқотларининг натижалари асосида қуйидаги хуносага келишган: ҳаво ҳарорати 25°C дан юқори бўлганида бирон-бир юкламани катта хажмда бажарилиши жараённида спортчи танасининг ҳарорати 38,6 дан то 40°C гача кўтарилади ва бу организмдаги иссиқлик балансининг бузилиши содир бўлиши билан белгиланса керак.

Э.Адольф (1952) таҳрири остидаги илмий тадқиқотлар тўпламида иссиқ иқлимда ишчанлик қобилияти қандай ўзгариши тўғрисидаги маълумотлар келтирилган. Хусусан, ушбу тўпламда келтирилган маълумотларга кўра, одамни 43°C иссиқ ҳавода бўлиши, унинг ишини жадаллигини 25% га камайтириши таъкидланган. Г.А.Ганчук (1958) юқори ҳароратни мушакларнинг ишчанлик қобилиятига тормозловчи таъсир кўрсатишини ва бу биологик белгиланган характеристерга эга бўлса кераклигини айтган. Ўз вақтида Э.Затопик (1957) ҳам ҳавонинг ҳарорати 15-18°C бўлганида ишчанлик қобилиятини энг яхши бўлишини, ҳарорат юқори бўлганида эса кескин пасайишини таъкидлаган. Бир қатор ишларда, иссиқ иқлимда одамнинг ишчанлик қобилияти етарлича узоқ муддатли фаол адаптация қилиш шартида анча ортиши кўрсатилган (Маркеева С.С., 1983; Курбанмимедов, 1971). Лекин, атроф-муҳит ҳарорати +28-30°C бўлганида ва айниқса, ҳаво намлигини нисбатан юқори пайтида ишчанлик қобилиятини тўлиқ тиклаш имкони бўлмаслиги Н.Б.Матюшкиннинг (1953) ишларида келтирилган.

И.Ю.Юсуповни [32] Марказий Осиё шароитларида ўтказган тадқиқотларини алоҳида айтиши керак, у, ўрта масофага югурувчи ўсмир спортчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришга қаратилган машғулотларни иссиқ иқлим шароитида ўтказиш мумкин эканлигини кўрсатган. Энг самарали вақт – қишки ва баҳорги даврлар (1 декабрдан то 10 апрелга қадар), камроқ қулай вақт – ёзги давр (11 апрелдан то 30 августга қадар) ҳисобланади, бунда, ҳавонинг ҳарорати 30°C дан юқори бўлади. Шу билан бирга, муаллиф, ҳавонинг ҳарорати 25°C дан юқори бўлганида /апрель-август/

кунига икки марталик (эрталаб – соат 7 дан то 8 гача ва кечкурун – соат 18 дан то 20 гача) тренировка машғулотларини ўтказиш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатган.

Атроф-мухитнинг юқори ҳарорати инсоляция билан уйғунлиқда ўсмири организмидаги бир қатор сезиларли ўзгаришларга олиб келади. Юрак-томир ва термобошқарув тизими фаолиятлари, периферик қон хусусиятлари ўзгаради ва организмнинг энергия сарфлаши ортади.

Организм совукка нисбатан юқори даражадаги иссиқ ҳароратлардан анча ҳимоясиз эканлиги маълум. Термобошқарув механизmlари, атроф-мухитнинг юқори ҳарорати шароитида яшаш имкониятининг ўзи каби жисмоний юкламаларга чидамлиликни ҳар доим ҳам таъминлай олмайди. Шунинг учун ўсмири спортчилар организмини Ўзбекистон иқлими учун специфик бўлган ҳавонинг юқори ҳароратини жисмоний юкламалар билан уйғунлиқдаги таъсирига жавобан физиологик реакцияларини ўрганиш, ўсмири спортчилар организмини ўкув юкламаларига ва спорт фаолиятига адаптация қилишини яхшилашга йўналтирилган тадбирларни ишлаб чиқиш учун муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади.

М.К.Курбанмамедов (1968) ўсмири енгил атлетикачилар организмининг физиологик реакцияларини қуруқ иссиқ иқлим шароитидаги тренировка жараёнида ўрганиши орқали, комфорт ҳарорат зонасида (эрталаб ва кечкурунги соатларда) бажариладиган жисмоний юкламалардан кейин ўрганилган кўрсаткичлардаги силжишлар нисбатан мўътадил бўлганлигини, синовдан ўтувчилярнинг машқ қилганлик даражасига мос келадиган умумий қонуниятлар сакланганлигини ва физиологик меъёрлар доирасидан чиқмаганлигини аниқлаган. Энг ифодаланган силжишлар қундузги соатларда аниқланган. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, катталиги бўйича бир хил бўлган жисмоний юкламалар ўсмири ўғил болаларда катта гемодинамик силжишларни чақиради, уларнинг жадаллиги ва характеристири тренировка қилганлик даражасига ва иссиқликнинг таъсирига боғлиқ. Шу туфайли муаллиф ёзги юқори ҳароратлар шароитида ўсмири енгил атлетикачиларнинг тренировка қилишлари учун энг қулай вақт – эрталабки соатлар, машғулотларни кечкурунги соатларда ўтказиш пайтида эса юкламанинг хажми ва жадаллигини пасайтириш керак, деб ҳисоблади. Ушбу маълумотлар И.Ю.Юсупов (1975)нинг тадқиқотларига мос келади. Лекин, М.К.Курбанмамедов ҳамда И.Ю.Юсупов ўсмири енгил атлетикачилар билан тренировка машғулотларини эрталабки соатларда ўтказмасликни ва ҳар хил ноқулай ҳодисаларнинг олдини олиш учун улар томонидан юқори жадаллиқдаги катта хажмдаги юкламаларни бажармасликни тавсия қилишади.

Г.Д.Каган (1959) ҳар хил метеорологик шароитларда бир хил типдаги жисмоний машқларни бажариш пайтида, ўсмири спортчи организмидаги бир хил бўлмаган физиологик силжишлар юзага келишини исботлаган. Муаллиф тажрибаларининг сериясини тасдиқлашича, эрталабки соат 7 да ҳаво ҳарорати 29°C , нисбий намлиги 55%, шамолнинг тезлиги 3 м/сек, қуёш радиацияси 67 ккал/см бўлган пайтда, 60 минут давомида жисмоний машқларни бажариш жараёнида организмда қуйидаги ўзгаришлар содир бўлган: тана вазнини 300 граммга камайиши, пульс частотасини 4,2 зарбага ортиши, нафас олишни минутига 4,2 марта тезлашиши (ҳаво ҳарорати 20°C дан ортиқ бўлмаган пайтдаги аналогик кўрсаткичларга нисбатан олганда). Анча юқори кўрсаткичлар қуннинг энг иссиқ вақтида – ҳаво ҳарорати $40,2^{\circ}\text{C}$, нисбий намлиги 11%, шамолнинг тезлиги 3 м/сек, қуёш радиацияси 73,1 ккал/см бўлган пайтда олинган. Бундай шароитда тана вазнининг камайиши 665 граммни ташкил қилган, пульс минутига 222 зарбага тезлашган, нафас олиш минутига 7,6 марта тезлашган. Лекин, бирмунча паст кўрсаткичлар соат 19 да аниқланган бўлиб, бу вақтда ҳаво ҳарорати $28,3^{\circ}\text{C}$, нисбий намлиги 16%, шамолнинг тезлиги 2 м/сек, қуёш радиацияси 26,7 ккал/см² бўлган. Ушбу ҳолатда, спортчиларнинг вазни факат 483 граммга камайган, ЮҚЧ минутига 28,3 зарбага пасайган, нафас олиш частотаси минутига 6,7 марта тезлашган.

И.Ю.Юсупов [32], иссиқ иқлим шароитида яшайдиган ўсмири енгил атлетикачиларнинг тренировка тажрибаларини ўрганиш орқали, уларнинг юрак-томир тизимининг иссиқ иқлим шароитида адаптация қилиши, метеорологик комфорт шароитларда (МДХ ўрта зоналарида) яшайдиганларнига қараганда, гемодинамика кўрсаткичларида анча катта даражадаги ўзгаришлар билан бирга ўтишини аниқлашган.

Физиологик силжишлардаги ушбу фарқ Ўзбекистоннинг иссиқ иқлим шароитида ўсмири енгил атлетикачилар билан машғулот олиб бориш жараёнини амалга ошириш пайтида табакалаштирилган ёндашувни талаб қилади.

Маълумки, ўсмиirlар ва ёшларнинг организми, уларнинг саломатлиги яхши бўлганда ва юрак-томир, нафас, эндокрин ва бошқа тизимларининг фаолияти билан уйғун бўлганида анча катта даражадаги тренировка юкламаларига чидамли бўлади. Шу туфайли, функциялардаги ўзгаришлар ва болалар, ўсмиirlар ва ёшларнинг ривожланиши, ёши катталашган сари уларнинг физиологик

ривожланиши, жисмоний тайёргарлиги ва иқлим шароитларининг юкламаларига мослашиши билан боғлиқ бўлади.

Хулоса қилиб айтганда машғулот юкламаларини Ўзбекистоннинг иқлим шароитлари билан уйғунлашиши масаласи бўйича адабиётлардаги маълумотларни тахлил қилиш ва умумлаштириш шуни кўрсатдики, мазкур муаммо, ўсмир енгил атлетикачилар билан олиб бориладиган машғулотлар спорт мактабларининг ўқитиш шароитида тайёrlаш нуктаи назаридан керакли даражада ҳал қилинмаган.

Адабиётлар

1. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкент, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].
2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.
3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.
4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.
5. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
6. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. 620 бет
7. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.
8. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.
9. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.
10. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html
11. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320
12. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
13. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
14. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.YuNiyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // European Journal of Molecular & Clinical Medicine,2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
15. Богданов Г.П. Уроки физической культуры в IV-VI классах. - М.: “Просвещение”, 1979. - 190 с.
- 16.Богданов Г.П. Школьникам - здоровый образ жизни. - М.: “ФиС”, - 1989. - 169 с.
- 17.Гиппенрейтер Б.С. Восстановительные процессы при спортивной деятельности. - М., 1961. - С. 22-24.

- 18.Григоренко А.Ф. Терморегуляция У бегунов на средние дистанции в условиях температуры и солнечной радиации // Тезисы докладов 10-й итоговой научной конф. проф.-препод. состава УзИФК. - Ташкент, 1970. - С. 120.
- 19.Каган Г.Д. Опыт изучения физиологических сдвигов под влиянием физических упражнений в жаркое время /.Сб. статей преподавателе:; теоретических и учебно-спортивных дисциплин. Труды ин-та УзИФК. - Вып. I. - Ташкент, 1959. - С. 49-53.
- 20.Кондратьева М.М. Звонок на урок здоровья. - М.: "Просвещение", 1991.
- 21.Курбанмамедов М.К. Функциональные изменения сердечно-сосудистом системы у юных легкоатлетов в условиях сухого жаркого климата // Теор. и практ. физ.культуры. - 1968. - №3. - С. 41-42.
- 22.Маршак М.Е. Пути изучения-выносливости человека к длительной мышечной работе // Ученые записи ГЦОЛШК. - 1945. - Вып. I. - С. 3-9.
- 23.Петровский В.В., Хордочки Р.В., Погасий В.А. Основные методики развития двигательных качеств человека в процессе физического воспитания.
- 24.Попов В .Б ., Суслов Ф.П., Ливада Е.И. Юный легкоатлет. - М.: "ФиС", 1964.
- 25.R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
- 26.Сеченов И.М. К вопросу о влиянии раздражения нервов на мышечную работу человека / Избранные труды. - 1935. - С. 152.
- 27.Травин Ю.Г. Исследование закономерностей возрастных изменений выносливости и построение тренировки юных бегунов на средние дистанции: Автореф.дисс. ... докт.пед.наук. - М., 1975. - 31 с.
- 28.Травин Ю.Г., Кошелева Л.А., Рахманов Х. Методы контроля за тренировкой бегунов на короткие дистанции. - М., 1981.35 с.
- 29.Травин Ю.Г. О развитии двигательных качеств у школьников // Физ.культура в школе. - 1981. - №4.- С. 9-15.
- 30.Травин Ю.Г. и др. Индивидуализация тренировочного процесса юных бегунов на средние дистанции / Метод, разработка. - М.: ГЦОЛЙФК, 1989.
- 31.Юсупов И.Ю. Экспериментальное обоснование средств методов воспитания специальной выносливости у юношей 15-16 лет в беге на средние дистанции в условиях жаркого климата: Автореф.дисс...канд.пед.наук. - М., 1972. - 23 с.
- 32.Юсупов И.Ю. Сдвиги сердечно-сосудистой и дыхательной, систем у мальчиков под влиянием урока физического воспитания метеорологических факторов // Некоторые вопросы физического воспитания и развития спорта среди школьников и молодежи. -Ташкент, 1975. - С. 147-149.
- 33.Юсупов И.Ю. Влияние различных режимов работы на показатели функционального состояния организма юных бегунов на средние дистанции при воспитании специальной выносливости условиях жаркого климата //Т ез. Докладов 3-й; научно]: конференции. - Нальчик-Фергана, 1977. - С. 108-110.

Анвар САТТОРОВ

Бухоро давлат университети доценти,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

А. РУСТАМОВ

Бухоро давлат университети магистранти

ЎЗБЕКИСТОНДА УЧ БОСҚИЧЛИ СПОРТ МУСОБАҚАЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА

Уибу мақолада Ўзбекистонда уч босқичли спорт мусобақаларини ташкил этиши ижтимоий-педагогик зарурият, давлат таълим сиёсати даражасида кўтаришганлиги ва бу муаммони ечиши имкониятлари очиб берилган. Шунингдек, мақолада уч босқичли спорт мусобақалари орқали захира спортчиларни шакллантириши ҳамда Осиё ва жаҳон миқёсида ўзбек спортчиларини мусобақаларда қатнашиши имкониятларини кенгайтириши, уч босқичли спорт мусобақалари ҳамда катта спорт орасидаги узвийликни сақлаб қолиш ва алоқадорлик ёритилган. Мақолада ўқутичилар ва спортчилар учун муҳим бўлган принциплар таълил қилинган.

Калим сўзлар: университетида, баркамол авлод, умид ниҳоллари, кадр, таълим тизими, жисмоний тарбия, жисмоний маданият, эстетик тарбия, шахс, мезон, принцип, ижтимоий етуклиқ, маънавиятлилк, менталитет.

В данной статье раскрывается социально-педагогическая необходимость организации трехступенчатых спортивных соревнований в Узбекистане, повышение уровня государственной образовательной политики и возможности решения этой проблемы. В статье также рассматриваются вопросы формирования резервных спортсменов посредством трехэтапных спортивных соревнований и расширения возможностей узбекских спортсменов участвовать в азиатских и мировых соревнованиях, сохранения преемственности и взаимодействия между трехэтапными спортивными соревнованиями и большим спортом. В статье были проанализированы принципы, которые важны как для студентов, так и для спортсменов.

Ключевые слова: университетида, гармоничное поколение, ростки надежды, кадр, система образования, физкультура, физическая культура, эстетическое воспитание, личность, критерий, принцип, социальная зрелость, духовность, менталитет.

This article describes the socio-pedagogical necessity of the organization of three-stage sports competitions in Uzbekistan, the rise in the level of State Educational Policy and the opportunities for solving this problem. The article also covers the formation of reserve athletes through three-stage sports competitions, the expansion of opportunities of Uzbek athletes to participate in competitions in Asia and the world, the preservation and linkage between three-stage sports competitions and large sports. The article analyzes the printouts that are important for readers and athletes.

Keywords: sisiada, harmonious generation, seed of hope, cadre, education system, Physical Education, Physical Culture, aesthetic education, personality, criterion, printsip, social maturity, spirituality, mentalitet.

Кириш. Бугунги кунда республикамизда жисмоний тарбия ва спорт соҳасини тубдан ислоҳ қилиш борасида амалга оширилаётган тизимли чора-тадбирлар натижасида спорт мактаблари ва таълим муассасаларининг моддий-техник баъзаси, хукукий-меъёрий, методик таъминоти босқичмабосқич мустаҳкамланмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида - болаларни спорт билан оммавий тарзда шуғуллантириш мақсадида янги болалар спорти объектларини қуриш, мавжудларини реконструкция қилиш; жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содик, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислоҳотларни чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараённида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш каби йўналишлар белгиланган бўлиб, бу ўз навбатида мазкур жараённи тадқиқ этишда ўқувчи-талабаларни комплекс ривожлантириш параметрларини кенгайтиришнинг тарихий тараққиёт йўли ҳамда замонавий тенденцияларини аниқлаш, жаҳон тажрибалари асосида спорт мусобақаларининг маънавий тарбия куроли, муайян халқ ва давлатни таништириш, ютуқларини тарғиб қилиш воситаси сифатида тадқиқ этиш, “Уч босқичли спорт мусобақалари” мазмунини бойитиш асосида ўқувчи-талабаларни узлуксиз ривожлантириш мезонлари, принципларини аниқлаштириш каби тадқиқотларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Асосий қисм. Баркамолликка эришишда спорт мусобақалари муҳим ўрин эгаллайди. Спорт билан шуғулланиш жараённида инсон жисмидаги ҳорғинлик пасайиб, турли касалликларга қарши курашувчанлик ортади. Шахс ўзида бир қатор сифатлар: хушмуомалалик, бегаразлиқ, холислик,

одиллик, бардошлилик, барқарорлик, ҳақгүйлик, виждонлилик, ҳамдардлик, ақлнинг ёрқинлиги, қўрқмаслик, жасурлик, инсонни ҳайратда қолдирувчи лаёқатлилик, ҳар бир шахснинг ўзига хос бўлган ҳис-туйғуларини таркиб топтиради. Бу ўзбек ҳалқининг миллий менталитетига асосланган мақбул ҳаркатланиш тартиби, чиникиш, тўғри овқатланиш, қулай ҳаёт тартибига амал қилиш, касалликлар ва салбий одатлардан воз кечишдан иборат бўлиб, буларнинг барчаси инсоннинг жисмоний, руҳий, маънавий, ижтимоий муваффақиятини таъминлайди. Бундай кишилар атроф-муҳит билан фаол мулоқотга киришиб, узоқ йиллик ижтимоий фаолият тажрибасини эгаллашга муваффақ бўладилар.

Ўқувчи ва талаба-ёшлар соғлом турмуш тарзини эгаллашлари натижасида қўйидаги сифатларни ўзлаширадилар:

- ижтимоий етуклик;
- маънавиятлилик – етук шахс сифатида юқори даражадаги ривожланиш ва ўз-ўзини бошқариш имкониятига эгалик;
- ўз ҳаётий фаолиятида умуминсоний миллий қадриятларга амал қилиш;
- исломий ахлоқ меъёрларига асосланиш;
- раҳмдиллик ва ҳаққонийлик асосида воқеликка ёндашиш;
- ёвузликка қарши тура олиш;
- қатъиятлилик;
- ихтиёрий ҳаракатларни мувофиқлаштира олиш;
- мустаҳкам маънавий кўнікмаларга эга бўлиш;
- мустақил давлатнинг фуқароси сифатида жасорат қўрсатиш, аниқ фуқаролик позициясига эга бўлиш;
- каҳрамонлик кўрсата олиш;
- гоявий соғлом дунёқарашга эга бўлиш;
- маънавий қадриятларни эгаллаш;
- ҳаётдан маъно излаш;
- ичкилиқбозлик, кашандачилик, гиёҳвандликка қарши тура олиш;
- ахлоқий меъёрлар, диний қадриятларга ижобий муносабатда бўлиш;
- танлов эркинлигига эга бўлиш;
- хушчакчақлика асосланган кайфиятнинг вужудга келиши натижасида ривожланаётган шахс жисмида уйғуналашиш ва қувонч ҳиссининг вужудга келишини таъминлаш;
- ҳаётий фаолиятида барқарорликни таъминлаш;
- юрак ишини бир маромга тушириш;
- ўқувчиларнинг гендер етуклигини таъминлаш ва жадаллаштириш;
- жинсий ҳамда ижтимоий етукликни ўзаро мувофиқлаштириш;
- оммавий маданият хуружларига қарши кураша олиш кабилар.

Соғлом турмуш тарзига амал қилиш кўнікмасини шакллантириш учун ўқувчи ва талаба-ёшларнинг онгини йўналтириш мухим аҳмиятга эга. Бу жараёнда уларнинг нафакат жисмоний, балки маънавий ҳолатларига ҳам эътибор қаратиш лозим.

Спорт мусобақаларига ўқувчилар ва талабаларни махсус тайёрлаш спорт машғулотлари жараёнида амалга оширилади. Жумладан, “Умид ниҳоллари”, “Баркамол авлод” спорт мусобақалари ва “Универсиада”ларни ташкил этиш ва ўтказиши жараёнида машғулотлар ва мусобақалар бир неча босқичда ташкил этилади ва ўтказилади. Шунинг учун ҳам ўқувчилар ва талаба-ёшларга ижтимоий ривожланиш имконини берадиган ҳодиса сифатида “Уч босқичли спорт мусобақалари” Ўзбекистон жамияти маданиятининг таркибий қисмига айланмоқда. Шунинг учун ҳам “Уч босқичли спорт мусобақалари” муайян ижтимоий-педагогик шарт-шароитлар билан боғлиқ ҳолда турлича характер ва шаклларга эга.

Спорт мусобақаларининг самарадорлиги инсоннинг жисмоний, маънавий-ахлоқий, интеллектуал такомиллашувида намоён бўлади. Спорт мусобақалари самарадорлитини таъминлаш мусобақалар асосида амалга оширилади.

Бутун дунёда бўлгани каби Ўзбекистонда спорт ҳаракатлари оммавий спорт тажрибасини қамраб олади. Бу ўринда “Уч босқичли спорт мусобақалари” алоҳида аҳамиятга эга. Ўзбекистондаги аксарият ўқувчи-ёшлар ва спортсевар қатлам вакиллари спорт билан шуғулланиш орқали ўз саломатликларини мустаҳкамлаб, одамлар билан мулоқотдан қувонч, эстетик завқ-шавқ ҳиссини тудилар, ақлий, маънавий-ахлоқий жиҳатдан ривожланадилар ва касбий салоҳиятларини оширадилар. Шу орқали эса ўз жисмоний, интеллектуал имкониятларини кенгайтирадилар. Бундай кишилар ўз имкониятлари доирасида спорт билан шуғулланиш орқали ишчанлик лаёқатларини оширишга муваффақ бўладилар.

Муҳокамалар ва натижалар. Жисмоний тарбиянинг асосий мақсади эса ўқувчи ва талаба-ёшларнинг жисмоний ривожланишларини таъминлаб, ҳаракатларини фаоллаштиришга йўналтирилган. Бу жараёнда улар ҳар томонлама такомиллашиш ва уйғун тарзда маънавий-ахлоқий

ривожланиш имкониятига эга бўладилар. Бунинг натижасида ижтимоий фаол шахс шаклланади. Худди шу асосда Ўзбекистон жамиятининг ҳар бир аъзоси меҳнат ва фаолиятнинг бошқа турлари билан фаол шугулланиш имкониятига эга бўладилар. Шунинг учун ҳам жисмоний тарбия жараёнида комплекс характердаги аниқ вазифалар ечилади. Бу вазифалар хусусий ҳамда педагогик характеристика гэалиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Уч босқичли спорт мусобақалари ёрдамида ўқувчи ва талаба-ёшларни ахлоқий тарбиялаш методлари ҳам ўзига хосдир. Улар сирасига:

- спорт ўйинлари жараёнида мавжуд анъаналарни давом эттириш, хулк-атворнинг ўрнатилган меъёрларига амал қилиш зарурлигига нисбатан ишончнинг мавжудлиги;
- муайян спорт ҳаракатларини амалга ошириш жараёнида ўз рақиби билан дўстона суҳбатлашиш; эстетик мавзуларда баҳс-мунозаралар узошириш; мураббийлар томонидан спортчиларга намунали ўрнак кўрсатиш;
- амалий кўнікма ҳосил қилиш; мазкур методнинг моҳияти шундаки, мунтазам, қатъий машқ қилиш, машғулотлар жараёнида маданий хулк-атвор меъёрлари, спорт коидалари, тартиблари, анаъаналарига қатъий амал қилиш; спорт меъёрларини қатъий ўзлаштириш; аҳамиятли ва узоқ муддатли зўриқишиларни камайтириш, мусобақалардаги юкламаларга қўйиладиган талабларни бажариш;
- рагбатлантириш: эътироф этиш, мақташ, миннатдорчилик билдириш, мукофотлаш кабилар;
- спорт мураббийлари ва жисмоний тарбия ўқитувчиларининг вазифаларини муайян спортчи томонидан бажарилишига ишонч билдириш, мусобақаларнинг якуний натижаларини хисобга олиш асосида жамоага рагбатлантирувчи очколар бериш;
- нотўғри хатти-харакатларни амалга оширганлиги учун спортчини жазолаш; жумладан, танбех бериш, огоҳлантириш, спорт жамоаси йиғилишида муҳокама қилиш, вақтинчалик жамоалик таркибидан четлаштириш кабилар киради.

Хуласа қилиб айтадиган бўлсак мустақиллик йилларида мамлакатимизда спорт ва жисмоний тарбия орқали ёш авлодни узлуксиз ривожлантириш соҳасида етарлича меъёрий-хуқуқий асос вужудга келтирилиб, жуда катта миқдордаги давлат маблағлари мазкур мақсаддага ўйналтирилди. Спорт ва жисмоний тарбия ёрдамида маънавий соғлом ёшлар маданий, фаол ҳаёт тарзига эга бўлмоқдалар. Инсоннинг муваффақиятлари, баҳти, жамиятда инсонпарварлик принципларига асосланган ҳолда фаолият кўрсатиши, тадбиркорлиги кўп жиҳатдан унинг саломатлиги ва маънавий тараққиётига боғлиқ. Бундай маънавий юксакликка эришиш имкониятига эга бўлган ҳаёт тарзини вужудга келтиришга аждодларимиз алоҳида эътибор қаратганлар. Спорт ёрдамида ўқувчи ва талаба-ёшларнинг руҳий, жисмоний, ижтимоий, маънавий қувватлари уйғунлашади ва ривожланади. Ижтимоий фойдали фаолиятнинг турли кўринишлари, оила, меҳнат, Ватан ҳимояси, шахснинг жисмоний, маънавий, ижтимоий муваффақиятлари унинг фаоллик кўрсатиши натижасида таъминланади.

Инсоннинг ақл-идроқи ва жисми синовлар ва қийинчиликларда тобланади. Спорт, биринчи навбатда, ҳар бир ўқувчи ва талаба-ёшнинг иродасини мустаҳкамлайди, уни чиниқтиради ва бардошлилик сифатларини таркиб топтиради. Унда ижобий сифатларни шакллантиради, турли миллатлар ва минтақаларнинг халқлари билан самарали мулоқот ўрнатиш сари ўйлайди. Шу билан бир қаторда, спорт ва жисмоний тарбия муайян миллат ва давлатни жаҳонга танитади, унинг халқаро обрў-эътиборини оширади. Мустақиллик йилларида давлатимизнинг жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш соҳасидаги оқилона сиёсати натижасида жаҳонда тенгсиз бўлган “Уч босқичли спорт мусобақалари”ни ташкил этиш ва ўтказиш тажрибаси шакллантирилди. Мазкур сиёсатнинг самараси сифатида ўзбек спортчилари жаҳон миқёсидаги мусобақалар ҳамда олимпиа ўйинларида ўз имкониятларини намоён қилишга муваффақ бўлдилар.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 4 сентябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ти Ўзбекистон Республикаси Конунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги ЎРҚ-394-сон Конуни // www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ти ПФ-4749-сонли Фармони // www.lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 марта даги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида Давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғриси”да ПФ-5368-сонли Фармони // www.lex.uz.

4. Усманхаджаев Т.С. Болалар ва ўсмирлар спорти. - Т., 2006. -103 с.

5. Ибрахимов С.У. Узлуксиз таълим тизимида “Уч босқичли спорт мусобақалари” ёрдамида ўқувчи-талабаларни комплекс ривожлантириш параметрларини кенгайтириш механизmlари. Дисс.афтореферати. Нукус-2019.

Komiljon NORBOYEV
 Samarqand davlat universiteti
 jismoniy madaniyat fakulteti
 sport turlarini o‘qitish metodikasi
 kafedrasи dotsenti

SPORT MAKTABLEARIGA QABUL QILISHDA SPORT VA XALQ HARAKATLI O‘YINLARI ORQALI DASTLABKI TANLOVNI O‘TKAZISH METODIKASI

Maqolada xalq harakatli o‘yinlari orqali basketbol to‘garaklarida shug’ullanuvchi 9-10 yoshli bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: basketbol seksiyalari, xalq harakatli o‘yinlari, dastlabki tanlov, boshlang’ich tayyorgarlik, maxsus va imtimiy jismoniy tayyorgarlik.

В статье рассмотрена методика развития физических качеств у детей 9-10 лет, занимающихся в баскетбольных кружках народными подвижными играми.

Ключевые слова: баскетбольные секции, народные подвижные игры, предварительный отбор, начальная подготовка, специальная и общая физическая подготовка.

The article discusses the methodology for the development of physical qualities in children aged 9-10 years engaged in basketball clubs through folk dances.

Key words: basketball sections, folk action games, preliminary selection, initial preparation, special and general physical preparation.

Kirish. Bolalarni dastlabki tanlovga tayyorlash mакtab sharoitida jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. O‘quvchilar ma’lum dastur asosida baholovchi mashqlar, harakatli hamda xalq o‘yinlari yordamida saralanib beriladi. Mazkur saralomchi vositalar aynan basketbol o‘yining mohiyatiga, ya’ni o‘yin malakalariga nihoyatda yaqin bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalar tavsiya qilingan adabiyotlarda keng yoritilgan.

Asosiy qism. Dastlabki tanlovga tayyorlash jarayonida o‘quvchilar muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib turishlari shart. Bu tadbir qanchalik sifatlari va samarali amalga oshirilsa, shunchalik sport maktablarida uyushtiriladigan tanloving sifat darajasi yuqori bo‘ladi.

Dastlabki tanlov

Mazkur tadbir quyidagi tartibda olib boriladi:

I bosqich. Targ’ibot, tashviqot ishlarini uyushtirib, o‘quvchi-bolalarni qiziqtirish, jalb qilish (suhbat, ma’ruzalar o‘tkazish, basketbol musobaqalari haqida filmlar namoyish qilish). Ko‘rgazmali musobaqalar uyushtirish, taniqli sportchilar ishtirokida suhbatlar o‘tkazish.

II bosqich. Baholovchi mashqlar, harakatli va xalq o‘yinlari yordamida dastlabki tanlov – qabul o‘tkazish (qaddi-qomat ko‘rsatkichlari, jismoniy sifatlarining rivojlanganligi darajasi, apparatlar yordamida olingan qobiliyat ko‘rsatkichlari va hokazo).

1- va 2-jadvalda basketbol guruhiga qabul qilish uchun nazorat mashqlarini baholash ko‘rsatkichlari keltirilgan.

III bosqich. Boshlang’ich tayyorgarlik (bir yillik o‘rgatish davri)da bolalarni maxsus sifatlar, texnik va taktik malakalarni o‘zlashtirish qobiliyatini, imkoniyatini baholash. Ularning nasliy xislatlarini o‘rganish. Texnik va taktik tayyorgarlik bo‘yicha ko‘rik tanlov o‘tkazish.

1-jadval

| Yoshi | Ko‘rsatkichlar | | |
|----------------|-------------------|-------------|---------------------|
| | O‘rtadan past | O‘rta | O‘rtadan yuqori |
| Qizlar | | | |
| 9 | 133 va undan past | 134-140 | 141 va undan yuqori |
| 10 | 136 va undan past | 137-145 | 146 va undan yuqori |
| 11 | 141 va undan past | 142-150 | 151 va undan yuqori |
| 12 | 147 va undan past | 148,5-155,5 | 156 va undan yuqori |
| O‘g‘il bolalar | | | |
| 9 | 133 va undan past | 134-140 | 141 va undan yuqori |
| 10 | 137 va undan past | 138-144 | 145 va undan yuqori |
| 11 | 143 va undan past | 145-150 | 151 va undan yuqori |
| 12 | 146 va undan past | 147-155 | 156 va undan yuqori |

BO‘SMga qabul qilish mutaxassis-murabbiy uchun o‘ta mas’uliyatli tadbirdir. Bu tadbirda hamma ko‘rsatkichlarni bir-biriga taqqoslay bilish basketbol o‘yinining mohiyatiga yaqin ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bolalarni farqlay olish, jamoa (sport turida) zarur qobiliyatlarni ajrata bilish katta ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda, tanlov natijalariga ko‘ra qabul qilish haqida uzil-kesil xulosaga kelish o‘rinsiz, aksincha, mavjud ko‘rsatkichlarni e’tiborga olgan holda saralovni ikkinchi o‘rgatish yilida davom ettirish darkor.

**2-jadval. Basketbol guruhi qabul qilish uchun nazorat mashqlarni baholash ko‘rsatkichlari
(qiz bolalar)**

| Nazorat mashqlar turlari | 9 yosh | | | 10 yosh | | | 11 yosh | | | 12 yosh | | |
|---|---------------------|-------------|-------------|---------------------|-----------|-----------|---------------------|-----------|-----------|---------------------|-----------|-----------|
| | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| Yuqori startdan 20m yugurish (sek) | 4,2 va undan past | 4,3-4,8 | 4,9-5,0 | 4,0 va undan past | 4,1-4,5 | 4,6-4,8 | 3,9 va undan past | 4,0-4,3 | 4,4-4,7 | 3,8 va undan past | 3,9-4,2 | 4,3-4,6 |
| Joydan turib uzunlikka sakrash (sm) | 148 va undan yuqori | 149 - 135 | 134 - 125 | 166 va undan yuqori | 165-146 | 145-130 | 171 va undan yuqori | 170-151 | 150-136 | 181 va undan yuqori | 180-161 | 160-140 |
| Itarilib sakrash balandligi (sm) | 35 va undan yuqori | 34-29 | 28-22 | 37 va undan yuqori | 36-30 | 29-24 | 39 va undan yuqori | 38-32 | 31-25 | 38 va undan yuqori | 38-34 | 33-27 |
| 30 sekund ichida devordan 1,5 m oraliqda turib to‘p uzatish | 28 va undan yuqori | 27-22 | 21-16 | 1 va undan yuqori | 30-25 | 24-17 | 33 va undan yuqori | 32-27 | 26-18 | 35 va undan yuqori | 34-29 | 28-20 |
| Jarima maydoni bo‘ylab to‘p olib yurish | - | - | - | 15,5 va undan past | 15,6-16,7 | 16,8-18,0 | 14,1 va undan past | 14,2-16,3 | 16,4-17,5 | 14,0 va undan past | 14,1-16,0 | 16,1-17,0 |
| 40 mga to‘p olib yurish (sek) | 12,0 va undan past | 12,1 - 13,8 | 13,9 - 14,5 | 11,5 va undan past | 11,6-13,3 | 13,4-14,5 | 10,8 va undan past | 10,9-12,0 | 12,1-13,3 | 10,0 va undan past | 10,1-11,0 | 11,1-12,0 |
| 60 m yuqori startdan yugurish (sek) | - | - | - | - | - | - | 10,0 va undan past | 10,1-10,9 | 11,0-11,5 | 9,8 va undan past | 9,9-10,7 | 10,8-11,3 |
| Yuqori startdan 300 m yugurish (sek) | - | - | - | - | - | - | 61,5 va undan past | 61,6-62,7 | 62,8-64,0 | 60,0 va undan past | 60,1-62,2 | 62,3-63,5 |

**Basketbol guruhi qabul qilish uchun nazorat mashqlarni baholash ko‘rsatkichlari
(o‘g’il bolalar)**

3-jadval

| Nazorat mashqlar turlari | 9 yosh | | | 10 yosh | | | 11 yosh | | | 12 yosh | | |
|------------------------------------|-------------------|---------|-----------|-------------------|---------|-----------|-------------------|---------|-----------|-------------------|---------|-----------|
| | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| Yuqori startdan 20m yugurish (sek) | 4,0 va undan past | 4,1-4,5 | 4,6-5,0 | 3,8 va undan past | 3,9-4,3 | 4,4-4,7 | 3,7 va undan past | 3,8-4,2 | 4,3-4,6 | 3,6 va undan past | 3,7-4,1 | 4,2-4,5 |

“PEDAGOGIK MAHORAT” ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL **2021, Maxsus son**

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---------------------|-------------|-----------|---------------------|-----------|-----------|---------------------|-------------|-----------|---------------------|-----------|-----------|
| Joydan turib uzunlikka sakrash (sm) | 153 va undan yuqori | 152 - 145 | 144-130 | 171 va undan yuqori | 170-151 | 150-135 | 181 va undan yuqori | 180 - 161 | 160-141 | 186 va undan yuqori | 185-168 | 167-150 |
| Itarilib sakrash balandligi (sm) | 37 va undan yuqori | 36-30 | 29-25 | 39 va undan yuqori | 38-33 | 32-27 | 40 va undan yuqori | 39-34 | 33-28 | 43 va undan yuqori | 42-36 | 35-30 |
| 30 sekund ichida devordan 1,5 m oraliqda turib to‘p uzatish | 29 va undan yuqori | 28-23 | 22-17 | 33 va undan yuqori | 32-27 | 26-20 | 35 va undan yuqori | 34-29 | 28-22 | 37 va undan yuqori | 36-31 | 30-26 |
| Jarima maydoni bo‘ylab to‘p olib yurish | - | - | - | 4,4 va undan past | 14,5-15,6 | 15,7-17,2 | 13,9 va undan past | 14,0 - 15,5 | 15,6-17,0 | 13,5 va undan past | 13,6-15,0 | 15,1-16,5 |
| 40 mga to‘p olib yurish (sek) | 1,5 va undan past | 11,6 - 13,2 | 13,3-14,0 | 1,0 va undan past | 11,1-12,0 | 12,1-13,0 | 0,2 va undan past | 10,3 - 11,4 | 11,5-12,6 | 9,8 va undan past | 9,9-10,8 | 10,9-11,9 |
| 60 m yuqori startdan yugurish (sek) | - | - | - | - | - | - | 9,5 va undan past | 9,6-10,3 | 10,4-11,0 | 9,5 va undan past | 9,6-10,1 | 10,2-10,5 |
| Yuqori startdan 300 m yugurish (sek) | - | - | - | - | - | - | 60,0 va undan past | 60,1 - 62,0 | 62,1-63,5 | 59,0 va undan past | 59,1-61,5 | 61,6-63 |

Muhokamalar va natijalar. Yuqori malakali basketbolchilarni tayyorlashda mazkur bosqich tadbirlari hal qiluvchi ahamiyatga loyiq. Albatta, uzlusiz tanlov – saralov, hamda muayyan o‘yin ixtisoslariga munosibligini aniqlash ko‘p yillik sport tayyorgarligini barcha bosqichlarida amalga oshirilib boriladi.

Bu masala, ayniqsa, o‘quv trenirovka va takomillashtiruv guruhlardida alohida e’tiborga sazovordir.

Maktab o‘quvchilari va to‘garaklari qatnashchilari kabi xalq harakatli o‘yinlarida ishtirok etuvchilar ham umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim.

Maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarlikka erishish jarayonida turli jismoniy mashqlar bilan shug’ullaniladi. Buning uchun jismoniy mashqlar tasnifini bilish maqsadga muvofiqdir.

Tasnif – bu jismoniy mashqlarni muayyan belgilariga ko‘ra guruh va kichik guruhchalarga taqsimlanishidir. Turli jismoniy mashqlarning ko‘plab o‘xshash belgilarga taqsimlanishidir. Mashqlarni guruhflashga imkon beradigan asosiy belgini aniqlash muhimdir. Bu belgi pedagogik jihatdan ahamiyatlari bo‘lishi lozim. Turli belgilarga ko‘ra tuzilgan, tasniflab ko‘plab amaldagi jismoniy mashqlar bilan tanishishga, ularidan zarurlarini qo‘yilgan vazifalarga muvofiq tanlashga, darslik va qo‘llanmalardan zarur mashqlar tavsifini tez topishga yordam beradi.

Ayniqsa, umumiy tasniflarning asosida jismoniy tarbiya vositalarining tarixiy shakllangan tizimi va metodlari yotadi: gimnastika, o‘yinlar, sport, turizm. Bu guruhlarning har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega va ular yanada kichik tasnifiy guruhchalarga bo‘linadi.

Harakatli o‘yinlar. Bu turdag‘i emotsiyonal harakatlardan iborat murakkab faoliyatdir. Bu faoliyat belgilangan qoidalar asosida to‘satdan o‘zgaradigan sharoit va vazifalarda bajariladi.

Harakatli o‘yinlar boshqa jismoniy mashqlardan shug’ullanuvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari bilan farqlanadi. O‘yin davomida to‘satdan o‘zgaradigan vaziyatlarda harakat qilish va tezkorlik, chaqqonlik kabi jismoniy fazilatlarni namoyon qilgan holda qisqa muddatda harakat vazifalarini hal etish zaruriyati vujudga keladi.

Bu harakat ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. O‘yin paytida bolalar faoliyati obrazli, syujetli va o‘yin vazifalari asosida tashkil etiladi va uzoq muddat bajarishi uchun ijobiylarini ishtiyoq bilan va uzoq muddat bajarishi uchun ijobi his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Bu, o‘z navbatida, ularning organizmiga ta’sirini kuchaytiradi, chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘yin qoidalariga rioya qilish bir-birini taqazo etadigan xatti-harakatni yuzaga keltiradi, axloqiy fazilatlar o‘zaro yordam beradi. O‘yin foaliyatida kompleks xarakteriga ega turli harakatlar uyg‘unligi ko‘riladi.

O‘yinning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlari undan kichik maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ishda foydalanish imkonini beradi.

Sport jismoniy mashqlarning biror turida yuqori natijaga erishishiga qaratilganligi bilan tavsiflanadi, kishining ma’naviy va jismoniy kuchlariga yuksak talablar qo‘yadi. Shuning uchun u faqat muayyan yosh bosqichning rivojlanish darajasidagina qo‘llanishi mumkin. Bu esa jismoniy tayyorgarlik, sog’lig’iga muvofiq sharoitni talab qiladi. Sport jismoniy kamol topishga xizmat qiladi va ma’naviy-irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Shuning uchun sport bilan shug’ullanish, ayniqsa, kishi organizmining hamda inson shaxsining shakllanishi davrida foydalidir.

Xulosa. Xalq harakatli o‘yinlari basketbol seksiyasida shug’ullanuvchi 9-10 yoshli bolalarga mo‘ljallangan dasturidagi mashqlar bilan qo‘sib olib borilganda jismoniy sifatlar rivojlanishi aniqlandi.

Basketbol mashg’ulotlariga xalq harakatli o‘yinlarining kiritilishi o‘quvchilarni jonlantiradi, ular o‘yinlarni katta qiziqish va ehtiros bilan qildilar.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ти Конуни (янги таҳрири). -Тошкент, 26-май 2020 йил.
2. Мирзиёев Ш.М.“Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти ПФ-5924-сон Фармон. 24.01.2020.
3. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –Toshkent, 2011-yil.
4. Mahmudov M.K., Narzullayev F.A. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (Voleybol). - Buxoro. “Durdon” nashriyoti, 2019-yil. 65-67-betlar.
5. Фатуллаева М.А., Нарзуллаев Ф.А. 15-17 ёшли волейболчиларнинг шахслараро муносабат жараёнлари ва психологик тайёргарлик хусусиятлари. Ҳозирги тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: муаммолар ва ечимлар. Халқаро онлайн илмий амалий анжуман. –Бухоро, 2020 йил 6 май. 614-617 бетлар.
6. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 1446-1450.
7. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 99-103.
8. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.
9. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
10. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
11. Akmalovich D. B. et al. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 6. – C. 466-469.
12. Nematovich K. S. The possibilities of physical culture in the modern youth internet community //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 177-180.
13. Murodov J. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳатлар кўлами //Архив научных исследований. – 2020. – №. 29.
14. Juraevich M. J. Actual problems of teaching physical culture in schools //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 181-187.

Бахтиёр ДЎСТОВ

Бухоро давлат университети
факультетларо жисмоний маданият ва
спорт кафедраси катта ўқитувчи

Муроджон РЎЗИМБОЕВ

Бухоро давлат университети
табиий фанлар факултети 1-босқич талабаси

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ШАХСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ЎРНИ

Мақолада мактаб ўқувчиларининг шахсини ривожлантиришида халқ ўйинларининг тутган ўрни, ҳаракатли ўйинлар методик жиҳатдан тўғри ўтказишнинг болалар ривожланишига таъсири айrim ҳаракатларда у ёки бошқа машқуларни бажаришида элементар ҳаракат малакаларини эгаллашлари түғрисида фикр юритилган.

Калим сўзлар: мактаб, ўқувчи, ҳаракат, ўйин, халқ, методик, бола.

В статье рассматривается роль народных игр в развитии личности школьников, влияние на развитие детей методически правильного проведения двигательных игр, приобретение элементарных двигательных навыков в определенных действиях.

Ключевые слова: школа, школьник, действие, игра, народное, методическое, ребенок.

The article discusses the role of folk games in the development of the personality of schoolchildren, the impact on the development of children in the methodologically correct conduct of movement games, the acquisition of elementary motor skills in certain actions.

Key words: school, student, action, game, folk, methodical, child.

Кириш. Жисмоний тарбия ўйинларида ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбияни бошқа воситалари ўртасида катта ўринни эгаллайди, айниқса, кичик синфларда. Ўрта ва, хусусан, катта синфларда ҳаракатли ўйинлар асосий жойини гимнастикага бўшатиб беради.

Асосий қисм. Жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар I-XI синф ўқувчилари учун жисмоний тарбия дастури талабларига мос равища таълимий, тарбиявий ва соғломлаштириш вазифаларини ҳал этиш учун фойдаланилади.

Таълимий вазифаларга қўйидагилар киради:

- югуриш, сакраш, улоқтириш ва бошқа ҳаракатнинг табиий малакаларини мустаҳкамлаш ва такомиллаштиришда, шунингдек, гимнастика, енгил атлетика, спорт ўйинлари ва кросс тайёргарлиги машғулотларида эгаллаган малакаларидир.

Тарбиявий вазифаларга қўйидагилар тегишли:

- жисмоний сифатларни (тезлик, чаққонлик, чидамлилик, куч, эгилувчанлик) тарбиялаш, жамоатчиликнинг росттўйлик ва бошқа аҳлоқий, шунингдек, иродавий сифатларини тарбиялаш киради.

Соғломлаштириш вазифаларига қўйидагилар киради: болалар организмини нормал шакллантириш ва ривожлантиришга ёрдам бериш, унинг саломатлигини мустаҳкамлаш.

Ўйинни танлаш ўқитувчини дарс олдидан қўйилган педагогик вазифасига боғлиқ бўлади. Масалан, агарда дарснинг вазифаси - кичик мактаб ёшидаги болаларда югуруб келиб узунликка сакраш малакасини такомиллаштириш деб қўйилган бўлса, унда “Бўри зовурда” ўйинидан фойдаланилса бўлади. Кўкракдан коптакни отиш ва уни юқоридан икки қўллаб олиш малакасини мустаҳкамлаш вазифасини ҳал этиш учун “Тўпни узатдингми – ўтири” ёки “Қарама – қарши” эстафета ўйинидан фойдаланиш мумкин.

Таълимий вазифани ҳал этишда бир вақтнинг ўзида жисмоний сифатни такомиллаштириш, жамоада ўқувчиларни жисмоний ривожланишига таъсири этиши ҳам назарда тўтилади.

Тарбиявий ва таълимий вазифа бир-бири билан ўзаро чамбарчас боғлиқдир. Худди шундай, масалан, ўйинда баландликка сакраш малакасини такомиллаштиришда ўқувчилар ўзларида кучларига ишониш, жасурлик, ботирликни тарбиялайди. Шунинг учун вазифасини қўйишда битта ўкувтарбиявий жараёнининг ҳар хил томонлари ҳисобга олинади.

Дарс учун ҳаракатли ўйинларни танлашда, шунингдек, ўқувчиларнинг таркибига (ёшига, жинсига, тайёргарлигига), маълумотни ўтиш жойига (майдонча, зал, каридор), асбоб–анжом ва

жихозларга боғлиқ бўлади. Худди шундай педагогик вазифани ҳал этишда, иш шароитига боғлиқ ҳамда ҳар хил ўйинлардан фойдаланиш мумкин.

Худди шундай, масалан, 1-2-синф ўқувчилари билан ўйналадиган ўйинда ўз олдига ҳаракат реакцияси тезлигини тарбиялаш вазифаси қўйилганда, “Ҳамма ўз байроқчасига” (агарда машғулот майдонча ёки залда бўлса), ёки “Тезда ўз жойига” (агарда машғулот кариор ёки залда ўтказилса) ўйинларидан фойдаланиш мумкин. Дарс олдидан тўпни отиш ва илиб олишни такомиллаштириш вазифасини қўйиб, 3-4-синфларни дарсларига “Узатдингми – ўтири”, “Овчилар ва ўрдаклар”, “Ўйин бошига тўпни берма”, 5-6-синф учун дарсда эса “Тўп ўртадагига”, “Отишма”, “Тўп учун кураш” ўйинларини киритиш мумкин. Ўйинда маълум малакани эгаллаш қўпроқ мураккаб вазиятни талаб қиласди: қоидалар сонини ошириш уни мураккаблаштириш, ўйинчиларнинг ўзаро биргалиқдаги ҳаркатини мураккаблаштиришdir. Ҳар бир ўйин қатнашчилардан маълум сифат, малака ва кўнкимларни талаб қиласди.

Ўқувчиларга “Тўпни илиб олиш” ўйини берилса, агарда улар тўпни отиш ва илиб олиш, тўпни олиб юриш, ҳаракат тезлигини, рақиб билан бир-бирига яқинлашганда тўпни ушлаб олишни ўша минимал ҳажмдаги этилиш учун жуда зарурдир. Бу сифат, кўникма ва малакалар ўйинда такомиллаштирилади, бойитилади, мустаҳкамланади. Ўйинга киритилган ҳар бир ҳаракат тўпни дастлаб шуғулланувчилар томонидан махсус машқларда ўргатилган бўлиши керак. Кичик мактаб ёшидаги болаларда энг асосийи энг қўпроқ табиий ва элементар ҳаркатлардан ташқари бўлиши мумкин. Улар ўйинга олдиндан ўргатилмасдан киритилиши мумкин. Шундай қилиб, масалан, болаларга “Бўри зовурда” ўйинини ўйнашни таклиф қилинганда олдиндан югуриб келиб узунликка сакрашни ўргатиш мажбур эмас, чунки болалар ўзларининг ҳаракат тажрибаларидан келиб чиқиб, ўйинда бу табиий сакрашни бажаради. Ўқитувчининг вазифаси эса болаларнинг дикқатини ўйин жараёнида сакрашни қўпроқ яхши ва тўғри бажаришга қаратиши керак. Ҳаракатли ўйинларни методик жиҳатидан тўғри ўтказишида болалар айрим ҳаракатларда у ёки бошқа машқларни бажаришда элементар ҳаракат малакаларини эгаллашлари мумкин. У ёки бошқа малакани яхши эгаллаши учун зарур бўлган жисмоний сифатни ўқувчиларда бу машқни ўйин жараёнида фойдаланишда вақтида ривожлантирилади. Ўйинда болалар ўйинни секин–аста мураккаблаштириб бориш йўлидан фойдаланиш билан тарбияланади: янги мураккаб ўйин қоидаларининг киритишлиши, ўйинчиларнинг ўзаро ҳаракатини элементлари бўйига ҳамманинг қўлидан келадиган ёки ҳаммабоп, ўқувчиларнинг имкониятларига ва ташкил этишини тузилиши бўйига мос келадиган, қатнашчилардан мураккаб ўзаро муносабатларни талаб қиласди. Модомики, жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар бошқа жисмоний тарбия воситалари билан бирга қўшиб олиб борища, дарсда бошқа машқлар ўртасида эса ўйиннинг ўрнини тўғри аниқлаш жуда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Ўқитувчи ҳар бир дарсда ўқувчиларнинг организмига ҳар томонлама таъсир этиши лозим. У шу мақсадда ҳар хил машқларни танлайди. Дарсда ўйинлар ва бошқа машғулот турлари ўртасида методик жиҳатдан кетма–кетлик ўрнатилиши керак, бу бутун дарс жараёнида машқларни қўпроқ тўғри тақсимлаш ва дарснинг зичлигини бундан ҳам яхшилашга, олдига қўйилган вазифани нисбатан яхшироқ ҳал этишга ёрдам беради. Машқдан кейин, мураккаб координацияни таранглашган дикқатни бир жойга тўплашни талаб қиласди. Мушаклар ҳозиргина фақат тезлик билан ишлаган эди, кейинги машқда эса (ўйинда) қатнашмаслиги мумкин ёки бу қатнашиши озгина ва ҳарактери бўйича бошқача бўлиши мумкин.

Агарда дарснинг тўлиқ асосий қисмига бағишилган бўлса, унда катта ҳаркатчанлиқдаги ўйин билан кам ҳаракатчанлик ўйини аниқлаб олиб бориш керак ва ўйинни ҳаркат қилиш бўйича ҳарактери ҳар хил бўлиши лозим.

Агарда 4-синф ўқувчилари учун дарсда чалғитиши билан югуруш ортиқ бўладиган ўйинлар киритилади – “Чўртан балик”, кейинги ўйинларга ўзи бошқа ҳаракат турларини киритиш мумкин: сакраш, қаршилик кўрсатиш, улоқтириш (“Овчилар ва ўрдаклар”, “Доира ичига торт”, “Жуфт – жуфт бўлиб тортишиш”) ва ҳ.к.

Муҳокамалар ва натижалар. Дарсда айрим спорт турларининг техник элементларини ўргатишга йўналтирилган, ушбу сифатни соддалаштирилган техник элементларини ҳаракатли ўйинга уни тақсимлаш турли мақсадида, билиш асосида киритилиши мумкин.

7-синф ўқувчилари учун дарсни вазифасига ўқитувчи баландликка “перекит” усулда сакрашни ўргатиш ва паст стартни такомиллаштиришда, “Паст стартдан чиқиш эстафетаси” ўйинидан фойдаланиш билан иккинчи вазифани ҳал этиш мумкин. Ўқитувчи бундай ҳолатда паст стартни тўғри бажарилишига дикқатни қаратиши керак ва ютуқни эса топшириқни тез ва сифатли қилиб бажарганига қараб бериши керак. Қаттиқ ҷарчашга йўл қўймаслик учун катта ҳаракат фаоллигидаги ўйинни ва бошқа машқларни бир мунча куч ва энергияни сарфлаш билан бирга қўшиб олиб бориш керак. Бироқ

ўйиндан кейин юриш, сакраш ёки ҳаракатнинг аниқ бўлишини, мувозанат саклашни, мураккаб координацияни талаб қилувчи машқларни бажариш тавсия қилинмайди.

Ҳаракатли ўйинлар дарсни барча қисмига шуғулланучиларнинг таркиби ва вазифасига боғлиқ ҳолда киритилиши мумкин.

Ҳаракатли ўйинлар дарснинг қайси қисмига киритилган бўлса, улар дарсни ўша қисмидаги вазифага мос келиши керак. Биринчидан, дарснинг тайёргарлик қисмida унча катта бўлмаган серҳаракатли ва мураккаб ёки ўртacha ҳаракатдаги умумривожлантирувчи машқлар ҳарактеридаги ўйинлар шуғулланувчиларни жамоаси дикқатини ташкил этишга ёрдам беради (“Тақиқланган ҳаракат”, “Синф тик тўринг”, “Тўп орқасидан кувлаш” 3-5 синф ўқувчилари учун мос келади), иккинчидан, дарснинг асосий қисмida катта ҳаракатчанликдаги ўйинлардан фойдаланилади, унда ҳаракат малакалари такомиллаштириб борилади, ўйин жисмоний ва иродавий сифатни тарбиялашга, саломатликни мустаҳкамлаш мақсадида қон айланиши ва нафас олиш функциясини яхшилашга, жисмоний ривожланиш даражасини оширишга ёрдам беради. Бундай ўйинларга кўнгиллик ҳаракатли ўйинлар кўпинча уни ҳаракат турларига тааллукли бўлади: тезликни ошириб югуриш, чап бериш билан, чидамликка, тўсикларни ошиб ўтиш билан, сакрашнинг ҳар хил турлари, қаршилик кўрсатиш, кураш, ҳаракатсиз ва ҳаракат қиласиган нишонга улоқтириш, тўпни эгаллаш малакалари, ҳар хил спорт турлари элементлари ва бошқалар. Учинчидан, дарснинг якуний қисмida асосий қисмда тезлик билан берилган нагрузздан кейин фаол дам олишга ёрдам берувчи ўйинлар, дикқатни ташкил этишга, шунингдек, дарснинг асосий қисмida қизғин ишлашдан кейин шуғулланувчиларнинг организимини нисбатан тинч ҳолатга келтиришга ёрдам берадиган, паст ва ўртacha ҳаркатчанликдаги ўйинлардан фойдаланиш мумкин. “Топчи, бу кимни овози” (1-2-синфда), “Ким келди” (3-4-синфда) “Синф тик тўринг” (5-7-синф), “Учувчи тўп” (8-11-синф).

Хулоса. Дарсда вақтдан тўғри фойдаланишда зарур бўлган дарс зичлиги яратилади. Дарсни шундай ташкил қилиш керакки, ўқувчиларнинг ҳаммаси вақт фаол бўлишсин. Шу билан бирга, шунга ҳаракат қилиш лозимки, шуғулланувчиларни ўйинда фаол қатнашишлари учун тахминан бирдек шароит яратиб беришга ҳаракат қилиш керак. Барча ўйинчиларни шундай хулқа эришиши учун, ҳар бир ўйин қатнашчиси тахминан бир хил нагруззка олиши зарур. Ўйинни шундай ташкил қилиш керакки, агарда ўйинда навбат бўйича ҳаракат қилишга тўғри келса, масалан, эстафетада, ҳар бир ўйин қатнашчиси ўйинда фаол қатнашишга киришиш олдида тушишга имкон борича кам вақт сарфлаши керак. Бундай ҳолатда ўйновчиларни кўпроқ командага бўлиш, топшириқ вақтини чералаш, югуриш масофасини қисқартириш мақсадга мувофиқ бўлади. Агарда ютқазган ўйинчи ўйиндан чиқса, бундай чиқаришни жуда қисқа вақт билан чегириш керак ва, энг яхшиси, очко билан алмаштирилгани маъқўл, чунки ўйин тамом бўлгандан кейин у хисобга олинади. Кўп сонли ўйинчилар билан доирада битта тўпда шуғулланилганда (“халқ ҳимояси”, “ҳаракатчан нишон”, “учувчи тўп”, “тўп ўртадагича” кабиларда ўйинчиларни иккита гурухга бўлиш тавсия қилинади ва иккита доирада бир вақтда ўтказилади. Худди шундай, ўйинни доирада қаршилик кўрсатиш билан ўтгазиш мумкин (“доирага тортиш”, “хўрзлар жангি”, “чўнка шувоқ”). Бундай ҳолатда ўйновчиларнинг жисмоний имкониятлари хисобга олинган бўлиши тавсия этилади. Ўйиннинг бошида узоқ вақт кутиб қолмаслик, ўйинда кўп вақт бўлмаслик учун ўқитувчи ўйинни ўтказишга жуда яхши тайёргарлик кўриши зарур: ўйин учун жойни тайёрлаш, асбоб-анжом, жиҳозлар, тушунтиришнинг қисқа матни, айрим ролларни бажариш учун ўйинчиларни тезда тақсимлаш усули, командаларга тақсимлашдир.

Адабиётлар

1. Усмонхўжаев Т.С., Рахимов М.М., Адиев А.Н. Ўзбек халқ ўйинлари. -Т.: “Ўқитувчи”, 2004.
2. Усмонхўжаев Т.С. Жисмоний тарбия ва спорт машгулотлари. - Т., “Ўқитувчи”, 2005.
3. Йўлдошев Х.К., Саломов Р. Жисмоний тарбия. - Т.: “Ўқитувчи”, 2005.
4. Абдурахимов Т. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошари. - Т.: НДА, 1997.
5. Қорабаев У.Ҳ. Ўзбекона ўйинлар // Гулустон №9; 1991

Baxtiyor DO‘STOVBuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG’ULOTLARI JARAYONIDA BOLALARНИ HARAKAT FAOLIYATIGA O‘RGATISHNING METODIK USULLARI

Maqolada jismoniy tarbiya jarayonida bolalarni harakat faoliyatiga o‘rgatishning metodik usullari va bolalarni harakat faoliyatiga o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodik usullar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, ta’lim, tarbiya, metod, bola, mashg’ulot, harakat, usul.

В статье рассматриваются методические приемы обучения детей физической активности в процессе физического воспитания и методические приемы, применяемые при обучении детей физической активности.

Ключевые слова: физическое воспитание, образование, воспитание, метод, ребенок, упражнения, движение, метод.

The article discusses the methodological methods of teaching children physical activity in the process of physical education and the methodological methods used in teaching children physical activity.

Key words: physical education, education, upbringing, method, child, exercise, movement, method.

Kirish. Har bir alohida metod vazifasi va uni hal etishga bir xil yondashish jihatdan birlashadigan xilma-xil usullarning butun bir kompleksi.

Usul - metodning bir qismi, uni to‘ldiruvchi va konkretlashtiruvchi detal. O‘qituvchining xilma-xil usullarni qo‘yilgan vazifalarga muvofiq kompleks, ijodiy qo‘llanishining ta’lim jarayonini boyitadi, uni individuallashtiradi, bir xillikka barham beradi.

Asosiy qism. Bolalarni harakat faoliyatiga o‘rgatish jarayonida metodik usullar har bir alohida holatda harakat materialining vazifalari va mazmuni, uni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasi, ularning umumiy rivojlanishi, jismoniy holati, har bir bolaning yosh va tipologik xususiyatlariga ko‘ra tanlanadi.

Shu ma’noda ta’lim usullari bir tomonidan o‘quvchilar vazifalarini idrok qilayotganda barcha analizatorlarga har tomonlama ta’sir etishni, ikkinchi tomondan o‘quvchining harakat vazifalarini ongli va mustaqil bajarishini ta’minlovchi turli birikmalarda kombinatsiyalanadi. O‘quvchilarни harakatlarga o‘rgatishda usullarning birikuvi ularning o‘zaro harakati bilan belgilanadi. O‘qituvchi tomonidan ko‘proq ko‘rgazmali metodga oid usullarning qo‘llanilishi, masalan, harakat namunasini ta’limning barcha bosqichlarida va turli yosh gruppalarida (bu ba’zi praktikada uchrab turadi) ko‘rsatish mashqlarni o‘quvchilar tomonidan mexanik tarzda, tushunmasdan taqlidan bajarishga olib kelishi mumkin.

Bunday holda ko‘proq o‘quvchining idrok organlariga ta’sir etish uning idrokini boyitadi, ayni paytda zarur aqliy jarayonni susaytiradi, muayyan mashqning barcha elementlarini mantiqiy izchillikda ongli tarzda eslab qolishga yordam bermaydi, ba’zan o‘quvchini keyinchalik mashqni ixtiyoriy bajarish imkoniyatidan mahrum etadi.

Biroq o‘quvchining yosh imkoniyatlarini hisobga olmagan holda ko‘proq faqat og‘zaki usuldan foydalanish ham uni harakatlarni obrazli idrok etishdan, sezgilarning ishonchliligidan, konkret obrazli tafakkur protsessisidan mahrum etadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarini to‘g’ri harakatlarga o‘rgatishda ta’limning yuqori darajasiga erishishga intilib ta’limning turli usullari: ko‘rgazmali, og‘zaki va amaliy usullaridan o‘zaro aloqadorlikda foydalanadi. Shunday qilib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, mashqlarning ular tomonidan ongli o‘zlashtirilishiga, muayyan sharoitlarda ularni mustaqil va ijodiy qo‘llashga yordam beradi. O‘quvchilarни harakatlarga o‘rgatishda ko‘rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi. Yaqqol ko‘rish usullari harakat yoki ayrim harakat elementlarining tarbiyachi tomonidan to‘g’ri va aniq namoyish etilishidan; tevarak-atrofdagi hayot ko‘rinishlariga taqlid qilishdan; masofani bosib o‘tishda mo‘ljal olishdan foydalanish; ko‘rgazmali qo‘llanmalar - kinofilm, kinogramma, teleeshittirish, surat va hokazolardan foydalanishdan iboratdir. Taktil-muskul ko‘rgazmaliligi o‘quvchilarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo‘llanmalarini kiritish bilan ta’milanadi.

Masalan, tizzani baland ko‘tarib yugurish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida ketma-ket qo‘yilgan yoy shaklidagi darvaozachalar qo‘llaniladi. Yugurish paytida oyoqni bu to‘sinqular osha ko‘tarib o‘tish o‘quvchining tizzani baland ko‘tarish ko‘nikmasini egallashiga yordam beradi. Bundan tashqari predmetlar o‘quvchiga yo‘l qo‘yilgan xatosini his qilish va tushunish imkonini beradi. O‘quvchi ongida o‘qituvchining “darvozachaga tegib ketmaslik” haqidagi topshirig’ining saqlanib qolishi xato qilayotgan paytida teri muskul sezgisi bilan bog’lanadi va bola o‘z harakatining noto‘g’riligini o‘zi aniqlay oladi.

Taktil-muskul ko'rgazmaliligi o'quvchi gavdasining alohida qismlarini boshqaruvchi o'qituvchining bevosita yordamida ham ifodalanadi (masalan, qad-qomatni to'g'ri muskul tonusi sezgisini uyg'otadigan qo'l tekka zish orqali rostlash). Biroq, o'qituvchining bunday yordami qisqa muddatli bo'lishi lozim. Aks holda muayyan dinamik sterotipni hosil qilishga xizmat qiluvchi doimiy qo'zg'atuvchilar sistemasidagi signal ahamiyatiga ega bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ko'nikma og'zaki ko'rsatmalar yordamida mustahkamlanadi.

Yaqqol eshitish usullari harakatlarni ovoz orqali boshqarishga asoslanadi. Cholg'u musiqasi va ashula eng yaxshi eshitish ko'rgazmasi hisoblanadi. Ular o'quvchilarda estetik his va emotsiyalik ko'tarinkilik uyg'otadi, harakat xarakterini belgilaydi, uning sur'ati va ritmini boshqaradi.

Shunday qilib, ko'rgazmalilik usullari o'quvchining harakatlarni to'g'ri idrok qilishi va tasavvur etishi, hissiy ongingin kengayishiga, harakatlarni bajarishda o'z-o'zini nazorat qilishning vujudga kelishiga, harakatlar sur'ati va ritmini eshitish orqali boshqarishga, sensor qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatlarga o'rgatishdagi og'zaki usullar quyidagilarda ifodalanadi: o'quvchilarga ulardagi mavjud hayotiy tajriba va tasavvurga tayangan holda yangi harakatlarni aniq, qisqa bir vaqtida bayon etish va tushuntirishda; harakatlarni konkret ko'rsatish yoki uning ayrim elementlarini aniqlash asnosidagi sharhda; o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni qayta bajarishda yoki mashqlarni o'quvchilar mustaqil bajarishlarida zarur bo'ladigan ko'rsatmalarda; yangi jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni joriy qilish yoki harakatlarni o'rgatishda ularni tushuntirish, harakatli o'yin siojeti va hokazolarni aniqlashtirish talab etilganda oldindan o'tkaziladigan suhbatda; o'qituvchi jismoniy mashqlarning bajarilishidan oldin harakatlarni bajarish izchilligini anglash darajasini aniqlash yoki siojetli harakatlari o'yinlar obrazlari haqidagi tasavvurning bor-yo'qligini tekshirish, qoidalarni, o'yin harakatlari va hokazolarni aniqlashtirish maqsadida o'quvchilarga beradigan savollarida.

Bundan tashqari ko'rsatib o'tilgan usullar turli komandalar, farmoyish va signallarni aniq, emotsiyalik va ta'sirchan tarzda berishda ham ifodalanadi. Qofiyali matnlarning musiqiyligi va ritmliligi o'quvchilarda emotsiyalik ruh uyg'otadi, natijada bu qofiyalar ular tomonidan oson o'zlashtiriladi va keyinchalik mustaqil o'yinlarda foydalaniladi.

Muhokamalar va natijalar. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari 4-5 va ayniqsa 6 yoshli bolalar o'zlariga mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda yetarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish usullaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarini egallash sur'atini emas, balki sifatini ham oshiradi.

"Bola rivojlanishining keyingi bosqichlarida og'zaki ta'sir etish tizimi yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi birikma va kombinatsiyalarda jonlanishi yo'z beradi. Bundan asosan birinchi bor sof og'zaki ko'rsatma va tushuntirishlar yordamida yangi muvaffaqiyat aloqa o'rnatish, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkonini tug'iladi". Maktab yoshida harakat ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan bolaning mashq mazmuni va strukturasi, ya'ni uning barcha elementlarini qaysi izchillikda va qanday bajarish kerakligini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi tomonidan berilgan namunaga quruq taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunda harakat ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni ko'pincha mexanik tarzda kechadi. Ana shunday hollarda o'quvchilar yuzaki qaraganda mashqlarni durust bajaradilar. Biroq mashq tugagandan so'ng o'quvchidan qanday harakat qilish kerakligi so'ralganda ko'pchilik hollarda u bu savolga aniq javob bera olmaydi. To'g'rirog'i, o'quvchi javob berish o'rniga harakatni qayta bajara boshlaydi.

P.F.Lesgaft: "Agar o'quvchi biror bir mexanik metodni uning ayrim usullarining ma'nosini mutlaqo tushunmay o'zlashtirar ekan, u mexanik tarzda harakat qiladi, u mazkur metodni muayyan bir vaziyatga tatbiq eta olmaydi", deb yozgan edi. P.F.Lesgaft ta'rificha, "harakat haqidagi tasavvur" gavdaning harakatlanuvchi qismilari, harakat amplitudasi, yo'nalishi, tezligi, tarangligi va boshqa harakat komponentlari haqidagi tasavvurdan kelib chiqadi. Shunday ekan, bunday hollarda o'quvchida gavdaning harakatlanuvchi qismalarining o'zi his etadigan barcha tarkibiy qismlari bilan mujassamlashgan obrazi vujudga keladi.

O'quvchilar mashqlarni og'zaki topshiriqqa asosan bajarib bo'lishgach, o'qituvchi uning alohida elementlarining to'g'ri bajarilgani mazkur holat uchun zarur bo'lgan ko'rsatma, ko'rgazmali namoyish, tushuntirish kabi usullarning istalgan bittasi orqali aniqlaydi. Bu bolalar tomonidan anglab olingan topshiriqni amaliy tekshirish orqali aniqlashga xizmat qiladi.

Harakat faoliyatiga o'rgatishning yuqorida keltirilgan metodikasi professor A.I.Puni tadqiqotlariga tayanadi. Unda tasavvurning harakat ko'nikmalarini shakllantirish va harakatning mashq qildiruvchi ta'sirining roli ochib berilgan. Bu pismologiyada "ideomotor reaksiyasi" deb ataladigan o'ziga xos jarayonda ifodalanadi.

Ideomotor reaksiyalar o'z asosida I.P.Pavlovning mashhur qonuni bilan quyidagicha ta'riflanadi: "Agar muayyan bir harakat haqida o'yladingizmi, Siz uni beixtiyor, o'zingiz sezmagan holda bajarasiz". Kishi

o'zicha harakatni tassavur qilganda uning bosh miya po'stlog'ida kinestezik hujayralarning markaziy qo'zg'alish jarayoni vujudga keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, mazkur harakatni amalda bajarish paytda paydo bo'lgan va mustahkamlangan muvaqqat nerv bog'lanishlari tizimining jonlanishi yuz beradi.

Tashqi qo'zg'atuvchi rolini o'ynovchi so'z markaziy qo'zg'olishning sababi bo'lishi mumkin. Harakat topshirig'ini berish paytda aytilgan so'z harakat mazmuni va strukturasini tasavvur qilishga yordam beradi. Boshqa paytda bu so'z kishining mazkur harakatni bajarish haqidagi o'z fikrini ifodalasa ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. U ham kinestezik hujayralarning qo'zg'olishini vujudga keltiradi. Kishida bu harakatni bajarishga doir paydo bo'ladigan tasavvur ana shuning natijasidir. Mashqlarni egallashda aloqalar hosil qilinadi, har qanday, jumladan, mashqlarni hayolan takrorlaganda ham bu aloqalar sayqallashadi, natijada mashqlarni amaliy bajarish ham yaxshilanadi (A.TS.Puni).

O'qituvchi bularning barchasini hisobga olib, o'quvchilarda harakat faoliyatining turli usullari ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanadi. Chunonchi, o'quvchilarni harakatlarga o'rgatish jarayonida ko'nikmalarining shakllanishi stabil darajaga yetganda va bolalar turli harakatlarni mustaqil bajarishlari kerak bo'lganda o'qituvchi ulardan biriga bu harakatni ayni paytda bajarmagan holda uning izchilligini eslab so'zlab berishni taklif qiladi.

O'quvchi harakatlar izchilligini eslar ekan, masalan, shunday deydi: "Avval tayoqchani yuqoriga ko'tarib, unga qaraladi, so'ng uni ko'tarilgan o'ng tizzaga tushiriladi, keyin esa yana yuqoriga ko'tariladi va pastgu tushiriladi". Dastlab bolalar, odatda, o'z hikoyalarini muayyan harakatlari bilan birga olib boradilar. Bunday hollarda so'z va bir vaqtgagi harakat xotiraning ko'rish-harakat tasavvuri ifodasi hisoblanadi va o'quvchining bu tasavvurga nisbatan javob reaksiyasini osonlashtiradi. Ba'zan o'qituvchi barcha o'quvchilarga harakatlarni eslashni, ya'ni nima qilishlarini o'zlaricha tasavvur etishni taklif qiladi.

Ta'limning bunday usullari harakatlar haqidagi tasavvurning vujudga kelishiga yordam beradi. Bu tasavvur harakatlarning o'quvchilar tomonidan to'g'ri bajarilishi, ularning ishtiyoqi, emotsiyonal holati, diqqatining jamlanganligi va barqarorligi bilan mustahkamlanadi.

Mazkur usullardan mutazam foydalanilganda bolalar o'qituvchining harakatlarni albatta bajarib ko'rsatib berishini kutmaydilar: ular diqqatlarini topshiriqni tushuntirishga qaratadilar, so'ng mashqni to'g'ri, ishonch bilan mustaqil bajaradilar. O'qituvchi keyinchalik og'zaki usullardan yangi mashqlarni o'rganishda foydalanishi mumkin. Har qanday yangi harakatda bolalarga avvaldan tanish elementlar mavjud bo'ladi, shuning uchun u mohiyatan faqatgina tanish elementlarning yangi kombinatsiyasi hisoblanadi. Uzlusiz shug'ullanish natijasida barcha o'quvchilar o'qituvchining talablarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar, bu talabalarga amaliy harakatlar bilan to'g'ri, ongli tarzda javob qaytaradilar. Bolalar og'zaki topshiriqlarni yaxshi tushunadilar va ularni harakatga aniq tatbiq etadilar. Keyinchalik bolalar biron-bir harakatning murakkab bo'lmagan variantini taklif etishlari va o'zlariga tanish harakat elementlaridan yangi kombanatsiya tuzishlari mumkin. O'quvchilarning javob reaksiyasi doimo turli individual xususiyatlarga molik bo'lib, u o'quvchining umumiyo rivojlanishi, uning nerv tizimi xususiyatlari, diqqatini jamlash darajasiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarda harakat ko'nikmalarini shakllantirishning bayon etilgan jarayoni o'quvchining psixik va jismoniy tayyorgarligiga mos keladi. O'quvchilarda harakat ko'nikmalarini shakllantirishning boshlang'ich bosqichida o'qituvchi tomonidan beriladigan og'zaki topshiriqlarning juda aniq, lo'nda bo'lishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harakat haqidagi tasavvurni shakllantirish jarayonida bu tasavvurlarning to'g'riliгини кузатиб бориш зарур. Bu haqida harakat faoliyatini og'zaki bayon etish va konkret harakatlarga qarab fikr yuritish mumkin. Tasavvurning mashq qildiruvchi ta'siri boladagi o'z harakatlarini mustaqil boshqarish qobiliyatida va ularni bajarish sifatining yaxshilanishida ko'rindi.

O'quvchilar tomonidan harakat (butun harakat faoliyati) mazmunining anglanishi uning harakat ko'nikmalarini to'g'ri va birmuncha tez shakllantirishga, ijodiy aktivlikning rivojlanishiga, harakatlarni yangi vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradi. O'quvchilarni o'rgatishda ko'rgazmali va og'zaki usullarning maqsadga muvofiq qo'shib olib borilishi, ularning o'zaro bog'liqligi bir tomonidan harakatlarni idrok etish va qayta bajarishning konkretligi va obrazliligin, ikkinchi tomonidan bolalar bajaradigan harakatlari topshiriqlar - ular mazmuni va har bir harakat faoliyatining barcha elementlari izchilligini ongli tushunishini ta'minlaydi. "Faqat tushunarli narsani qayta bajarish mumkin. Bunda eshitilgan narsa bosh rol o'ynaydi", - deb ta'kidlagan edi I.M.Sechenov.

Bolalarni harakatga o'rgatishda ko'rgazamli va og'zaki usullar bilan o'zaro bog'liq turli amaliy usullar kompleksidan foydalanadi. U mashqlarni, harakatlari o'yinlardagi ayrim rollarni, boshqaruvchi rolini bajarib ko'rsatadi, o'quvchilarni topshiriqlarga jalb qilib va namuna ko'rsatib, ularni musobaqalarda qatnashishga rag'batlantiradi: masalan, kim harakatli topshiriqni tezroq, yaxshiroq, to'g'riroq bajaradi; u musobaqa hakami, jamoa kapitani rollarini bajarib, ularning o'yinchilarga nisbatan qabul qiladigan qarorlarini, o'zini qanday tutish va qanday xatti-harakat qilishni ko'rsatadi. Amaliy faoliyatni tashkil etayotib, butun ta'lim jarayonini mashg'ulotning vazifalari, mazmuni, strukturasiga muvofiq rejalab oladi. U o'quvchilarga frontal ta'lim

beradi; tanish harakatlarni takomillashtirish maqsadida ularni gruppalarga bo‘ladi, mustaqil harakat qilishni taklif etadi; o‘quvchilarga mashqlarni o‘rgatayotib, uni bir necha marta takrorlaydi va butun mashq jarayonini rejalagan holda o‘zgartiradi; bolalarni ijodiy izlanishga rag‘batlantirib, mashqlarni, harakatli o‘yinni o‘zgartirish, ularning variantlarini tuzish, yangisini o‘ylab topish kabi topshiriqlarni beradi. O‘quvchi ta‘lim jarayonida har bir yosh bosqichida katta bilim va amaliy ko‘nikmalarini egallab boradi. Shuning natijasida harakatlarning mustaqilligi, egallangan ko‘nikmalarini o‘yin va hayotda qo‘llanishdagi topqirlilik kuchaya boradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga rahbarlik qilar ekan, bola aqliy kamolotida ta‘limiy vazifalarni amalga oshirishni ham unutmaydi. U o‘quvchilarda ularga beriladigan harakatli topshiriqlarga nisbatan juda barqaror qiziqish va emotsiyal munosabatning vujudga kelishi hamda saqlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Bu topshiriqlar bajarilishi uchun zarur qarorni izlashga yo‘naltirilgan tafakkur aktivligini talab qiladi. (Masalan, yurish, yugurish va sakrashlarni navbat bilan bajarishda quyidagi topshiriq beriladi: harakatlarni almashtirish uchun signal formasini o‘ylab topish, ularni almashtirib turish tartibini taklif etish va nega unday emas, bunday bajarish sabablarini keltirish va boshqalar).

Xulosa. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga bunday mashqlar (elementlar va bajarilishi oson mashqlar), shuningdek, ularni egallangan bilim va harakat ko‘nikmalari (harakatlar texnikasi va ularni bajarish usullari, fazoda mo‘ljal olish, mashg‘ulotlarda harakatlarning almashinib turishi va hokazo) asosida qiziqarli hal qilish taklif etilganda ular aktivlik va ishtiyoq namoyon qilishlarini ko‘rsatmoqda. Ko‘rsatib o‘tilgan topshiriqlar aqliy va ijodiy aktivlikning rivojlanishiga, tashkilotchilik ko‘nikmalarini ko‘zlab, maqsadli harakat qilishga, topqirlilik va atrof-muhitda mo‘ljal ola bilishni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири). -Тошкент, 26 май 2020 йил.
2. Мирзиёев Ш.М.“Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон Фармон. 24.01.2020.
3. L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –Toshkent, 2011-yil.
4. M.K.Mahmudov, F.A.Narzullayev. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (Voleybol). – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil. 65-67 betlar.
5. М.А.Фатуллаева, Ф.А.Нарзуллаев “15-17 ёшли волейболчиларнинг шахсларaro муносабат жараёнлари ва психологик тайёргарлик хусусиятлари. Ҳозирги тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: муаммолар ва ечимлар. Халқаро онлайн илмий амалий анжуман. –Бухоро, 2020 йил 6-май. 614-617 бетлар.
6. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.
7. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
8. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.
9. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
10. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
11. Akmalovich D. B. et al. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 466-469.
12. Nematovich K. S. The possibilities of physical culture in the modern youth internet community //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 177-180.
13. Murodov J. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иктисодий ислоҳатлар кўлами //Архив научных исследований. – 2020. – №. 29.
13. Juraevich M. J. Actual problems of teaching physical culture in schools //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 181-187.

O’tkir FARMONOVBuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrasi katta o’qituvchisi**TALABA-YOSHLAR UCHUN SPORT VA SOG’LOMLASHTIRISH BASKETBOLI**

Maqolada basketbolning talaba-yoshlarning sog’ligiga ta’siri o’rganildi. Kundalik hayotda zarur bo’lgan muhim ko’nikmalarni shakllantirishda, ushbu sport orqali talabalarning sog’lig’ini yaxshilashda jismoniy mashqlar va sport elementlari qo’llangan tarzda, tanaga hissiy fonga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Basketbol sog’lom va rivojlangan talaba uchun ajralmas ekanligi qayd etildi.

Kalit so’zlar: mashq qilish, jismoniy tarbiya, basketbol, to’pni uzatish, otish, talaba, mahorat.

В статье изучено влияние баскетбола на здоровье студентов-молодежи. В формировании важных навыков, необходимых в повседневной жизни. Таким образом, физические упражнения и спортивные элементы используются для улучшения здоровья студентов с помощью этого вида спорта. Положительно влияет на организм эмоциональный фон. Отмечалось, что баскетбол незаменим для здорового и развитого школьника.

Ключевые слова: тренировка, физкультура, баскетбол, передача мяча, метание, ученик, мастерство.

The article studies the influence of basketball on students. The formation of important skills necessary in everyday life is studied. The elements of improving the health of students through this sport are highlighted. The positive effect on the body on the emotional background is shown. It is noted that basketball is indispensable for a healthy and developed student.

Key words: exercise, physical training, basketball, ball passing, throw, student, skill.

Kirish. Jismoniy madaniyat, umuman olganda, har bir talabaning o‘qishida, ya’ni inson iqtisodiy, gumanitar yoki boshqa bir fakultetida tahsil olayotgan muhim element hisoblanadi. Axir, har bir kishining ta’limi nafaqat ma’ruzalar, seminarlar va tezislarni yetkazib berishni o’z ichiga oladi, balki ko’p jihatdan ko’rish, e’tibor, eshitish, aqlga ta’sir qiladi. Shu bilan bir vaqtida, har qanday o’rganish, ba’zi istisnolar bilan, talaba harakati bilan past darajada bog’liq [1].

Asosiy qism. Biror kishi kam harakat qiladigan hollarda jismoniy mashqlar asab tizimining charchashini kamaytiradi, chidamlilikni rag’batlantiradi, immunitetni kuchaytiradi. Sport yuklamalari tanani nerv impulslarini bo’g’inlar va mushaklardan uzatishga majbur qiladi, markaziy asab tizimini faollashtiradi va uni yuqori faollik holatiga aylantiradi. Shundan so’ng tananing tezroq va samaraliroq rivojlanishi boshlanadi, bu esa talabaning ma’lumotni yaxshiroq anglashiga olib keladi. Jamiyatda ko’p narsa o’zgardi, o’zgarishishlarning elementi bilan bog’liq bo’lgan bu kompyuter texnologiyasi, aslida, har bir inson faoliyatiga kirib kelmoqda, operator faoliyati bilan bog’liq bo’lgan ko’proq kasblar yaratilayapti, ular odamdan tezkor yo’nalish olish qobiliyatini talab qilmoqda, bir turdag'i harakatdan ikkinchi yoki uchinchi darajaga o’tishni amalda aks ettirilmoqda. Hozirgi vaqtida insonga e’tiborni jaib qilish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud, u qiyin va tezkor harakatlarni amalgalashishi kerak.

Yuqoridaqilardan tashqari, samaradorlik, tezkor reaksiya va diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarini ta’kidlash kerak va uni tarqatish qobiliyatni, rivojlangan xotira, ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli, fikrlash, axborotni qabul qilish va tahlil qilish tezligi, rivojlangan iroda, shuningdek, zamonaviy dunyoda ishga joylashish uchun zarur bo’lgan yetakchilik sifati va muvaffaqiyatli mehnat qabul qilinganidan keyin ham. Talaba-yoshlar muntazam faoliyatga muhtoj, aslida kundalik intellektual charchoq, kitob va kompyuterda uzoq vaqt ishlash, nazorat ishlariiga tayyorgarlik ko’rish, kurs loyiha ishlarni yozishlar, abadiy uyqusizlik, umuman olganda, bularning barchasi ruhiy beqarorlik, befarqlik va chuqur tushkunlikka olib keladi. Sport esa qutqarish uchun keladi. Oliy o’quv yurtlari talabalarining aksariyati sport zaliga tashrif buyurishi, voleybol, basketbol, fitness, gandbol, badminton, futbol kabi faol, tez-tez jamoaviy jismoniy faoliyatni afzal ko’radi [2].

Basketbol sport turi - har qanday odamda turli xil vosita qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi sport o’yinidir. Ushbu sport o’yini bilan shug’ullanish vaqtida bir qancha jismoniy qobiliyatlar rivojlanadi: 1) tezlikorlik qibiliyatları; 2) tezlikorlik va kuchlilik qibiliyatları; 3) chidamlilik qibiliyatları.

Bunday dinamik mashqlar tizimi talabalarning ruhiy foniga ko’p qirrali ta’sir ko’rsatadi. Ushbu mashqlar hislar, e’tibor, xotirani rivojlantiradi, fikrlash va tasavvurni yaxshilaydi, bularning barchasi to’g’ri idroknning asosiy shartlariga aylanadi va algoritimli to’g’ridan-to’g’ri mashq qilish va o’ynash uchun mos keladi. Yuqoridaqilardan tashqari, fazilatlar o’yinchiligi va butun jamoanining harakatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Basketbol sport turi dastlab faqat talabalar uchun o’yin edi.

Netboll (basketbolning ikkinchi nomi) nafaqat "talaba" sport XX asrda AQShda mashhur bo'lib, ular nafaqat universitet va kollejlarda, balki maktablarda ham shug'ullana boshladilar. Keyinchalik zamonaviy insonlarning tushunchasiga qaraganda bu to'p o'yini boshqa yuqori darajadagi jismoniy faollik darajasidan farq qilishi va u ham o'z ichiga ko'p kuch va kardio vazifalarini oladi. Basketbol - yugurish, yurish, to'p bilan muloqot qilish, translyatsiya qilish, himoya qilish, jamoada ishlash qobiliyati, vaziyatni sovuqqonlik bilan baholash, eng yaxshi taktikani tanlashni shakllantiradi. Bugungi kunga kelib, bu nafaqat o'yin-kulgi emas, balki bu zamonaviy sport turi sifatida talabaning jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lig'ini saqlab qolishini kafolatlaydigan mashqlarning o'ziga xos tuzilishidir. Basketbol-talabalarning jismoniy tayyorgarligini va sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan bir qancha muhim elementlarni birlashtiradigan o'ziga xos sport turi.

Birinchidan, bu o'yin barcha mushaklar, nafas olish, his-tuyg'ular va tezkor fikrlashni maksimal darajada o'z ichiga olgan mashqlardan iborat.

Ikkinchidan, bu sport jamoaviy maydonda harakatlanish, texnik-taktik qobiliyatini rivojlantirish, o'yinchining harakat mas'uliyatni oshirish, o'yin jarayonida raqobat, qobiliyat, tezlik, e'tibor, aniqlik, ilg'ab olish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan muammolarni hal qiladi [3]. Ya'ni basketbolning o'quvchilar fiziologiyasiga bevosita ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak, bir nechta asosiy anatomik o'zgarishlar mavjud:

1. Asab tizimi doimiy ravishda rivojlanib boradi, chunki tana organlarning faoliyati doimiy ravishda nazorat qilinadi. Ushbu sport bilan doimo shug'ullanadigan talaba periferik ko'rish xususiyatlarigda o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu o'zgarishlar vizual idrokning samaradorligiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Tahlilga asoslanib, sistematik darslar yorug'lik impulslarining ko'rish vizuali sezgirligini taxminan 40% oshiradi. Yuqorida aytilganlarning hammasi tanaga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bir turdag'i faoliyatdan ikkinchisiga tezkor o'tish asab jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlariga olib keladi. Bunday dinamika analizatorlarning funksiyalarini, psixomotor funksiyalarini va keyinchalik butunlay markaziy asab tizimini yaxshilaydi.

2. Netboll yurak-qon tomir tizimini rivojlantiradi, bu optimal jismoniy faoliyat tufayli sodir bo'ladi. O'yin davomida o'yinchilarning yurak urish daqiqada 230 zarbaga yetadi, qon bosimi 190 millimetr simobdan oshmaydi [4].

Tadqiqotlar yurakning nisbiy hajmini (1300– 1400 sm³) oshirdi. Basketbol bilan shug'ullanmaydigan odamlar bilan taqqoslaganda, basketbol bilan shug'ullanadiganlarning 50% da xuddi shunday holatlar kuzatiladi.

3. O'yin davomida 120-150 litr hajmida bir daqiqa davomida 50-60 sikllarga yetib boradigan nafas olish dinamikasining yuqori chastotasi tufayli o'pka hajmi vaqt o'tishi bilan ortadi. Nafas olish tizimining yo'naltirilgan rivojlanishi insonga chidamlilik va quvvat qo'shami, shubhasiz, bu tanaga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Basketbolning mushak to'qimalariga ta'siri haqida gapirganda, "qizil" va "oq" tolalarning tarkibini o'zgartirish yoki "sekin" va "tez"ni tanlash kerak. Albatta, birinchi navbatda, bu tolalar nima ekanligini aytish kerak. "Qizil" yoki "sekin" tolalar pozitsiyani, durustni ushlab turish uchun mas'uldir, uzoq masofalarga harakat qilish yoki murakkab mashqlarni uzoqroq bajarishga imkon beradi.

Umuman olganda, "qizil" tolalar tananing chidamliligi va statikasini rivojlantiradi. "Oq" yoki "tez" tolalar insonning kuch va tezlikni yaxshilash uchun tanaga foyda keltiradi. Bundan tashqari, mushaklarning miqdori uchun ham javobgar. "Qizil" va "oq" tolalar tarkibidagi o'zgarishlar quyidagicha kuzatiladi: "tez" tolalar hajmi oshadi va "sekin" navbatli bilan kamayadi. Lekin bu o'yinchining kamroq chidamlilikka ega bo'ladi degani emas, chunki ularning sonini ko'paytirganda "oq" tolalar "tez" va "sayoz" vazifalarini bajarishga kirishadi.

5. Bo'g'lnlarni mustahkamlash. O'yin davomida kuchli amplituda ko'p sonli harakatlar amalga oshiriladi. Bunday dinamika bo'g'imlarning harakatlanishini rivojlantiradi. Bundan tashqari, basketbolchilarining o'ziga xos tana qizishi tufayli bo'g'imlarning "jarohatlanishi" kuchayadi, bu moslashuvchanlik mashqlari, tana qizdirish harakati vaqtida yugurish va boshqa elementlarni o'z ichiga oladi.

6. Ushbu sport, shuningdek, o'yin davomida talabalarning harakatchanligi, signalning harakat tezligida doimiy o'zgarish yoki o'yin holatini qo'llab-quvvatlash orqali miya impulslarining tezligi oshiriladi. Shu nuqtada, o'yinchchi o'rtoq yoki dushman harakatining tezligi va yo'nalishiga uzoq muddatli tezkor reaksiyaga ega bo'ladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi asab jarayonlarining harakatlanishiga, ko'rish, ilg'ash va turli holatlarning shakllanishiga ta'sir qilibgina qolmay, ruhiyatni yaxshilashga yordam beradi.

7. Suyaklarni mustahkamlash harakat yo'nalishlarini muvofiqlashtirish va o'zgartirish bilan shug'ullanadigan maxsus jismoniy mashqlar va yuklamalar tufayli yuzaga keladi. Bundan tashqari, o'yinchining suyaklarini mustahkamlashning muhim jihat uning ovqatlanish rejimi bo'lib, u ko'plab sut mahsulotlarini o'z ichiga oladi, bu ikkinchi darajali element, lekin juda muhim mikroelementlarni o'z ichiga oladi.

Muhokamalar va natijalar. Basketbol mustaqil ravishda va juftlikda, shuningdek, jamoalarda, harakatlanuvchi mini-o'yinlar, to'p bilan bog'liq vazifalar rivojlanish uchun ko'p tomonlama imkoniyatlar, ularning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun eng ko'p ko'nikmalar (reaksiya tezligi, harakatga tez o'zgarish, vaziyatga qarab, har xil, tezkor va vaqtinchalik harakat parametrlarining aniqligi, o'z harakatlarini muayyan, keng harakat tizimlariga muvofiqlashtirish qobiliyatini) o'z ichiga oladi.

Ushbu sportning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir: vaziyatlarning ikkinchi o'zgarishi, o'yinchilar va raqiblarning murakkab harakatlar tizimiga yo'naltirilganligi, to'p bilan harakatlanishning turli elementlarini bajarish, to'psiz, harakat va harakatda, ba'zan esa harakatlar, masalan, ba'zi hollarda to'pni savatga otish. Muvaffaqiyatli basketbol o'ynashning asosiy ko'nikmalarini egallashga intilgan talabalar uchun turli xil jismoniy sifatlarni rivojlantiradigan mashqlar ishlab chiqilgan [5].

1. Umumiy jismoniy tarbiya talaba-yoshlarni boshlang'ich turdag'i yoki keng qamrovli jismoniy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u jismoniy tayyorgarlikning yanada murakkab bosqichiga o'tish uchun zarurdir.

UMM, birinchi navbatda, o'z ichiga oladi:

- 1) har tomonlama sportni rivojlantirish;
- 2) sog'liqni saqlash elementi;
- 3) funksional chidamlilikni oshirish;
- 4) jismoniy ish faoliyatini yaxshilash;
- 5) asosiy sport fazilatlarini ishlab chiqish va h. k.

2. Maxsus jismoniy tarbiya - muayyan sportga xos bo'lgan maxsus ko'nikmalarini egallash uchun zarur bo'lgan vositalar majmuasi (to'pni boshqarish, uni uzatish, savatga tashlash va h.k.).

Bundan tashqari, ushbu turdag'i jismoniy mashqlar turli xil sport xususiyatlarini rivojlantirishga imkon beradi, shu jumladan organizmdagi yog'lar tufayli faol mushak massasini hosil qiladi va sog'lig'ini yanada mustahkamlaydi. O'yinchining maxsus sport xususiyatlarini ishlab chiqishga qaratilgan bir nechta mashqlar mavjud:

1. Yuqori tezlik va kuch-quvvat mashqlari tananing, qo'llarning, oyoqlarning, magistral mushaklarining turli qismlaridagi mushak to'qimalarining tarkibi o'zgaradi.

2. Har xil turdag'i chidamlilikni rivojlantiradigan chidamlilik mashqlari, kuch, tezlik yoki kardiojarrohlik.

3. Talaba-yoshlarning tezligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar (tezlik muvaffaqiyatli o'yining eng muhim elementlaridan biridir).

4. Qobiliyat mashqlari (bu basketbolchi uchun juda muhim xususiyatdir, aslida qobiliyat - bu keskin o'yin davomida juda zarur bo'lgan harakatlarning mukammal muvofiqlashtirishidir).

5. Cho'zish mashqlari, moslashuvchanlik (bitta o'yinchi harakatlarining amplitudasi qanchalik yuqori bo'lsa, butun jamoaning o'yin natijasi shunshalik yaxshi bo'ladi) [6].

Xulosa. Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilar ekanmiz, talabalar uchun basketbol nafaqat qiziqarli o'yin, balki jismoniy rivojlanish, sog'ligini yaxshilash va mustahkamlash, shuningdek, o'yin davomida talaba-yoshlarni jismoniy va hissiy jihatdan tarbiyalash vositasidir. Ushbu o'yin, albatta, bunday imkoniyatlarni yaratadigan sport turiga aylandi. Bundan tashqari, talaba-yoshlar uchun zarur bo'lgan basketbol sport turi dinamik qobiliyatlarini keng doirada rivojlantiradi. Umuman olganda, yuqorida ko'rsatilgan basketbol sport turiga asoslangan jismoniy mashqlar talabalarga sport va sog'lomlashtirish nuqtayi nazaridan ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori. –Toshkent, 2017-yil 3-iyun.
2. Basketbol - yoshlar ilmiy forumi orqali talabalarning motor qobiliyatlarini rivojlantirish. - 55-61bet.
3. Basketbol talabalarda vosita qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida //xalqaro talabalar ilmiy axborotnomasi [elektron resurs]. - Kirish tartibi: <https://www.eduherald.ru/ru/article/view?id=13805>.
4. Basketbolning foydasi qanday? // Sportcom [elektron resurs]. - Kirish tartibi: <http://sportkompas.ru/stati/v-chem-polza-basketbola>.
5. Basketbolning inson organizmiga ta'siri // jismoniy tarbiya va sport [elektron resurs]. - Kirish tartibi: <http://www.fizkulturaisport.ru/biologiya/> fiziologiya/259-vliyanie - zanyatijbasketbolom-na-organizm-cheloveka.html.
6. Farmanov O'. A. Sport va harakat o'yinlarini o'qitish metodikasi (basketbol) oliy ta'lim muassasasi uchun. -Buxoro, 2019-y. -28 b

Farrux NARZULLAYEVBuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasi katta o'qituvchisi**QIZLAR SPORTI YO'NALISHI BO'YICHA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNING
YENGIL ATLETIKA DARSLARIDA KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Maqolada sportchi-qizlarning yengil atletika darslarida kuch sifatini vositalar yordamida rivojlanirish usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar sporti, yengil atletika darslari, uloqtirish texnikasi, portlash kuchi, tezkor-kuch, kuchni tarbiyalash.

В статье рассмотрены методы развития силовых качеств у спортсменок-девушек на уроках легкой атлетики средствами.

Ключевые слова: женский спорт, занятия легкой атлетикой, техника метания, взрывная сила, быстрота-тренировка силы, силы.

In the article, the methods of developing the quality of power with the help of means in the Athletics lessons of athletes and girls are considered.

Key words: women's sporti, athletics classes, throw technique, Blast strength, speed-strength, power training.

Kirish. Hayotni ayollarsiz tasavvur qilish mumkin bo'limganidek sportni ham ularsiz tasavvur qilish mumkin emas. Sportchilar tayyorlash tizimida, albatta, ayollarning o'rni ma'lum bir foizni tashkil qiladi. Bugungi sportni, ya'ni O'zbekiston sportchilari jahon arenalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlarining ham bir qismimi ayollar qo'lga kiritmoqda. Respublikamizda ham ayollar sportini rivojlanirishga va ularni tayyorlashda, ayol murabbiylarni tayyorlab, hattoki, chekka qishloq joylarida ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi qizlarning sog'liqlarini mustahkamlash va sport bilan doimiy tarzda shug'ullanishini ta'minlash masalari hukumatimiz tomonidan yo'lga qo'yilgan.

Umuman, jismoniy tarbiya tizimida va yengil atletikada ayollar sezilarli joyni egallaydi. Yengil atletika bilan shug'ullanish ayollar sog'lig'ini mustahkamlaydi va jismoniy sifatlarini kuch, tezkorlik, chaqqonlik, hayotda kerakli sifatlarni hamda harakatchanlik ko'nikmalarini oshiradi. Yengil atletika mashqlari turlicha bo'lib, tabiiy va mavjudligi, asosiysi, ommaviy tarzda shug'ullanishga imkon beradi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunlarida jismoniy tarbiya darslariga zarur tuzatishlar kiritish, ularning samaradorligini oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-maydag'i "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunida (yangi tahrir) jismoniy tarbiya bo'yicha majburiy darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar va test sinovlari barcha ta'lif muassasalarida o'quvchilarning fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda o'tkazilishi ko'rsatilgan.

Jumladan, uzuksiz ta'lif tizimida ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, umumiyo o'rta ta'lif, o'rta maxsus ta'lif va oliy ta'lif muassasalarida o'quv dasturiga kiritilgan yengil atletikaning uloqtirish turlari mashqlarining texnikasiga o'rgatishni ilmiy-uslubiy asoslash ta'lif olayotgan o'g'il-qizlarni 3 bosqichli sport musobaqlari dasturdagi me'zonlarni bajarishlarida hamda umumiyo jismoniy tayyorgarligini rivojlanirishda uloqtirish mashqlaridan foydalanib kelinadi. Uloqtirish turlari bo'yicha umumiyo o'rta ta'lif maktablarini bitirish oldidan imtihonlarda belgilangan me'zonlarni topshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu talab me'zonlarni topshirishda kerakli bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlanirib boradi.

Keyinchalik o'rta maxsus ta'lifda aynan uloqtirish turlarini biror-bir turi bilan mutnazam shug'ullanish va musobaqlarda ishtirok etish bilan sport turining texnikasini egallab boradi. Uloqtirish harakatlari mashqlarining texnika asoslariga dastlabki o'rgatishda zamonaviy uslub va shakklardan foydalanish "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test me'yordari dasturdagi uloqtirish turlarining texnikasini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ayni bosqichma-bosqich olib borilgan jismoniy tarbiya darslarida uloqtirish turlarining texnikasini o'zlashtirib borgan o'quvchilarning keyingi o'quv faoliyatini oliy o'quv yurtlarida ixtisosliklari bo'yicha ham davom ettirishi mumkin.

Mazkur ishda BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat (xotin – qizlar sporti) ta'lif yo'nalishi talabalari yengil atletika o'quv dasturiga kiritilgan turlar texnikasi va turlar texnikasiga o'rgatish

uslubiyatining nazariy bilimlari bilan tanishib boradi. Yengil atletika darslari dasturiga kiritilgan uloqtirish turlari orqali talabalar har tomonlama tayyorlanib boriladi. Ya’ni tanlangan sport turlari bo‘yicha umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, uloqtirish turlari bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan uzlucksiz ta’lim tizimi dasturidan o‘rin olgan uloqtirish turlari texnikasini o‘rgatish uchun pedagogik faoliyatida kerakli hisoblanadi.

Xotin-qizlar sporti yo‘nalishida tahsil olayotgan qizlarning uloqtirish turlari texnikasiga o‘rgatish va kerakli jismoniy sifatlarini oshirishga qaratilgan harakatlarini ilmiy tomondan tahlil qilish yengil atletika darslari dasturida ko‘zda tutilgan uloqtirish misolida amalga oshiriladi.

Dastlabki o‘rgatish jarayonida harakat faoliyati malakasini shakkantirishdan kelgusida tarkib topadigan stereotipni sindirib tashlashni talab qilmasdan, balki uloqtirishning boshqa turlarini (granata, nayza, disk, bosqon, yadro) o‘rgatish va takomillashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega.

Uloqtirish texnikasini (kinematik va dinamik tavsifdan) tahlil qilish, uni talabalarning o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar sabablarini o‘rganish va shu asosda vazifalarni oydinlashtirish, shuningdek, ularni hayotda qo‘llash uchun vositalarni tanlash va asoslash, tayyorgarlikning miqdor va sifat me’zonlarini ishlab chiqish uloqtirishda o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu boisdan yengil atletika darslarida yadro itqitish, nayza uloqtirish va disk uloqtirish mashqlari texnika asoslariga o‘rgatishning eng samarali uslublarini aniqlash va ularda kuch sifatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yengil atletikaning uloqtirish mashqlari texnikasi asoslarini o‘rgatish, talabalarga kasbiy faoliyatida kerakli uloqtirish mashqlari, mashg’ulotlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan uloqtirish mashqlarining ahamiyati muhim muammolar qatoriga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur ishning dolzarbligi ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari va “Jismoniy madaniyat (xotin – qizlar sporti)” ta’lim yo‘nalishlari uchun yengil atletika darslarida uloqtirish mashqlarining texnikasi va zarur bo‘lgan kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Dastlabki o‘rgatish jarayonini optimallashtirish orqali dastur materiallarining to‘liqligicha o‘zlashtirilishiga erishish, shu bilan birga ularni kelgusida granata, nayza, bosqon, disk, yadro uloqtirish turlari texnikasiga o‘rgatish va kuch sifatlarini rivojlantirish inobatga olingan.

Portlash kuchi – insonning eng qisqa fursatda eng katta kuchni namoyon qilish qobiliyati. Mushaklarning ta’sirchanlik qobiliyati – asab mushak apparatining o‘ziga xos xususiyati, mushaklarning shiddatli mexanik cho‘zilishidan so‘ng keskin namoyon bo‘ladigan kuchli harakat urinishi. Portlash kuchi inson harakatlarida mushaklarning izotermik va dinamik ishi tartiblarida namoyon bo‘lar ekan. Dinamik tartibda, odatda, turli kattaliklardagi tashqi qarshiliklarni yengishga to‘g’ri keladi. Og’irliliklar bilan va sakrash mashqlari takror - seriyali usulda bajariladi, ularning eng ko‘p tarqalganlari quyida keltirilgan.

Vazn maksimaldan 60-80%. Yondashuvda maksimal tezlikda 4-6 takrorlash bajariladi. Takrorlashlar orasida mushaklarni bo‘sashtirish lozim. Takrorlashlar sur’ati o‘rtacha. Har bir seriyada 2-4 yondashuv, oraliqda 4-6 *daqiqan tanaffus*. Mashg’ulotda 2-4 seriya, oraliqlarda 6-8 *daqiqan tanaffus*.

Vazn 60-80%. Mashqlar reversiv tartibda, ya’ni mushaklarning yon beruvchi tartibidan yengib o‘tuvchi tartibiga o‘tish bilan bajariladi. Og’irlikni balandlikning 1/3 qismiga qadar ko‘tarib, keskin tushirish kerak va o‘sha zahoti ko‘taruvchi yengib o‘tuvchi tartibga o‘tish lozim. Yondashuvda 3-5 takrorlashlar bajariladi. Seriya 2-3 yondashuvdan iborat, oraliqda 4-6 daqiqan tanaffus. Mashg’ulot 7-8 *daqiqan tanaffusli* 2-4 seriyadan iborat.

Mushaklar – oyoqlarni rostlovchilar uchun mashg’ulot. Yelkada og’irlik bilan balandlikdan sakrab tushish. Vazn 30-60% oraliqda bo‘lishi mumkin. Har bir sakrab tushish amortizasiyalı o‘tirishdan so‘ng, yon beruvchi tartibdan darhol yengib o‘tuvchiga o‘tish bilan bajariladi. Yondashuvda 4-6 marta sakraladi. Har bir seriyada 2-3 mashq bo‘lib, oraliqda 6-8 *daqiqan faol hordiq*.

Oyoq mushaklarning portlash kuchini rivojlantirish uchun sakrash mashqlari. Mashqlar maksimal og’irliliklar bilan bir va ko‘p marta sakrash orqali bajariladi. Bir martalik sakrashlarni joyida o‘tkazish mumkin. Bir seriyada 4-6 marta sakraladi, seriyalar orasida kuch qayta tiklangunga qadar tanaffus qilinadi. Mashg’ulot davomida 3-5 seriya bajariladi. Ko‘p martalik sakrashlar 4 martadan 10-12 martagacha bir oyoqda yoki ikki oyoqda bajariladi. Yondashuvda 3-4 marta sakraladi, seriyada 2-3 yondashuv mavjud, tanaffuslar 3-4 *daqiqan*. Seriyalar miqdori qattiq charchash alomatlari paydo bo‘lganiga bo‘ladi.

Muhokamalar va natijalar. Portlash kuchini va mushaklarning ta’sirchanlik qobiliyatini rivojlantirishda “jadal” usul alohida ajralib turadi. U pastga tushayotgan og’irlikning kinetik energiyasidan foydalanishga mo‘ljallangan. Balandlikdan sakrab “qo‘nayotganda” amortizasiya vaqtida mushaklarning yuk energiyasini yutish jarayoni yuz beradi.

Tezkorlik kuchni rivojlantirish. Tezkor kuchi - nisbatan katta bo‘lmagan tashqi qarishliklarga qarshi tezkor harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladi va asab mushaklari start va tezlanuvchi kuchini belgilovchi xususiyatlari bilan ta’milanadi.

Tezkor - kuchni rivojlantirish uchun dinamik kuchlanish usulidan foydalilaniladi. Bu usul mashg'ulot mashqlarini maksimal tezlikda, nisbatan katta bo'limgan - 30% gacha og'irlik bilan bajarishga asoslangan. Bunday usul tezkor-kuch qobiliyatlarini, tez va portlash kuchini rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

Tezkor kuch – bu asab-mushak tizimining maksimal qisqa vaqt ichida kuchning yuqori ko'rsatkichlariga erishishi uchun funksional imkoniyatlarni safarbar eta olish qobiliyatidir. Tezkor kuch asiklik va siklik xususiyatga ega ko'pgina harakatlarda – uloqtirishlarda, sakrashlarda, sprinterlik yugurishda sport natijalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tezkor kuchni sportchilarning tezlik-kuch imkoniyatlari turli xil talablar qo'yadigan harakatlarda kuchning namoyon bo'lishi kattaligiga qarab tabaqlashtirish darkor. Kuchlanishlar xususiyatiga ko'ra tezkor kuchda uning uchta turi ajratiladi (V.V. Kuznesov bo'yicha):

1) portlovchi kuch – maksimal tezlanish bilan kuchning namoyon bo'lishi (tezlik-kuch mashqlari – sakrashlar, sprinterlik yugurish, uloqtirish).

2) tez kuch – maksimal tezlanish bilan kuchning namoyon bo'lishi (yugurishda tez harakatlarni bajarish).

3) sekin kuch – nisbatan sekin harakatlarda (langarcho'p bilan mashqlar bajarishda tayanchga chiqish).

Mashqlarda kuch berishlar kattaligini baholashda "mutloq" va "nisbiy" kuch atamasi qo'llaniladi.

Mutloq kuch – sportchi dinamik yoki statik rejimlarda bajara oladigan eng katta, maksimal kuchlanishdir.

Nisbiy kuch – bu sportchining 1 kg vazniga nisbatan teng keladigan kuch kattaligidir.

Kuch. Muskullar kuchining o'sishi 11 yoshgacha nisbatan sezilmaydi, lekin 12 dan 14 yoshgacha uning o'sish sur'ati sezilarli ortadi. Kuchning juda shiddatli rivojlanishi 14-17 yoshda bo'ladi.

Tezlik. Tezlikning rivojlanishi 7 dan 20 yoshgacha kuzatiladi, lekin bu sifatning shiddatli rivojlanishi 9 dan 11 yoshgacha va 11-12 dan 14-15 yoshgacha, jinsiy balog'at paytida ro'y beradi, lekin o'g'il bolalarda bu sifatning o'sishi keyinchalik ham davom etadi.

Tezkor-kuch sifatlari 7-8 yoshdan boshlab o'sa boshlaydi. Eng ko'p o'sish 10-12 yoshdan 13-14 yoshgacha to'g'ri keladi. Shu yoshdan keyin o'sish davom etadi, lekin, asosan, mashg'ulot ta'siri ostida bo'ladi.

Kuch tayyorgarligining asosiy vazifalari: 1) yengil atletikaning tanlangan turida samarali takomillashish maqsadida kuch imkoniyatlarni oshirishi; 2) sport takomillashuvining ko'p yillik jarayoni bosqichlari xususiyatlari nuqtayi nazaridan kuch imkoniyatlarni ta'minlash va saqlab qolish; 3) tanlangan yengil atletika turining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kuch qobiliyatlarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish.

Kuch sifatlari darajasini aniqlovchi asosiy omillar

Organizmning kuch mashqlariga moslashishi mushaklar, asab tizimi va suyak to'qimalaridagi o'zgarishlarga bog'liq. Kuchning oshishi mushaklar gipertrofikasi bilan birga to'qima ichida qisqaruvchi elementlar zichligining ortishi, aktin va miozin nisbatining o'zgarishi bilan bog'liq. Asab tizimi bo'limlaridagi morfologik o'zgarishlar, birinchi navbatda, motoneyronlarning shox otishiga, ganglioz hujayralarning ko'payishiga, funksional o'zgarishlar esa mushaklar ichidagi hamda mushaklararo koordinasiyaning oshishiga olib keladi. Suyak tizimi o'zgarishlari suyaklar zichligi, ularning egiluvchanligining oshishi, paylar, mushaklarning chatishgan joylarida suyak do'nglarining gipertrofiyasi bilan bog'liq.

Shunday qilib, sportchining kuch sifatlari darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1) morfologik (mushaklar va tolalarning ko'ndalang hajmi har xil tipdagi tolalarning nisbati mushaklarning reaktivligi va ularning cho'ziluvchanlik xususiyatlari suyak to'qimasi o'zgarishlari va h.k.);

2) energetik fosfat birikmalarining (adenozintrifosfat va kreatin-fosfat) va mushaklar hamda jigardagi glikogen zahirasi periferik qon aylanish samaradorligi, almashinuv jarayonlari xususiyati va boshq.);

3) neyro boshqaruvchi (impulslar sur'ati, mushaklar ichidagi koordinasiya, mushaklararo koordinasiya).

Kuchni tarbiyalash jarayonida quyidagi metodik qoidalarga rioya etish tavsiya qilinadi: 1) ko'pgina mashqlar xususiyatiga ko'ra tanlangan sport turiga yaqin bo'lishi lozim; 2) kuchga mo'ljallangan mashqlar sportchining yoshi, jinsi, tayyorgarligi va individual xususiyatlari mos bo'lishi kerak; 3) kuchga mo'ljallangan mashqlar qo'llaniladigan mashg'ulotlar oldidan yaxshilab badan qizdirish amalga oshirilishi zarur; 4) agar yuklamaning umumiy kattaligi katta bo'lsa, mashg'ulotlar orasidagi dam olish uzoqroq bo'lishi kerak.

Asosiy shartlardan biri – og'irlik harakat amallari texikasiga halaqt bermasligi, uni buzmasligi hamda amal bajarilish tezligini pasaytirmasligi lozim.

- саралаш мусобақаларини асосий мусобақа режаси бўйича ҳамда ўша кун, ҳафта ва соатда ўтказиш мақсадга мувофиқдир;
- саралаш мусобақасидан кейин мусобақаолди тайёргарлик босқичи бошланишидан олдин тикловчи микроцикл бўлиши шарт [18].

Етакчи олимлар [6, 12, 22] таъкидлашларича, МОТ босқичи ўзининг пухта ифодаланган тузилиши ва аниқ мақсадларига эга бўлиши шарт деб хисоблайдилар:

- асосий саралаш мусобақалари ва мамлакат биринчилиги мусобақаларидан кейин организмнинг иш қобилиятини тиклаш;
- жисмоний тайёргарлик ва техник-тактик маҳоратни янада такомиллаштириб бориш;
- спортчиларда бошқариш ва ўз-ўзини бошқариш хисобига юқори руҳий тайёргарликни яратиш ва қўллаб-куватлаш;
- мусобақа фаолиятини яратиш ва тайёргарлик даражасини назорат қилиш;
- юқори даражада мумкин бўлган спорт натижаларига йўналтирилган тайёргарликнинг ҳамма сифатларидан жисмоний, техник, тактик ва руҳий томонидан максимал фойдаланиш учун қулай шароитларни таъминлаш.

Мамлакат биринчилиги ва асосий мусобақа ўртасидаги оралиқقا боғлиқ бўлган бу босқичнинг давомийлиги 6-8 ҳафтани ташкил этади. У, одатда, икки мезоциклдан иборат. Улардан бири (катта ҳажмдаги юкламалар йифиндиси) юқори даражадаги спорт натижаларига эриштирувчи, жисмоний сифатлар ва иш қобилиятларнинг ривожланишига қаратилган бўлиб, иккинчиси - спорт харакатининг ўзига хослиги, спортчилар таркиби, ташкилий муаммолари, об-ҳаво ва бошқа таъсирларни инобатга олган ҳолда спортчини аниқ белгиланган мусобақаларга олиб чиқишдан иборат. Муаллифнинг фикрича, спортнинг айрим турлари, айниқса циклик турларида мусобақаолди тайёргарлик босқичида ўтказилган тажриба унинг қўйидаги тузилишини ишлаб чиқиш имконини беради.

Биринчи мезоцикл-асосий:

- тикловчи ва киришувчи (6-8 кун);
- машғулот юкламаларининг юқори ҳажми ва жадаллигини ҳисобга олган ҳолда иш қобилиятини ошириш мақсадида зарбдор машғулот (14-28 кун);

Иккинчи мезоцикл - мусобақаолди:

- асосий стартга бевосита олиб чиқиш (14-21 кун). Мақсад машғулот юкламаларининг айрим параметрларини пасайтириш йўли билан мусобақаларга олиб чиқиш, мусобақалар шарт-шароитларига мослаштириш каби мезоциклларни таклиф этганлар.

Хулоса қилиб айтганда бу мураббий ва спортчиларга барча мумкин бўлган вариантларни ҳисобга олган ҳолда мусобақаолди тайёргарлик босқичи тузилишини янада оқилона режалаштиришга ёндашиш ва ёшларни мусобақаларга қизғин тайёрлаш вақтида хатога йўл кўймасликка ёрдам беради.

Адабиётлар

1. Абдуллаев М.Ж. Бошлангич тайёргарлик босқичида шугулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкен, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16].
2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 7-10.
3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 10-14.
4. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 14-18.
5. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
6. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиши методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2017 й. 620 бет
7. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13/ 497-504 pg.
8. M.J. Abdullaev. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 110-114 pg.

9. M.J. Abdullaev. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. 115-122 pg.
10. S.S., M.J.Abdullayev, A.T., O.Yu.. Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 2021, Volume 8, Issue 1, Pages 806-813. https://ejmcm.com/article_6556.html
11. M.J.Abdullayev, O.I. Berdiyev, N.R. Omonova. Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions // The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI Volume 3 Issue 02, 2021 ISSN 2689-100X. 3 (02), 312-320
12. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
13. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
14. S.S.Tajibaev, M.J.Abdullaev, A.T.Niyazov, O.Y.Niyazova. This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 2020, Volume 7, Issue 6, Pages 2907-2914
15. A.K.Ibragimov. Catalog of training tasks for training special endurance of yong gril handball players // Academical.An International Multidisciplinary Research Journal 2.35-39p
16. А.К.Ибрагимов. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00№23].
17. R.R.Raxmonov. Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 Pages 768-777.
18. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 6,2020
19. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov, N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 december
20. S.S.Abdueva. Activities that increase children's interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки и обозование международная научно-практическая конференция, 2020.
21. F.Fazliddinov, M.Toshev N.Sabirova, B.Do'stov. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125. 2020
22. F.Fazliddinov, K.Kobiljonov. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
23. M.Fatullaeva, F.Narzullaev.Motivation of students to do sports as part of physical education classes. ACADEMICIA. An international multidisciplinary Research Journal. 2020 йил май. 1446-1450 бетлар.10.5958/2249-7137.2020.00344.4
24. Raxmonov R.R. O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rta masofaga yugurish dinamikasini tahlil qilish ahamiyati.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy metodik jurnali. -Toshkent, 2020. 3-son may-iyun. 78-81-bet.
25. Рахмонов Р.Р. Оммавий спорт мусобоқаларда ўрта масофаларга югурувчиларнинг тутган ўрни. Инновационное развитие науки и образования. Павлодар, Казахстан. Междунар. науч. - практ. конф., 2021, С. 19-21.
26. Рахмонов Р.Р. Ўрта масофа югурувчиларнинг жисмоний тайёргарлиги учун инно-вацион технологиялар. Ҳозирги замон тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: Муаммолар ва истиқболлар Халқаро онлайн илмий амалий анжумани. –Бухоро, 2006-май. 591-595-бет
27. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. - М.: "Астрель", 2003. - 672 с.
28. Максименко Г.Н. Управление тренировочным процессом юных бегунов. - Киев: "Здоровя", 1978. - 180 с.
29. Максимов А.С. Система комплексного контроля бегунов на средние дистанции //Теория и практика физ. культуры. - М., 2000. - №5. - С. 28-30.
30. Суслов Ф.П., Холодова Ж.К. Теория и методика спорта: Учеб. пособие для училищ олимпийского резерва. - М., 1997. - 227 с.

Яхши ФАЙЗИЕВ

Бухоро давлат университети
факультетларо жисмоний маданият ва
спорт кафедраси ўқитувчи

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Мақолада мактабгача ёшдаги болаларда жисмоний сифатларни тарбиялаш хусусиятлари болалар организмининг куч, тезлик ва чидамлилик кўрсаткичлари яхшиланишини белгилайдиган функцияларининг физиологик бошқарилишини яхшилашда энг муҳим ўринни асаб тизими, айниқса, мушак зўрикишларида организмининг функциялари яхшиланишини таъминловчи алоқаларнинг шакланиши түёррисида иш олиб борган олимлар тадқиқотлари ўрганилган.

Калим сўзлар: бола, жисмоний тарбия, физиология, мактаб, функция, чидамлилик, куч, тезлик, организм.

В статье исследуется роль физических качеств дошкольников в улучшении физиологического контроля функций, определяющих силу, скорость и выносливость детского организма.

Ключевые слова: ребенок, физическое воспитание, физиология, школа, функция, выносливость, сила, скорость, организм.

The article examines the role of physical qualities in preschool children in improving the physiological control of the functions of the body, which determine the improvement of children's strength, speed and endurance.

Key words: child, physical education, physiology, school, function, endurance, strength, speed, organism.

Кириш. Болага түғилганидаёқ, унинг қонига алоҳида ривожланишнинг ирсий дастурлари томонидан жойлаштирилган жисмоний имкониятларнинг тегишли йифиндиси ато этилган бўлади. Органлар, организм тузилмаларининг биологик етилиши давомида шахсий имкониятлар ривожланиб, инсоннинг ҳар хил жисмоний хусусиятларини белгилайди.

Е.А Пимонова (1990), Л.В Карманова ва бошқалар (1992) берган маълумотларга кўра, сўнгги 20 йил мобайнида болаларнинг жисмоний ривожланишида қайд этилган умумий ижобий йўналишлар (гавданинг барча ўлчамлари катталашуви) фонида уларнинг ҳаракат тайёргарлигига сезиларсиз ўсиш кузатилади, бир қатор кўрсаткичлар эса (тезкорлик, тезлик-куч, имкониятлари) анча пасаяди.

Шунга қарамай, мутахассислар, жисмоний сифатларни мақсадли тарбиялаш айнан мактабгача даврда бошланиши керак, деб ҳисоблайдилар (Вавилова Е.Н., 1974,1980; Кистяковская М.Ю., 1980; Волков А.В., 1981; Вильчковский Э.С., 1983).

Асосий қисм. Болалар ва ўсмирлар ҳаракат фаоллиги сифат жиҳатларини ривожлантиришнинг физиологик омиллари мушаклар ҳамда вегетатив органлар фаолиятининг бошқарилишини такомиллаштиришда намоён бўлади. Қиска муддатли, тезкорлик ва куч ҳаракатларида асаб-мушак тизими фаолияти бошқарувини яхшилашга кўпроқ аҳамият берилади. Бирмунча узок муддатли фаолиятда ҳаракат функцияларини такомиллаштириш билан бирга вегетатив функцияларни мувофиқлаштириш ҳам жиддий аҳамият касб этади. Бироқ болалар ва ўсмирлар организмининг куч, тезлик ва чидамлилик кўрсаткичлари яхшиланишини белгилайдиган функцияларининг физиологик бошқарилишини яхшилашда энг муҳим ўринни асаб тизими, айниқса, мушак зўрикишларида организмнинг функциялари яхшиланишини таъминловчи алоқаларнинг шакланиши эгаллади.

Шундай қилиб, болалик даврида куч, тезлик ва чидамлиликнинг ўзаро алоқадорлигига оид турли-туман шаклларни белгиловчи физиологик механизмлар ҳам хилма-хилдир. Шартли-рефлектор омиллар муҳим аҳамиятга эга. Машғулотлар давомида бирор йўналишдаги куч, тезлик ёки чидамлиликни ривожлантирувчи ҳаракатлар учун марказий асаб тизимида мушаклар ҳамда вегетатив органлар ишини дастурлаштиришнинг маълум шакллари юзага келади.

Боланинг асосий жисмоний сифатларини ривожлантиришнинг ёш динамикаси В.С.Фарфель (1957, 1959), Ф.Г.Казарян (1969), Л.В.Карманова (1971), Н.А.Фомин, В.П.Филин (1980) ва бошқаларнинг ишларида очиб берилган.

Олимлар фикрича, бола хаётининг олтинчи йили кучни (Г.М.Касаткина, 1982; В.Н.Новохатько, 1982), жумладан, тезлик-куч қобилиятлари ҳамда ҳаракатлар тезкорлигини (Н.А.Ноткина, 1980; М.Н.Королева, 1985) тарбиялашнинг сенситив даври ҳисобланади.

Олти ёшда мазкур сифатларни шиддат билан ривожлантириш қобилияти сакланиб қолади ва умумий чидамлиликни тарбиялаш имкониятлари пайдо бўлади (Н.В.Зимкин, 1956; В.Г.Фролов, 1977; Г.П.Юрко, А.В.Яшченко, В.В.Белоярцева, 1976; Н.А.Ноткина, 1980 ва б.).

Т.Ю.Логвиннинг (1991) фикрича, 5-6 ёшли болаларда куч, чидамлилик, эгилувчанлик, маконда мўлжал олиш каби сифатлар энг кучли намоён бўлади, асосан, ўғил болаларда ушбу кўрсаткичлар қизларга нисбатан юкорироқ.

Етти ёшда мунтазам машғулотларда ҳаракатлар мувофиқлиги етакчи сифат бўлиб қолади (А.И.Козлов, 1964; Л.И.Пензуллаева, 1972; Г.М.Касаткина, 1982). Шунингдек, турли мувофиқлаш (координация) қобилиятларининг энг жадал ривожланиш даври 4-5 ёшлар ораси эканлиги тўғрисида маълумотлар бор (Т.И.Осокина, 1983; 1986; Л.Т.Майорова, 1988; В.М.Зуев, 1982 ва б.)

Бунда ҳаракатларни такрорлаш, табақалаштириш (дифференциациялаш) ҳамда уларнинг ўлчамаларини олиш қобилиятларининг кўрсаткичлари бўйича ўғил ва қиз болалар орасидаги жинсий тафовутлар аҳамиятсиз, яъни жиддий эмас. Бошқа кўрсаткичлар (вакт танқислиги шароитида ҳаракат фаолиятини тез ўзгартириш максадида мўлжал олиш қобилиятлари) бўйича етти ёшли ўғил болалар шу ёшдаги қизлардан ўзиб кета бошлайди. Бироқ ҳаракатларни мувофиқлаш қобилиятларининг кўпгина кўрсаткичлари бўйича ўғил болаларнинг якқол устунлиги фақат 13-14 ёшларга келиб кўзга ташланади.

В.М.Зуев (1992) тадқиқотларида қўлга киритган маълумотлар муаллифга мактабгача бўлган давр турли жинсли болаларда асосий ўлчамлари бўйича ҳаракатлар аниқлигининг нотекис ва ҳар хил муддатли ривожланиши билан тавсифланиши ҳақида хулоса чиқариш имконини беради. Тажриба қизларнинг беш ва олти ёшларда, ўғил болаларнинг эса етти ёшга келиб маконий аниқликка оид топшириқларни бажаришда устунроқ эканлигини кўрсатди. Беш ва олти ёшга ўтган ўғил болаларда ҳаракатнинг вакт ўлчамини такрорлаш аниқлиги қиз болаларнига нисбатан юкорироқ, етти ёшли ўғил болалар эса тенгдош қизларга нисбатан топшириқни ёмонроқ уddeладилар.

Қизларнинг барча ёш гурухларида ҳаракатнинг динамик хусусиятини такрорлаш аниқлиги ўғил болалардагига караганда юкорироқ.

Мактабгача бўлган даврда жисмоний сифатларнинг ривожланиш динамикасига хос жинсий тафовутларни қайд этар эканлар, олимлар мазкур тафовутларнинг катталиклари ҳамда ишончлилиги хусусидаги саволга узил-кесил жавоб бермайдилар.

Айрим тадқиқотчилар асосий ҳаракат сифатларининг ривожланиш даражаси бобида ўғил болаларнинг қизларга нисбатан устунлиги ҳақида фикр юритиб, болаларга жисмоний тарбия жараёнида табақалаштириб ёндашиб зарурлигини таъкидлайдилар (Ц.В.Какабадзе, 1971; З.И.Кузнецова, ва б., 1974; А.Е.Любомирский, 1979) бошқалари етти ёшгача ўғил болалар ва қизларнинг жисмоний сифатлари ривожланиш даражасидаги фарқ у қадар жиддий эмас, уни жисмоний тарбия воситаларини танлашда эътиборга олиш шарт эмас, деб хисоблайдилар ва мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тарбиясига уларнинг жинсидан келиб чиқиб турлича ёндашиб максадга мувофиқлигини кўрсатадилар (М.Н.Королева, 1985; Э.С.Вильчковский, 1989).

Кўпгина муаллифлар мактабгача ёшдаги болаларда алоҳида ҳаракат сифатларининг намоён бўлиш даражасида муайян ритм мавжудлигини аниқлаганлар. Ҳаракатларнинг энг юқори даражадаги мувофиқлиги кундуз куни кузатилган. Мушакларнинг ишчанлик қобилияти баҳорда орта бориб июнда максимал қийматгача етади, айни вақтда жисмоний ривожланиш суръатлари ҳам тезлашади (К.В.Смирнов, 1980). Олимлар ноқурай иқлим шароитлари болаларнинг жисмоний сифатлари ривожланишига салбий тасир кўрсатишни қайд этадилар (Г.В.Сендек, 1972). Катта мактабгача ёшдаги болаларнинг алоҳида ҳаракат қобилиятлари ривожига сенситив даврларни эътиборга олган ҳолда акцентли таъсири кўрсатишнинг улкан имкониятлари тажриба ёрдамида тасдиқланган (Г.В.Шалигина, 1977; В.Г.Фролов, 1977; Г.М.Касаткина, 1982; М.Н.Королева, 1985; В.Г.Бакашвили, 1986; Л.Т.Майорова, 1988; В.М.Зуев, 1992 ва б.). Бу қобилиятлар шу ёш учун етакчи жисмоний сифатларни ривожлантиришга каратилган бўлиб, улар факат даражани кўтаришгагина имкон бермай, бошқаларининг тўлақонли, ҳар томонлама шаклланишини таъминлайди (Н.А.Ноткина, 1980).

Катта мактабгача ёшдаги болаларда чидамлиликни тарбиялашда жисмоний юкламаларнинг тузилишини татбиқ этар экан, И.Г.Мальцева (1988) олти ёшда бир томондан чидамлилик билан жисмоний ишчанлик қобилияти орасида, иккинчи томондан, тезкорлик, тезлик-куч сифатлари ва чаққонлик орасида алоқадорлик ҳамда ўзаро бир-бирини тақозо этиш муносабатлари мавжуд эканлигини, улар кўп ҳолларда жуда аҳамиятли эканлигини аниқлади. Буни, эҳтимол, алоҳида ҳаракат қобилиятларининг ривожланиш жараёнидаги ўзаро алоқадорлиги асосида ётувчи турли машқлар ва ҳаракатларни бажариш вақтида рўй берадиган инсон организмидаги ўзгаришлар умумийлиги билан

тушунтириш мумкиндири (В.С.Фарфель, 1957; Б.В.Сермеев, 1973; В.М.Зациорский, 1976; Б.В.Сермеев, В.Р.Николаев, 1979; В.С.Переверзев, 1985 ва х.к.).

Етти ёшга келиб, жисмоний қобилиятларнинг ривожланишида миқдорнинг ва алоқадорлик даражасининг камайишига мойиллик кузатилади (И.Г.Мальцева, 1988). В.К.Бальсевич (1988), М.А.Годик (1988) куч, тезкорлик, чидамлилик, чаққонликни фаол ривожлантиришни бу даврда жисмоний тарбия жараёнидаги энг муҳим мақсадлардан бири деб хисоблайдилар, чунки мазкур ёш даврида болалар энди мураккаб ҳаракат фаолиятларини бажара оладилар.

Муҳокамалар ва натижалар. Асосий ҳаракат турлари бўйича кўнікмаларнинг шаклланиш тезлиги ва мустаҳкамлиги, энг аввало, жисмоний сифатларнинг ривожланиш даражасига боғлиқдир (А.И.Бикова, 1941; Е.Г.Леви-Гариневская, 1960; Э.С.Вильчковский, 1989; С.Я.Лайзене, 1987; И.И.Сергееня, 1973; Ю.Ю.Рауцкис, 1976 ва б.). Шунингдек, жисмоний тарбия билан шугулланмайдиган мактабгача ёшдаги болаларда ҳаракат сифатлари кўрсаткичларига ирсий таъсиrotлар ўлчами худди тананинг барча ўлчамлари катталикларига (узунлиги ва оғирлиги) бўлгани каби юкори даражададир. Мунтазам равишда жисмоний машқлар билан шугулланиб турувчи болалар орасида ўша дастур асосида ўтказилган тадқиқот ҳаракат сифатларининг намоён бўлишига ирсий таъсиrotлар даражасининг пастлигини кўрсатди.

Мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тарбияси бўйича турли адабиётларда болаларнинг жисмоний ва ҳаракат тайёргарлиги жараёни мазмуни бир хил талқин этилмайди.

Масалан, Т.И.Осокинанинг дарслкларида ҳаракат фаолиятларини шакллантириш билан бирга жисмоний сифатлар: чаққонлик (шу жумладан, ҳаракатларни мувофиқлаш қобилиятлари), умумий чидамлилик, тезлик-куч сифатлари, шунингдек, мувозанат сақлаш қобилиятини ривожлантириш зарурияти қайд этилади. А.В.Кенеман ва Д.Б.Хухлаеванинг ўкув қўлланмасида куч, чидамлилик, эгилувчанлик, чаққонлик, тезкорлик каби жисмоний сифатларни мувозанатни сақлаш қобилиятини алоҳида ажратган ҳолда ривожлантириш зарурати хусусида сўз боради.

Шуни қайд қилиш керакки, амалиётчи ходим учун муайян усулий тавсиялар, тадқиқотларда ўрнатилган мактабгача ёшдаги болаларнинг асосий ҳаракатлари шаклланиши ҳамда жисмоний сифатларининг ривожланишига оид ёш хусусиятларига асосланган етарли миқдордаги илмий-усулий адабиётлар ва дастурлар мавжуд эмас. Шунга кўра, бизнингча, жисмоний тарбиянинг асосий тамойилларидан бири – жисмоний тарбия йўналишларининг ёшга адекватлиги тамоили – мазкур жараённинг устувор йўналишини унинг турли босқичларида инсоннинг ёшга мувофиқ ривожланиш тенденцияларига мос равишида ўзгартирishiغا мажбур қиласидаги тарбияни ошмайди.

А.Н.Ливицкий, Х.А.Мелиев ва бошқалар фикрига кўра, мактабгача таълим муассасаларидағи ўқитиши ва тарбияга оид мавжуд дастурлар таҳлили болалар билан кун тартибида ўтказиладиган жисмоний тадбирларнинг бош вазифаси асосий ҳаракатларнинг шаклланиши эканлигидан далолат беради. Мазкур мақсадни рўёбга чиқариш учун уларда, одатда, жисмоний машқлар ва ҳаракатли ўйинлардан иборат бўлган кенг қамровли ўкув материали тақдим этилган.

Айни вақтда мактабгача таълим муассасасидаги жисмоний тарбия вазифаларида кичик ёшлардан бошлаб жисмоний сифатларни мақсадли йўналтириш зарурати тўғрисидаги мулоҳазаларнинг йўқлиги эътиборни тортади. Фақат тайёрлов гурухи учун дастурда чаққонлик, тезкорлик, чидамлилик ва кучни такомиллаштиришнинг мақсадга мувофиқлиги ҳақидаги муайян эслатма пайдо бўлади.

Хулоса. Мутахассисларнинг таъкидлашича, мактабгача ёшда саралашнинг прогностик шакли муайян мураккабликларни юзага келтиради. Беш-етти ёшли болаларда ҳаракат сифатлари даражасини бевосита тестлаш ноаниқ натижа беради, чунки бу натижа мазкур сифатнинг мавжуд имкониятлари билан боғлиқми ёки унинг ёшга боғлиқ ҳолда шаклланиш суръатлари – тезлашган ёхуд секинлашган суръатига хос хусусиятларгами, аниқ эмас (Никитюк Б.А.ва б., 1975).

Адабиётларда мактабгача ёшдаги болаларда мактабгача таълим муассасаси шароитида ҳаракат сифатларини мажмуали ривожлантириш бўйича етарли миқдордаги тадқиқотлар мавжуд эмас.

Адабиётлар

1. Андерсон В.А. и др. Физическое воспитание детей дошкольного возраста: Кн. для воспитателя детского сада: Из опыта работы / Сост. Ю.Ф. Луури.- М: "Просвещение", 1991.- 63 с
2. Антропова М.В. Физическое развитие, работоспособность и успеваемость учащихся восьмилетней школы // Физическая культура и здоровье детей и х. подростков. - М., 1966. - С.69-74.
3. Аршавский И.А. Физиологические механизмы и закономерности индивидуального развития. - М.: "Наука", 1982. - С. 42-168.
4. Асеев В.Г. Возрастная психология: Учебное пособие – Иркутск, 1989. – С.62-89

“PEDAGOGIK MAHORAT” ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL 2021, Maxsus son

5. Бакашвили В.Г. К вопросу о физическом воспитании детей дошкольного возраста в семье // Научно-практические аспекты физической культуры и спорта: Сб. науч. тр. - Тбилиси, 1986. - С. 57-61.
6. Баландин В.А., Чернышенко Ю.К. Возрастные особенности динамики показателей физического развития, физической подготовленности и психических процессов детей 5-10 лет в период подготовки и адаптации к обучению в школе //Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 2001. - №3. - С. 24-29.
7. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и каждого. - ФиС, 1988.
8. Бальсевич В. К. Физическое воспитание ребенка в семье //Физическая культура. - 1997. - №3. - С.50.
9. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. - М.: “Теория и практика физической культуры”, 2000. - 275 с

Muazzam FATULLAYEVA

Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrasи o‘qituvchisi

Alisher USMONOV

Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy
madaniyat va sport
kafedrasи o‘qituvchisi

Marjona ZUBAYDULLAYEVA

Buxoro davlat universiteti
2-bosqich talabasi

VOLEYBOLCHILARDA SAKROVCHANLIK SIFATINI BAHOLASH TEKNOLOGIYASI VA UNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Maqolada 19-21 yoshli voleybolchilarning sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: sakrovchanlik, sakrash chidamkorligi, sakrash texnikasi, joydan vertikal sakrash, musobaqa sikllari, sakrash mashqlari, sakrash koordinatsiyasi.

В статье научно обоснована методика развития прыгучести у волейболистов 19-21 года.

Ключевые слова: прыжки, прыжковая выносливость, техника прыжков, вертикальные прыжки с места, соревновательные циклы, упражнения на прыжки, координация прыжков.

In the article, the methodology for the development of saccharification abilities of 19-21-year-old volleyball players is scientifically based.

Key words: jumping, jumping endurance, jumping technique, vertical jump from place to place, competition cycles, jumping exercise, jumping coordination.

Kirish. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi O‘RQ 637-ton Qonunini, 2000-yil 26-maydagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g’risida”gi 76-II-ton Qonunini, 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3031-ton, 2018-yil 5-martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5368-tonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-tonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi 735-tonli “Aholining sog’lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarorlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga oid chiqqan hukumat qarorlarida belgilangan vazifalar, barcha ta’lim muassasalarida bugungi kunda eng dolzarb masala, ya’ni aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport harakatini kuchaytirish, uning ommaviyligini oshirish, shu jumladan, barcha ta’lim tizimidagi yosh avlodni jismoniy baquvvat, chaqqon, irodali, Vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarini yangi usul va vositalar orqali tashkil qilish va o’tkazish, ko‘proq o‘quvchi-yoshlarni sport mashg’ulotlariga ommaviy ravishda uzlusiz jalb qilishga va rivojlantirishga qaratilgan hamda ommaviy-sport tadbirlarini tashkil qilishga yo‘naltirilgan.

Asosiy qism. Ko‘p sonli voleybol mashg’ulotlarini vizual kuzatish, voleybolga o‘rgatish va voleybolchilar tayyorlash jarayonlarini tahlil qilish natijasida shu narsa ko‘zga tashlandiki, sakrab ijro etiladigan o‘yin usullarini shakllantirishga doir mashqlarni qo‘llashda shu usullarga muvofiq sakrash turininig kinematik va koordinatsion elementlari hamda fazalariga jiddiy e’tibor qaratilmas ekan. Shunday tasavvur yuzaga keladiki, sakrash, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi tushunchalari go‘yo sakrab ijro etiladigan o‘yin usullari texnikasiga qarab ixtisoslashmaydi, aksincha, ushbu tushunchalarga bir xil ma’no-mazmun va koordinatsion xususiyatlar bilan qaraladi. Sakrash turlariga o‘rgatish va ularni shakllantirish aynan shu prinsip asosida amalga oshiriladi. Vaholanki, sakrab ijro etiladigan o‘yin usullariga o‘rgatishda, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda joydan yoki yugurib kelib sakrashga tayyorlanish, qo‘llarni yoysimon yo‘nalishda (orqa-pastdan yuqoriga) faol harakatlantirish va inersion kuchni vujudga keltirish, debsinish, havoda (tayanchsiz holatda) zarur koordinatsiya - texnikani saqlash, muvofiq o‘yin usulini ijro etish, yerga qo‘nish va muvozanatni saqlash kabi kinematik faza - elementlarga alohida e’tibor qaratish o‘ta muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bir qator blok-andozalardan foydalanish ijobiy natija berishi tahmin qilinadi.

Turli zonalardan turib yoki kerak zonaga tezkor harakatlanib zarba berish, to‘siq qo‘yish, to‘p uzatish, shu jumladan, to‘p uzatishda qo‘llaniladigan to‘liq (maksimal balandlikda) sakrashlar texnikasi, koordinatsiyasi va kinematik elementlari bir-biridan tamomila farq qiladi. Shunday ekan turli zonalardan sakrab ijro etiladigan o‘yin usullariga o‘rgatish va ularni takomillashtirishda qo‘llaniladigan mashqlar muayyan raqib jamoa yoki raqib o‘yinchining qarshilik ko‘rsatish taktikasiga asosan modellashtirilgan bo‘lmog’i lozim. Bu borada o‘rgatiladigan sakrash turining kinematik elementlari, fazalari, biomexanik

qonuniyatlari va uni ijro etish texnikasiga urg'u berish muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, sakrash turlariga o'rgatishda uni ijro etish texnikasiga, hatto, taktikasiga ham jiddiy e'tibor qaratish darkor.

Voleybol to'garaklari, voleybol klublari va terma jamoalarga muvofiq nomzodlarni tanlov asosida qabul qilishda hamda o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini o'tkazish davomida mutaxassis-trenerlar sakrash qobiliyati, sakrovchanlik va sakrash chidamliligi kabi jismoniy sifatlarga alohida e'tibor qaratishadi. Lekin barcha trenerlar ham ushbu qobiliyat va sifatlarni rivojlantirishda doimo samarali mashqlardan foydalana bermaydi va ularni shakllanish (o'sish) dinamikasini muvofiq testlar yordamida baholab berishni jiddiy masala sifatida qabul qilinmaydi. Vaholanki, sakrash ko'nikmalariga o'rgatish, sakrovchanlik va sakrash chidamliligini rivojlantirishda maqsadli mashqlarni tanlash, ushbu sifatlarni rivojlanish dinamikasini muntazam nazorat qilib borish (baholab borish) mazkur jarayonni samarali tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

Ana shu dolzarb muammolarni e'tiborga olgan holda biz turli yosh va sport tayyorgarligiga ega voleybolchilar ustida bir qator tadqiqotlar uyushtirdik.

Tadqiqotda voleybolga ixtisoslashtirilgan BuxDUDA 2 yil davomida shug'ullanib kelayotgan 19-21 yoshli bolalar ishtirok etdi.

Maxsus asbob-moslama yordamida joydan vertikal sakrashning quyidagi kinematik elementlari o'rGANildi:

- ikki qo'lning faol harakati asosida sakrash balandligi (klassik variant);
- faqat o'ng qo'lning faol harakati asosida sakrash balandligi (chap qo'l tanaga bog'lanadi);
- faqat chap qo'lning faol harakati asosida sakrash balandligi (o'ng qo'l tanaga bog'lanadi);
- ikki qo'lning faol harakatisiz sakrash balandligi (ikkala qo'l tanaga bog'lanadi);
- faqat o'ng oyoq bilan debsinish asosida sakrash balandligi;
- faqat chap oyoq bilan debsinish asosida sakrash balandligi.

Modifikatsiyalashtirilgan testlar yordamida esa o'ng va chap oyoqda maksimal marta tezkor o'tirib-turish (o'ng va chap oyoqning portlovchi kuchi) soni aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, klassik variantli joydan vertikal sakrash balandligi sakrovchanlikni ta'minlovchi bir qator kinematik elementlarini simmetrik ijro etilishi, o'ng va chap oyoq kuchining (portlovchi kuchi) bir xil darajada rivojlanganligi, debsinish - sakrash vaqtida o'ng va chap qo'lning sinxron ravishda faol harakatlanishiga (ularning inersion harakatiga) uzviy bog'liq ekan. Jumladan, platformada turib, joydan vertikal sakrash balandligi oyoq-gavda-boshni oldinga egish, orqada qoldirilgan qo'llarni oldinga-yuqoriga bir xil tezlikda siltab harakatlantirish, oyoqlarni optimal burchakda bukish va nihoyat oyoqlarning portlovchi kuchiga asoslanishi aniqlandi. Ana shu kinematik omillarning tadqiqot ishtirokchilarida turlicha "kuchga" ega bo'lganligi, ularda sakrash balandligining katta diapazonda (22 sm.) qayd etilishiga olib keldi (1-jadval). Kinematik omillar (sakrash elementlarining funksional harakati) eng zaif shakllangan tekshiriluvchida sakrash balandligi 31 sm, nisbatan "kuchli" shakllangan tekshiriluvchi esa 53 sm bilan ifodalandi. O'rtacha statistik ko'rsatkich (\bar{x}) 43,6 sm ni tashkil etdi. Minimal va maksimal ko'rsatkichlar farqi (diapazoni) katta bo'lgani sababli o'rtacha ko'rsatkichning o'rtacha kvadratik og'ishmasi (σ) ham katta miqdor bilan farqlandi (4,32).

1-jadval. 19-21 yoshli voleybolchilarda joydan vertikal sakrash balandligi va uni ta'minlovchi ayrim kinematik omillarining rolini ifodalovchi ko'rsatkichlar (n=16)

| Vertikal sakrash shartlari | Olingan natijalar | |
|--|-------------------|----------------------|
| | min – max | $\bar{x} \pm \sigma$ |
| Platformada joydan vertikal sakrash (sm) | 31 – 53 | 43,6±4,32 |
| Faqat o'ng qo'lning faol harakati asosida sakrash (sm) | 28 – 47 | 38,2±3,28 |
| Faqat chap qo'lning faol harakati asosida sakrash (sm) | 25 – 46 | 38,2±3,28 |
| Ikki qo'lning faol harakatisiz sakrash (sm) | 25 – 46 | 18,2±3,16 |
| Faqat o'ng oyoqda debsinib sakrash (sm) | 27 – 39 | 32,8±3,74 |
| Faqat chap oyoqda debsinib sakrash (sm) | 29 – 43 | 37,2±3,22 |

Faqat o'ng qo'lning faol harakati (inersion harakati) asosida joydan vertikal sakrash balandligi bo'yicha qayd etilgan min ko'rsatkich 28 sm, max ko'rsatkich 47 smni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar oralig'i (diapozoni) 19 sm ga teng bo'ldi. O'rtacha statistik ko'rsatkich 38,2±3,28 sm. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy tartibda aniqlangan joydan vertikal sakrash balandligi 43,6±4,32 sm ga teng bo'lgan bo'lsa, chap qo'l tanaga bog'langan holda faqat o'ng qo'lning faol harakati asosida qayd etilgan vertikal sakrash balandligi 38,2±3,28 sm ni tashkil etdi. Demak, sakrash balandligi birgina kinematik omilni "yo'q" qilinishi bilan 5,2 sm ga kamayib ketdi.

Faqat chap qo'lning faol harakati asosida joydan vertikal sakrash balandligi (o'ng qo'l tanaga bog'langan) 35,4±4,02 sm ga teng bo'ldi. An'anaviy tartibda sakrash balandligidan 12,2 sm ga kam miqdor bilan ifodalandi.

Faqat o'ng qo'lning faol harakati asosida qayd etilgan sakrash balandligi chap qo'l faol harakati bilan bajarilgan sakrash balandligidan 3 sm ga ortiq bo'ldi. Demak, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, sakrash uchun debsinish vaqtida bajariladigan qo'llarning faol harakatida asimmetrik farq individual ko'rsatkichlarning minimal va maksimal natijalari o'rtasidagi oraliq diapozonlari bilan ham tasdiqlandi.

Chunonchi, o'ng qo'lning faol harakati asosida kuzatilgan sakrash balandligining min va max ko'rsatkichlari o'rtasidagi diapozon 19 sm ga, chap qo'l harakati bilan sakrash ko'rsatkichlari diapozoni 21 sm ni tashkil etdi.

Ushbu test natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan tekshiriluvchi-voleybolchilarda qo'llarni bog'lagan holda sakrash balandligining minimal (14 sm) va maksimal (25 sm) ko'rsatkichlari katta diapozon (11 sm) bilan farqlanadi. Ehtimol qilish mumkinki, bunday katta diapozonli farq tadqiqotda ishtirok etgan voleybolchilarda oyoq mushaklari turlicha portlovchi kuchga ega ekanligi bilan asoslanadi.

Qo'llar bog'liq holda sakrash balandligining o'rtacha ko'rsatkichi 18,2 sm ga teng bo'ldi. Demak, qo'llar yordamisiz sakrash balandligi an'anaviy tartibda sakrash balandligidan (43,6 sm) 25,4 sm kam miqdor bilan farqlandi.

Qo'llar yordamida, lekin o'ng oyoqda alohida, chap oyoqda alohida debsinib sakrash testlari bo'yicha olingan natijalar oyoqlarning portlovchi kuchi assimetrik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan o'ng oyoqda debsinib sakrash balandligi o'rtacha $32,8 \pm 3,74$ sm ni tashkil etgan bo'lsa, chap oyoqda debsinib sakrash $37,2 \pm 3,22$ sm ga teng bo'ldi. Ko'rinish turibdiki, joydan vertikal sakrashda oyoqlar sinxron bukilib-yozilgan bo'lsada, chap oyoqning portlovchi kuchi o'ng oyoqniga qaraganda kuchliroq ekan. Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, o'ng va chap oyoqning portlovchi kuchi simmetrik nisbatda yaxshi rivojlangan bo'lganda edi, vertikal sakrash balandligi 43,6 sm emas, balki undanda yuqori bo'lishi aniq edi.

Muhokamalar va natijalar. Qayd etilgan ko'rsatkichlar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, sakrash vaqtida qo'llarning faol harakati (inversion harakati), oyoqlarning portlovchi kuchi simmetrik tartibda shakllanishi ta'minlansa, joydan vertikal sakrash ham, yugurib kelib sakrash ham ancha baland ko'rsatkichlar bilan ifodalangan bo'lur edi.

Oyoqlarning portlovchi kuchi assimetrik nisbatda rivojlanganligi o'ng va chap oyoqda alohida maksimal tezlikda hamda maksimal marta o'tirib-turish testlari natijalari bilan ham tasdiqlandi (5-jadval). Chunonchi, o'ng oyoqda o'tirib-turish testining minimal ko'rsatkichi 3 marta, maksimal ko'rsatkichi 16 martani tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar diapozoni 13 martaga teng bo'ldi. O'rtacha statistik ko'rsatkich esa $6,5 \pm 2,4$ marta bilan ifodalandi.

Chap oyoqda maksimal tezlikda va maksimal marta o'tirib-turish soni esa 5-15 marta, ko'rsatkichlar diapozoni 10 martani tashkil etdi. O'rtacha statistik ko'rsatkich $8,8 \pm 2,9$ martaga teng bo'ldi. Demak, chap oyoqning portlovchi kuchi o'ng oyoqniga qaraganda yuksakroq ekan. Ushbu testlar natijalaridan ham portlovchi kuch assimetriyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi voleybolda sakrash chidamkorligi o'yin samaradorligini ta'minlovchi o'ta muhim omillardan biridir. Tadqiqot obyeti bo'lmish 19-21 yoshli voleybolchilarda sakrash chidamkorligi "yuqoriga ko'tarilgan qo'lidan 25 sm balandda osilgan to'ldirma to'pga maksimal "marta sakrab qo'l tekizish testi" orqali o'rganildi (2-jadvalga qarang).

Olingan individual natijalarning minimal ko'rsatkichi 4 marta, maksimal ko'rsatkichi esa 11 martani tashkil etdi. Ko'rsatkichlar farqi 7 martaga teng bo'ldi. O'rtacha statistik ko'rsatkich $6,7 \pm 1,04$ marta bilan ifodalandi. Shubha yo'qki, agar bir o'yin davomida faqat hujum zarbalarini ijro etish uchun 242-394 martagacha, to'siq qo'yish uchun 244-441 martagacha sakrash harakatlari talab qilinadigan bo'lsa, mazkur tadqiqot davomida qayd etilgan sakrash chidamkorligi (6,7 marta) nihoyatda past rivojlangan deb xulosa qilish mumkin. Demak, tekshiriluvchi voleybolchilar qayd etilgan sakrash hajmidan ham ko'p sakrashlari mumkin, lekin sakrash balandligi 25 sm dan kam bo'ladi. Bunday balandlikda sakrash hujum zarbalarini ham samarali ijro etish imkoniyatini bermaydi.

2-jadval. 19-21 yoshli voleybolchilarda o'ng va chap oyoq portlovchi kuchi va sakrash chidamkorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar (n=16)

| Test mashqlari | min – max | $\bar{x} \pm 6$ |
|---|-----------|-----------------|
| O'ng oyoqda maksimal tezlikda va maksimal marta o'tirib-turish (marta) | 3 – 16 | $6,5 \pm 2,4$ |
| Chap oyoqda masimal tezlikda va maksimal marta o'tirib-turish (marta) | 5 – 15 | $8,8 \pm 2,9$ |
| Yuqoriga ko'tarilgan qo'lidan 25 sm balandda osilgan to'pga maksimal marta sakrab qo'l tekizish (marta) | 4 – 11 | $6,7 \pm 1,04$ |

Xulosa. 1. Turli yosh va tayyorgarlikka mansub voleybolchilar mashg'ulotlarini vizual usulda tahlil qilish natijisida shu narsa aniqlandiki, bugungi voleybolda ustivor ahamiyatga loyiq sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda sakrash texnikasi, koordinatsiyasi va sakrash balandligini ta'minlovchi qator muvofiqlashgan holda ijro etilishiga jiddiy e'tibor qaratilmas ekan.

2. 2020-yilda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligining rivojlanish dinamikasini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shundan darak beradi. Ushbu sifatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi 19-21 yoshli voleybolchilarda o'ta sust o'sganligi bilan farqlangan bo'lib, (sakrovchanlik 2sm ga, sakrash chidamkorligi 3,32 martaga), dastur bo'yicha belgilangan me'yoriy talablar darajasiga yetmaganligi aniqlandi.

3. Sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini ta'minlovchi, shu bilan bir qatorda, sakrab ijro etiladigan o'yin usuliga mos sakrash texnikasining tarkibini belgilovchi asosiy kinematik elementlari birligi hamda uning integratsion funksiyasiga rioya qilinmasligini isbotlab berdi. Aynan ana shu holat sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini voleybochilar imkoniyatidan past darajada ijro etishga olib keladi – deb xulosa qilishga imkon beradi.

4. Voleybolchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini maqsadli hamda samarali rivojlantirishi uchun birinchi navbatda sakrab ijro etiladigan o'yin usuliga mos sakrash texnikasiga o'rgatish, uni lokal va integrallashtiruvchi maxsus mashqlar yordamida takomillashtirish darkor. Mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil qilishda biz shu bobda keltirilgan 1, 2 va 3 blok-andozalardan foydalanishni taklif qilamiz. Bundan tashqari voleybolga o'rgatish, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirish jarayoniga "sakrash texnikasi va taktikasini", "sakrash texnikasi va taktikasini ta'minlovchi kinematik elementlar" tushunchalarini kiritish maqsadga muvofiq deb o'yaymiz.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги Қонуни (янги таҳрири). -Тошкент, 26 май 2020 йил.
2. Мирзиёев Ш.М."Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5924-сон Фармон. 24.01.2020.
3. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. -Toshkent, 2011-yil.
4. Mahmudov M.K., Narzullayev F.A. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Voleybol). - Buxoro. "Durdon" nashriyoti, 2019-yil. 65-67 betlar.
5. М.А.Фатулаева, Ф.А.Нарзуллаев "15-17 ёшли волейболчиларнинг шахсларaro муносабат жараёнлари ва психологик тайёргарлик хусусиятлари. Ҳозирги тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: муаммолар ва ечимлар. Халқаро онлайн илмий амалий анжуман. –Бухоро, 2020-йил 6-май. 614-617 бетлар.
6. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.
7. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
8. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.
9. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
10. Сабирова Н.Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
11. Akmalovich D. B. et al. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 466-469.
12. Nematovich K. S. The possibilities of physical culture in the modern youth internet community //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 177-180.
13. Murodov J. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳатлар кўлами //Архив научных исследований. – 2020. – №. 29.
14. Juraevich M. J. Actual problems of teaching physical culture in schools //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 181-187.

Abdurashid NURULLAYEV

Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasи o'qituvchisi

Murodjon RO'ZIMBOYEV

Buxoro davlat universiteti
tabiiy fanlar fakulteti 1 bosqich talabasi

JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALOVCHI MILLIY HARAKATLI O'YINLAR TASNIFI VA METODIKASI

Maqolada jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi milliy harakatli o'yinlar va jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi har xil o'yin turlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, jismoniy sifat, tezkorlik kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik.

В статье рассматриваются оздоровительные направления физических нагрузок и меры по их реализации, влияние оздоровительных факторов на организм, оздоровительных факторов в процессе физического воспитания.

Ключевые слова: физическое воспитание, упражнения, движение, медицина, наука.

The article discusses the health-improving direction of physical activity and measures for their implementation, the impact of health-improving factors on the body of health-promoting factors in the process of physical education.

Key words: physical education, exercise, movement, medicine, science.

Kirish. Bolaning o'sish va rivojlanishi bilan o'yinlarning mazmuni o'zgarib boradi: o'yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy xarakterda bo'lsa, keyinchalik u boyib boradi. P. F. Lesgoft o'zining jismoniy mashqlar tizimida o'yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. U o'yin yordamida bolaning hayotiga tayyorlanishga e'tibor qaratadi. Uning harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun qo'ygan talablari bugungacha o'z qiymatini yo'qtagni yo'q. Masalan, u har bir o'yin oldiga aniq maqsadlar qo'yishi, o'tkazilayotgan o'yin qatnashchilarining kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o'yin shug'llanuvchilariga ijobji ta'sir ko'rsatishi lozimligi, ularni tizimli tarzida hamda muntazam o'tkazishi, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi.

Asosiy qism. Maktab bolalari yoshiga mos o'yinlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga ko'ra quydagи guruhlarga ajratish mumkin:

- tezkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- kuchni oshiruvchi o'yinlar;
- chaqqonlikni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- chidamlilikni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar.

Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ko'jni tashkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlar ketma-ket rivojlanishi mumkin. O'yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tarbiyasi kengayishi, katta yoshdagи odamlar turmushiga chuqurroq krib borishi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, o'yinlarning oddiydan murakkabga tomon o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan o'yinning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli amalga oshadi.

1. Tezlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

Tezlikni rivojlantirish uchun mashqlar bajarilishi maksimal sur'atda bo'lishi lozim. Signalga binoan tezlikka javob berilishini muayyan vaqt birligi ichida ko'p harakatlar bajarilishini hamda butun tana yoki uning biror qismini fazoda tezlik bilan harakat qilishini talab qiladigan o'yinlar o'quvchilarda tezkorlik sifatini rivojlantiradi. Bunda ko'proq ikki guruhning faol musobaqalashishiga olib keladigan o'yinlar o'tkazilishiga e'tibor qaratiladi. Harakatdagi obyektga nisbatan bo'lgan reaksiyani tarbiyalovchi o'yinlar bu o'rinda yaxshi natija beradi. Bunday o'yinlarga "Mushuk va sichqon", "Uchinchisi ortiqcha", "Bo'sh joy", "Kim tez o'ynaydi" kabilarni kiritish mumkin.

Masalan, "Uchinchisi ortiqcha" o'yini harakatli o'yinlardan biri hisoblanib, bolani tezkorlik, chaqqonlikka o'rgatadi. O'yinda o'quvchilar doira shaklida ikkitadan turishadi, ikki o'yinchi o'yinni boshlab berishadi biri ushlovchi ikkinchisi undan qochishi kerak bo'ladi. Agar ushlovchi ushlamasdan doira bo'ylab

qochayotgan o'yinchi juft turgan o'yinchilar oldiga borib tursa uchinchi turgan o'yinchi o'z joyini tark qilib qochadi, agarda ushlovchi o'yinchi ushlasa joylar almashadi va o'yin shu tarzda davom etadi.

2. Kuchni rivojlantiruvchi o'yinlar.

Bunda o'qituvchi kerakli mushak guruhlarining rivojlantirishga kerakli ta'sir ko'rsatadigan o'yinlarni tanlashi lozim. Kuchni rivojlantiruvchi o'yinlarda o'quvchi o'z tana og'irligini, bironqa tashqi og'irlikni yoki raqib og'irligini (qarshiligini) yengadi. Kuchni rivojlantirishda quydagi o'yinlar tafsiya etiladi: "Xo'roz - xo'roz", "Uloq", "Otdan ag'darish", "Oqsoq bo'ri va qo'ylar", "Chuqurga tushir" kabilalar. Chunonchi, "Xo'roz - xo'roz" o'yinida bolalar soni qancha ko'p bo'lsa, o'yin shuncha qiziqarli bo'ladi. Bu o'yinda asosiy o'g'il bolalar qatnashadi. Bolalar ikkiga bo'linib o'ynaydilar. Ikki tomonda guruh sardorlari saylanadi. O'qituvchi sinf o'quvchilarini ikki jamoaga bo'ladi. Ular bir-birlariga yuzma-yuz qarab turishadi. O'rtaga ikki jamoadan bittadan ishtirokchi chiqadi. Ular qo'llarini orqaga tutib bir oyoqda sakrashib, yelkalari bilan bir-birlarini itara boshlaydilar. Bunda birorta bola oldin oyog'ini yerga qo'yishi yoki orqasidagi qo'lini bo'shatib, o'ynashi mumkin emas. O'yining asosiy maqsadi, o'quvchilar kuchini sinash, chidamlilikni oshirishdan iborat.

Bu o'yinning yana boshqa ko'rinishi ham bor. Bunda ikkita o'g'il bola qatnashadi. Dastlab yerga doira shakli tiziladi. Shu doira ichida har ikkala bola ham qo'llari orqasida, bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchi oyog'ida sakrab-sakrab bir-birini yelkasi bilan turtadi, doira ichidan chiqarib ketgan yoki ko'tarilgan oyog'ini yerga qo'ygan bola yutqazgan bo'ladi. Tezkorlik va kuchli rivojlantiruvchi o'yinlar ma'lum bir vazifani hal etishda katta yordam beradi.

3. Chaqqonlikni tarbiyalovchi o'yinlar.

Aniq harakat qilish zarur bo'lgan, bajarish shartlari o'zgaruvchan milliy o'yinlarda chaqqonlik yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Shunga tayangan holda chaqqonlikni tarbiyalash uchun "Almash qadamlar", "Tiriltirishmi", "Urdi-qochdi", "Olacha tovuq", "Kim chaqqon" kabi o'yinlar tavsiya etilishi mumkin.

Misol uchun "Almash qadamlar" o'yinini ko'rib o'tish mumkin. O'yinni butun sinf ikkiga bo'linib o'ynashi mumkin. O'yinning qoidasi: bolalar uzunasiga saflanadilar, so'ngra tartib bilan chiziq ustidan qadamlarini chimak qilib (ketma-ket) qo'yib o'tadilar. O'yinning uch xilidan foydalanish mumkin:

1. Chiziq ustidan qo'llarini yon tomonga uzatgan holda;
2. Qo'llarini orqaga qilgan holda;
3. Qo'llari bilan boshining orqasini ushlagan holda.

Kim shu o'yinni chaqqon va xatosiz bajarsa, o'sha g'olib sanaladi. Chiziq ustidan yurishda harakatda kim muozanatni buzsa xato qilgan bo'ladi va o'yindan chiqadi. O'yin shu zaylda davom etadi. O'yinning dars vaqtida ham tanaffusda ham bajarish mumkin, bu o'yinning tarbiyaviy ahamiyati: jismoniy jihatdan chaqqonlikni (o'yin ma'lum bir muddatda bajarilishi, ya'ni qaysi guruh chiziqni tezda birinchi bo'lib bosib o'tishi kerakligi, bunda bolalar o'yinlarining ruhi, tabiat, xarakteri ishtirokchilarning xatti-harakatlari va hokazo kabi tamoyillariga e'tibor berishi kerakligi nazarda tutilyapdi) tarbiyalaydi, qomatni tik, to'g'ri tutishga o'rgatadi. Bu o'yinni guruhlarga bo'lib o'ynash bolada jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Bu o'yindan qadimdan ota-bobolarimiz juda ko'p foydalanishgan.

4. Chidamlilikni tarbiyalovchi o'yinlar.

Ko'pchilik milliy xalq harakatli o'yinlarida nihoyatda jadal bajariladigan mashqlar tufayli tezkorlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi. Bunday o'yinlarda jismoniy yuk (nagruzka) ham asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, maydonni kattalashtirish, maydonni kichaytirmay turib o'yinchilarning sonini kamaytirish, o'yin jihozlari sonini ko'paytirish (tayoqcha, ro'molcha, do'ppi, cho'pon, to'p va h.k) yugurish masofasini uzaytirish; to'siqlar sonini oshirish; murakkab mashg'ulotlarni qo'llash va ularning sonini ko'paytirish va h.k.

Ko'rsatilgan bu usullar izchillik bilan qo'llanilganda maqsadga tezroq erishiladi. Maskur jismoniy sifatni tarbiyalovchi o'yinlarga "Oqsoq qarg'a", "Lanka", "Podachi", kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Misol, "Oqsoq qarg'a" estafeta tarzidagi o'yin. O'yinchilarning miqdori teng bo'ladi, ikkita jamoada bir-biriga ro'para turib, saf tortadi. O'yinchilardan har biri navbat bilan o'zining oyog'i bog'ich (ro'molcha yoki tasma) bilan boldiridan sonigacha bog'laydi. Har ikkala komandaning o'yinchilari "Tayyorlan - Bajar!" buyrug'i berilishini bilan qarshi jamoaning chizig'iga qadar bir oyoqlab irg'ishlab boradilar, undan keyin esa oyoqlaridagi bog'ichni yechib olib, orqalariga qarab yuguradilar va uni o'z jamoalaridagi navbatdagi o'yinchiga beradilar. O'yin bog'ichiga keltirib beradigan so'ngi o'yinchiga qadar shu tariqa davom ettililadi. Bog'ichni birinchi bo'lib o'qituvchiga keltirib bergen jamoa g'olib bo'ladi.

5. Egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar.

Maktab o'quvchilarida egiluchanlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki yuqorida aytganimizdek, bu yoshdagi bolalarning egiluchanlik sifatining o'sishi sekinlashadi. Egiluvchanlikni tarbiyalash maqsadida ayrim mushak guruh va bo'g'inlariga ia'sir ko'rsatuvchi o'yinlar tanlab olinadi. Bu

o‘yinlar, asosan, maxsus sport jihozlari yordamida o‘tkaziladi. Og’irliklar o‘rnida shug’ullanuvchilarining o‘zлari ham qatnashishlari mumkin.

Faoл egiluchanlik mushaklarning kuchiga bog’liq. Mushaklarning cho‘ziluvchanlik jihatlari esa markaziy nerv tizimining ta’sirida o‘zgaradi. Shuning uchun bu o‘yinlarga o‘quvchilarga zavq-shavq bilan qatnashishganda egiluchanlik yuqori bo‘ladi. Egiluchanlikni talab qiladigan o‘yinlardan oldin tegishli yengil jismoniy mashg’ulotlar bajarilishi lozim.

Egiluchanlikni tarbiyalash uchun “Tizza ostida ro‘molcha”, “Tayoqni davraga uloqtirish”, “To‘siqdan sakrab o‘tish”, “Tosh o‘yin” kabi o‘yinlar tafsiya etiladi. Masalan, biz o‘quvchilar uchun qiziqarli va egiluchanlik sifatini oshiradigan “Tosh o‘yin”ni tafsiya etamiz. O‘yinda ishtirot etuvchilar doira bo‘lib turadilar, ularning har biri, bir o‘yinchidan tashqari, ko‘plariga beshtadan toshcha ushlab oladilar.

O‘yinning qoidasi: O‘quvchilarning birinchi sinoviga binoan o‘z toshlarini oldilariga tashlaydilar va doira markaziga orqa o‘girib turadilar. Ikkinci sinovga muvofiq keskin ravishda dastlabki holatga buriladilar va har bir o‘yinchi o‘z tomoni oldiga harakat qiladi. Toshni olib ulgurmagan o‘yinchi yutqazgan hisoblanadi va o‘yin boshqatdan boshlanadi. Eng yengil, chaqqon va tez harakat qiladigan o‘yinchi g’olib sanaladi. O‘yinchilarning toshni bekitishga yoki ularni bosib olishlariga ruxsat etilmaydi. O‘yinni boshlanishida sanash yo‘li bilan tosh berilmaydigan o‘quvchi aniqlaniladi. O‘yin boshlangandan keyin toshni olishga urunmaydigan va toshsiz qolgan o‘yinchi paydo bo‘ladi. O‘yin bolalarda egiluchanlik sifatini rivojlantiribgina qolmay, ularni uyushib harakat qilishiga da’vat etadi, demakki, uyushqoqlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar. Xalq milliy o‘yinlarining bolalar jinsiga qarab tasnif etishning o‘ziga xos sabablari mavjud, chunki kichik mакtab yoshidagi o‘g’il va qiz bolalar jismoniy rivojlanishida ba’zi bir farqlar kuzatiladi. O‘g’il bolalarning bo‘yi va og’irligi o‘rtacha olganda ortiqroq, ko‘krak qafasi kengroq va o‘pkaning faoliyati hajmi kattaroq bo‘ladi. O‘g’il bolalarda mustaqil kuchi yaxshiroq rivojlanadi. Unga bog’liq ravishda harakat qobiliyatları farqlanadi. O‘g’il bolalar tezroq yugurishadi, uzoqroq va balandroqqa sakrashadi. Yaqinroq uloqtirishadi, ular kuchliroq va chidamliroq bo‘lishadi. Jismoniy rivojlanishning qonuniy xususiyatlari 1- va 2-sinflardagi o‘g’il va qiz bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalarini tanlashda aks etmaydi, 3-sinfdan boshlab, o‘g’il bolaga qiz bolalarga nisbatan ko‘proq mashqlar berish mumkin. Ularga yukni ko‘tarish va bir joydan ikkinchi joyga ko‘tarish, qarshilikni yengishi, uzoqroq muddatga yugurish, sakrash balandligini oshirish, shuningdek, uloqtirishidan nishon orasidagi masofani uzoqlashtirishdan iborat. Qizlarga mayin, ritmik raqs harakatlariga asosan xalq harakatli o‘yilarini o‘g’il bolalarga qaraganda ko‘proq o‘rgatish kerak. Xalq harakatli o‘yinlarni mana shu xususiyatlarga qarab tanlash lozim. Shu jihatdan qaraganda milliy xalq harakatli o‘yinlarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganishlari mumkin:

- o‘g’il bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlar - o‘g’illar o‘yini;
- qiz bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlar - qizlar o‘yini;
- ham o‘g’il bolalar, ham qizlar o‘ynaydigan o‘yinlar - qo‘shma o‘yinlar.

O‘g’il bolalarning fiziologik va jismoniy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga “Xo‘roz-xo‘roz”, “Cho‘pon qo‘l”, “Otdan ag’darish”, “Tayoqni davraga irg’itish”, “Lanka”, “Qilichbozlar” kabi o‘yinlarni tafsiya etish mumkin.

Qiz bolalarning o‘yini nisbatan kamchilikni tashkil etadi, shunday bo‘lsada, ularga “Tosh-terish”, “Chumchuqqa”, “Doira ichida raqs” va boshqalarni kiritish mumkin.

Qo‘shma o‘yinlarga “Almash qadamlar”, “Do‘ppi kiyishda kim g’olib?”, “To‘rt tuyum”, “Yulduz”, “Kunduz – kecha”, “Olomon poyga”, “Tizza ostida ro‘molcha”, “Uloq”, “Oqsoq qarg’a”, “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Qarmoqcha”, “Podachi” kabi juda ko‘p o‘yinlarni tafsiya etish mumkin.

Xulosa. Milliy harakatli o‘yinlar tasnididan ko‘rinadiki, ko‘pchilik o‘yinlar qo‘shma o‘yinlar hisoblanadi. Shuning uchun ularni o‘g’il va qiz bolalar birgalikda bajaradilar. Kurash elementini o‘z ichiga olgan mashq bajarilayotganda, qizlar shergi - dugonalari bilan birgalikda bir muncha osonroq o‘yinlarni bajaradilar yoki o‘qituvchining topshirig’iga binoan boshqa guruhda shug’ullanadilar. Yuqoridagilarni inobatga olib, xalq harakatli o‘yinlarni mana shu xususiyatlarga qarab tanlash lozim.

Adabiyotlar

1. Абдулаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. –Тошкент, 2000 й.
2. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. –Тошкент, 2001 й.
3. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. -Тошкент, 2002 й.
4. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва ҳаракатли ўйинлар. 2005 й.

Shuhrat QURBONOV

Buxoro davlat universiteti

fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasи o‘qituvchisi**YOSH BASKETBOLCHILARNI JISMONIY TAYYORLASH VA UNING MOHIYATI**

Maqolada yosh basketbolchilarning jismoniy faoliyatini oshirib borish bosqichlari va ularda qo‘llaniladigan yuklamalar hajmi orqali yosh sportchilarni tarbiyalash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, jismoniy qobiliyat, jismoniy sifat.

В статье рассказывается о том, как тренировать юных спортсменов через этапы повышения физической активности юных баскетболистов и объемы их загрузок.

Ключевые слова: образование, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, физические способности, физические качества.

The article describes how to train young athletes through the stages of improving the physical activity of young basketball players and the scope of their downloads.

Key words: education, general physical training, special physical training, physical ability, physical quality.

Kirish. Yosh basketbolchilarni jismoniy tayyorlash sport mashg’ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog’liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funksional baza yaratishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi.

Asosiy qism. Zamонави basketbolda jismoniy tayyorgarlikka yuksak talablar qo‘yiladi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Sportdagi yutuqlarning o‘sib borishi har doim sportchidan jismoniy qobiliyatlar rivojining yangi darajasini talab qiladi;

2. Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi mashg’ulot va musobaqa yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti.

Qo‘llaniladigan vositalarining ta’sir ko‘rsatish xususiyati va yo‘nalishiga ko‘ra yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarligini umumiyl jismoniy tayyorgarlik (UJT), yordamchi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) guruhaliga bo‘lib o‘rganiladi.

Yosh basketbolchilarning umumiyl jismoniy tayyorgarligi (UJT) yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan.

1. Yosh basketbochilarning organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish.

2. Jismoniy sifatlar kuch, tezkorlik, chidamlilik, epchillik va egiluvchanlikni rivojlantirish.

3. Yosh basketbolchilarning organizmining jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarini yo‘q qilish.

Yosh basketbolchilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan funksional asosni yuzaga keltirishga mo‘ljallanadi. U maxsus yo‘nalishga ega bo‘lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1. Yosh sportchilarning tanlangan sport turiga xos harakat faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan funksional imkoniyatlarini rivojlantirish.

2. Organizmning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi qobiliyatini takomillashtirish.

3. Tiklanish jarayonlarining kechish shidatini ortirishi.

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi (MJT) tanlangan sport turi bo‘yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo‘yadigan talablarga qat’iy rioya qilingan holda jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yosh basketbolchilarni maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi.

- tanlangan sport turi uchun xos bo‘lgan jismoniy qibiliyatlarini takomillashtirish;

- tanlangan sport turi bo‘yicha muvoffaqiyatli texnik–taktik takomillashuv uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalarini chuqurlashtirib rivojlantirish;

- ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko‘proq qatnashadigan alopida mushak guruplarini tanlab rivojlantirish;

Yosh sportchilarning MJT harakat ko‘nikmalarini tizimidagi eng muhim harakat sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlari


ularning sportchi organizmiga ta’sirini kuchaytiruvchi har turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birlgilikda qo’llaniladi.

Muhokamalar va natijalar. Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan o‘xshashliklarga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog’liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to’sqinlik qiladi.

Yosh basketbolchilarning mashg’ulotlarida UJT va MJT vositalari nisbatiga qo‘yiladigan vazifalar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg’ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmnning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o‘zgartiriladi.

Sportchining malakasi oshib borar ekan, MJT vositalarining hissasi ortib, UJT vositalarining hajmi shunga muvofiq tarzda kamayib boradi.

Yosh basketbolchilarning mashg’ulotlar davomida jismoniy rivojlanganlik darajasi (1-jadval).



Bundan tashqari, yosh basketbolchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli yosh sportchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida shug’ullanuvchilar harakatlarni va ular bilan bog’liq bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, o‘z jismoniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Hozirgi paytda sportchilarning harakat imkoniyatlarini tavsiflash uchun “jismoniy qibiliyatlar” va “jismoniy sifatlar” atamasidan foydalilanadi. Bu tushunchalar ma’lum ma’noda o‘xshash bo‘lsalarda, lekin bir xil emas. Jismoniy qibiliyatlar, yosh sportchining u yoki bu mushak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini ta’minlaydigan ruhiy-fiziologik hamda morfologik xususiyatlari majmuasidir. Jismoniy tarbiya va sportda sportchilar qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlari “kuchli”, “tezkor”, “chaqqon”, “egiluvchan” degan iboralar o‘z aksini topgan.

Hozirgi vaqtida jismoniy qibiliyatlarni besh asosiy turga ajratish qabul qilingan: kuch, tezkorlik va muvofiqlash qibiliyatları, chidamkorlik va egiluvchanlik. Ularning har biri harakat faoliyatining har xil turlarida xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi.

Hozirda jismoniy qibiliyatlar rivojlanishining asosiy qonuniyatları ham mavjud.

1. Harakat - jismoniy qibiliyatlarni yetakchi omili.
2. Qobiliyatlar rivojining harakat faoliyati rejimiga bog’liqligi.
3. Jismoniy qibiliyatlar rivojlanishining bosqichliligi.
4. Qobiliyatlar rivojining notebris va geteroxronligi (turli vaqtga mansubligi).
5. Qobiliyatlar ko‘rsatgichlarining qaytariluvchanligi.
6. Jismoniy qibiliyatlarning ko‘chishi.
7. Harakat malakalari va jismoniy qibiliyatlarining o‘zaro aloqasi va birligi.

Shu tufayli, yosh basketbolchilarning u yoki bu harakat faoliyatini qay darajada o‘zlashtirib olganiga qarab tegishli jismoniy qibiliyatlarni yuzaga chiqarish darajasi ham o‘zgaradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya sohasida pedagogik jarayonni olib boruvchi kishi uni faqat ta’lim va tarbiya tamoyillariga emas, jismoniy qibiliyatlarini rivojlantirish tamoyillariga muvofiq ravishda qurishi kerak bo‘ladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, jismoniy mashqlarga o‘rgatish tamoyillari basketbolchilarda yagona talabarni o‘zida aks etadi: ularda har qanday pedagogik jarayon onglilik, faollik va boshqa tamoyillar asosida qurilishi zarur. Ammo mazkur tamoyillarning aniq ro‘yobga chiqarilishi hal etilgan vazifalarga muvofiq bo‘lishi shart.

Xulosa. Shunday qilib, maksimal yuklamaning haqiqiy ko‘rsatkichlarini shug’ullanuvchilarning muayyan jismoniy holatiga nisbatangina aniqlash mumkin. Albatta, jismoniy qibiliyatlarni rivojlantirishda maksimal yuklamalarni shug’ullanuvchilarda tegishli tayyorgarlik mavjud bo‘lganda, ularning yoshini, alohida xususiyatlarini, shuningdek, yuklamaning ham o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olgan, boshqa tamoyillarga rioya qilgan holda qo‘llash zarur. Jismoniy yuklamaning kattaligi uning hajmi va shiddati bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra yuklama ish hajmini aniq taqsimlash joiz.

Adabiyotlar

1. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g’risida”gi Qonun 2000-yil 27-iyun. Xalq so‘zi 1-2-betlar.
2. Vardiashvili.I.R. Talabalarning ilmiy bilish faoliyati. –Qarshi: “Nasaf”, 2006.
3. Krimov.F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. -T.: “Zarqalam”, 2004.
4. Гомелский А.И. Тактика баскетбола. –М.: “ФИС”, 1966 год.
5. Кожевникова З.А. Тренировка ловкости и бросков баскетболиста. -М.: “ФСИ”, 1971 год.
6. Qosimov A.Sh., O.T.Rasulov, A.X.Ismatullayev. Basketbol. Toshkent, 1986.
7. Ganchorova O.V. Yosh sportchilarni jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. –T., 2005.
8. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. 1001 o‘yin. -T.: “Ibn Sino”, 1990.

Sitorabonu ABDUYEVABuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasи o'qituvchisi**JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASHNING
PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Hozirgi davr talabasi dunyoqarashi keng, erkin fikirlovchi vogelikka adekvat - to‘g’ri baho bera oluvchi, o‘tkir zehnli, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda, yuksak intelluktual kuchga ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun esa ta’lim tizimiga yangi innovatsiyalarni ta’sis etish zarur va shartdir.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, metod, psixologiya, jismoniy madaniyat.

Студент должен обладать широким кругозором, свободомыслием, острым умом, твердой волей, словом, обладать высокой интеллектуальной силой. Для этого необходимо и необходимо внедрять новые инновации в систему образования.

Ключевые слова: инновация, метод, психология, физическая культура.

The student of the present period should have a sharp mind, strong - willed, in short, high intellectual power, capable of giving an adequate assessment to the broad, free-thinking realities of the worldview. To do this, it is necessary and necessary to establish new innovations in the educational system.

Keywords: innovation, method, psychology, physical culture.

Kirish. Ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmuni, tuzilishi, usullarini qayta ko‘rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan, oliy ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, yangi pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Hozirgi davr talabasi dunyoqarashi keng, erkin fikirlovchi voqelikka adekvat - to‘g’ri baho bera oluvchi, o‘tkir zehnli, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda yuksak intelluktual kuchga ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun esa ta’lim tizimiga yangi innovatsiyalarni ta’sis etish zarur va shartdir. Talaba (sust) tinglovchi - obyekt bo‘lmay, ta’lim jarayonining (faol) ishtirokchisi - subyektiga aylanishi zarur bo‘ladi.

Xo‘s, ushbu jarayonda integratsiyalarning roli qanday? Avvalambor, integratsiya tushunchasining mohiyatini ko‘rib chiqaylik. Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda integratsiya ijtimoiy-psixologik aspekt bo‘lib, biror bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tatbiq etish va ta’lim jarayonini jadallashtirish demakdir.

Innovatsiyalar esa faoliyat jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni yengish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Ushbu jarayonda maqsadi, vazifasi va qiziqishlari turlicha bo‘lgan ijtimoiy guruhrar ishtirok etadi. Motivatsiyalar xarakterining tipi ham innovatsion faoliyat mazmuniga va sifatiga ta’sir o‘tkazadi. Bundan tashqari innovatsiyalarni tatbiq etish jarayonida ustankalar, shaxsning yo‘nalishi va ma’naviy axloqiy sifatlari ham ma’lum darajada ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni yangiliklar qabul qilish va unda ishtirok etishga tayyorgarligini shakllantirish, yangilikni qabul qilish qobiliyatini o‘stirish maqsadida, bilish jarayonini aktivlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish lozim. Bunday usullarga psixologik treninglar, rolli o‘yinlar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ta’lim tizimiga kiritilayotgan yangi pedagogik texnologiya jarayoni ham innovatsiyalar va integratsiyalarning yorqin misolidir.

Qo‘yilayotgan identiv maqsadlar, nazorat topshiriqlarni aniq fe’llarda ifodalanishi talaba aqliy faoliyatining rejasini yaqqol ko‘rsatadi, o‘z-o‘zini boshqarishning yo‘nalishini belgilaydi. Bu innovatsion faollikning aniq ko‘rinishiga misol bo‘la oladi. Aqliy faoliyatni jonlashtirishda ushbu yo‘nalish maqsadlarni belgilashga yordam beradi. Maqsadning aniqligi esa, faoliyatning sermahsulligidir. Qachonki faoliyat o‘zining ijobji natijalarini berar ekan, bu ayni muddaodir. Ammo ushbu jarayonni tashkil etishda talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir qiluvchi ijobji va salbiy omillar turkumi mavjuddir:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnik vositalar va asboblarning mavjudligi;
- turli xil to‘garak, seksiya, bilim uylari faoliyat ko‘rsatishi va ularda qatnashish imkoniyatining borligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar hamda shaxslarning ruhiy rag’batlanishi yo‘lga qo‘yilganligi;
- shaxslar bilan o‘zaro muloqotlar o‘rnatalishining uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;

- turli televizion viktorinalar, bahslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo‘yicha musobaqalar uyshtirilishi va ularda qatnashish (ishtirok etish) imkoniyati yaratilganligi;
- ortiqcha informatsiya, xabarlar ko‘lamini kamaytirish (masalan, videolar, avtomat o‘yinlar);
- yoshlarni ro‘zg’or ishlari bilan band qilib qo‘yish, oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanmasligi va shaxsni qat’iy yumush bilan shug’ullanishga majbur etilganligi;
- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzini kamayib ketayotganligi talabalarning o‘quv motivlariga kuchli ta’sir qilayotganligi;
- o‘g’il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg’ularining beqarorligi va ularning shakllanishining orqada qolishi;
- yoshlar o‘rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrofgarchilikka, fidoyillika nisbatan loqaydlikning mavjudligi va boshqalar.

Shunday ekan, yuqorida ijobiy omillarni kuchaytirish, salbiy omillar ta’sirini kamaytirish va yo‘qotish chora tadbirlarini belgilab borish va integratsion jarayonda innovatsion omillarga alohida e’tibor berish, psixologik asoslarini o‘rganish hamda tahlil qilib borish ijobiy natija beradi.

Mustaqil fikr-mulohaza insonda mavjud bilimlarni, fikr va voqelikka bo‘lgan munosabatlarning erkin yuzaga chiqarilishidir. Albatda, ushbu jarayon o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi, ayniqsa, ta’lim-tarbiyada.

Ma’lumki, ta’lim - o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘rnataladigan pedagogik munosabatlar majmuidir. Ana shu munosabatlarda o‘zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya’ni bilimlar ortib boradi, intelekt mukamallashadi.

Ta’lim tizimiga joriy etilayotgan zamонавиу pedagogik texnologiyalardan ko‘zlanayotgan asosiy maqsad ham xuddi ana shundadir. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o‘z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo‘ladi va xulq-atvor shaklini ham o‘zgarishiga ta’sir qiladi. Mustaqil fikrlarni bildirar ekan, talaba ta’lim jarayonining faqat subyekti sifatida ham namoyon bo‘ladi, ya’ni teng huquqli ta’lim diologini vujudga keltiradi.

Ayniqsa ta’limni muammoli tashkil etish talaba o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonni yanada muvaffaqiyatliroq chiqishi uchun psixologik asosga e’tiborni qaratish kerak.

Muhokamalar va natijalar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda bilim egallahning bir qancha bir-biriga bog’liq bo‘lgan bosqichlari mavjud bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘quvchi ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushurish, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilar oлган bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma’lum natjalarni qo‘lga kiritishi, to‘ldirishi, boyitishi, o‘zgartirishi, o‘zining mustaqil nuqtayi nazariga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu o‘zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

O‘quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o‘ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o‘quvchi va auditoriya o‘rtasida hech qanday psixologik g’ov bo‘lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi kerak. Psixologik g’ovni olish uchun tanishuv treningi o‘tkazish tavsiya etiladi. Tanishuv treningida har bir talaba ismini, ismining ma’nosini aytishi yoki ismini aytib, o‘zida mavjud bo‘lgan biror fazilatni ifoda etishi lozim. So‘ngra bugungi mashg’ulotni samarali o‘tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon auditoriya bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘qituvchi bugungi mashg’ulotning samaradorligini ta’minalash uchun talabalar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini auditoriyadan so‘raydi. Mashg’ulotning samaradorligini ta’minalash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi:

Gapni bo‘lmaslik, bir-birini tinglash, tinglay olish ko‘nikmasi, navbat bilan gapirish ko‘nikmasi, qo‘l ko‘tarish qoidasiga amal qilish, sabr-toqatli bo‘lish, o‘zaro hurmat.

Darsni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda talaba bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun qo‘yiladigan muammolarga bog’liq bo‘lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So‘ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr mulohazalarda ifodalanadi.

Muammoni hal etish jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minalash maqsadida darsni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin:

- *chaqiruv fazasi, anglash fazasi, fikrlash fazasi.*

Chaqiruv fazasi darsning birinchi bosqichi bo‘lib, talabalardagi mavjud bilimlar aniqlanadi va talabaning diqqati muammoga jalb etiladi. Chaqiruv fazasini tashkil etish uchun quyidagi shakldagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

- *bu haqda qanday ma’lumotga egasiz? Bu xususda nimani bilishni xohlaysiz?*

Anglsh fazasida qo'yilgan muammoni anglab yetishi va hal etish nazarda tutiladi. Bunda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, mikroguruuhlar tuzish, munozara tashkil etish va quyidagi tartibda savollar qo'yish mumkin:

- siz uchun yangi ma'lumotlar bormi? Ushbu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday? Sizda qaysi jihat katta taassurot qoldirdi? Buning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? Qanday natija beradi deb o'ylaysiz?

Fikrlash fazasida muammoning yechimi chiqarilib, mulohazalar bildiriladi. Talaba o'zi xulosa chiqaradi. Talabalarni fikrlash fazasida diqqatini jalb etish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilinishi samarali sanaladi:

- bu haqida qanday o'ylaysiz? Qanday yangi fikrlar keldi? Fikringizni asoslay olasizmi?

Xulosa. Biz ichki psixologik to'siqlari kuchli bo'lgan melanxoliklarda kuzatuvlar olib borib, quyidagi natijalarga erishdik:

300 ta talabaning 44 foizi melanxoliklar bo'lib, ularning 8 foizi a'lo, 47foizi o'rtta, qolganlari qoniqarli o'zlashtirgani holda, 56 foizi talaba o'rtadan uyqori intellekt darajasiga ega bo'lgan. Darslar interfaol usullar va noananaviy tarzda tashkil etilganda 15 foizi a'lo, 69 foizi yaxshi darajada o'zlashtirishga, aqliy qobiliyatlar - intellekt dinamikasi esa 84 foiziga o'sishiga erishilgan.

Adabiyotlar

1. A.K.Ibragimov, F.I.Mo'minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
2. Ибрагимов А.К. Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2019. №19. 161-164 6. [13.00.00№23].
3. S.S.Abdueva,Sh.Kadirov,M.Fatullaeva,Sh.Khurbonov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7,Issue 6,2020
4. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi When planning the training of handball teams of university students, take into account the functional status of athletes by their temperament types International Journal On Economics, Finance And Sustainable Development Journal homepage: www.researchparks.org/ ISSN (electronic): 2620-6269/ ISSN (printed): 2615-4021 197-205р
5. F.Fazliddinov, K.Kobiljonov. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока. Научно-методический журнал (МАНПО) №1 2020 год. Стр. 100-103
6. A.R.Nurullaev Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13
7. А.Р.Нуруллаев М.Ю.Гафурова., Мансуров Ш.Ш. Деление спортивных занятий на периоды. Международная академия наук педагогического образования (манпо) Педагогическое образование и наука научно-методический журнал 6/2019 г ст 153-156
8. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. "Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping".ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2
9. U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multimedimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9,Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7
10. Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 1212-1220.
11. Kuldoshovich K. S. Physical Training Of Young Athletes And Its Importance //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 406-409.
12. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 486-492.
13. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.
14. Сабирова Н. Р. Значение Физической Культуры В Современном Обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

-
15. Akmalovich D. B. et al. Psychological Impact Of Football Games To The Formation Of Individuality Of The Student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 466-469.
16. Fazliddinov F. Professional competence of the specialist in physical culture //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 501-504.
17. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.
18. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
19. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
20. Нуруллаев А. Р. Основные формы и сущности экономической демократии //Молодежь XXI века: образование, наука, инновации. – 2017. – С. 227-228.
21. Ибрагимов А. К. Основа Физкультурного Образования Школьников–Зна-Ния По Физической Культуре //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол № 8 от 14 мая 2018 г. – 2018. – С. 128.
22. Nurullaev A. R. Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 520-524.
23. SH.Kadirov. Theory and methods of physical education,sports training,recreational and adaptive physical culture. I international scientific specialized conference international scientific review of the problems of pedagogy and psychology Boston.USA.April 18-19.2018
24. SH.Kadirov. Didactic opportunities to form knowledge about healthy lifestyle to the students in physical education classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 No.12,2019 ISSN 2056-5852
25. Нуруллаев А. Р., Гафурова М. Ю., Мансуров Ш. Ш. Деление спортивных занятий на периоды //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 6. – С. 153-155.
26. Nematovich K. S. The possibilities of physical culture in the modern youth internet community //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 177-180.
27. Murodov J. Мамлакатимиизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иктисодий ислоҳатлар қўлами //Архив научных исследований. – 2020. – №. 29.
28. Juraevich M. J. Actual problems of teaching physical culture in schools //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 181-187.
33. Sharifovich U. A. Athletics-The queen of sports impact athletics on the functional and physical state of man //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 112-115.

Sitorabonu ABDUYEVA

Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat fakulteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport
kafedrasи o‘qituvchisi

XOTIN-QIZLARNING MILLIY MADANIYATI VA HOZIRGI DAVR JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TA’SIRI

Markaziy Osiyo va hamda ularning madaniyati, ma’rifati chuqur o‘rnashib qolinishi (IX-XIX asr) xotin-qizlarning ijtimoiy-ruhiy holatlari va tashqi kiyinish madaniyatiga o‘z tasirini o‘tkazdi. Shu asosda ayollarga va hatto endi voyaga yetayotgan qizlar ham paranjida yurish madaniyati odat tusiga aylangan. Ularning bir tomonlari hozirgi davrda ham “xijob” shaklida saqlanib, davom etib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar ozodligi, paranji, xalq og‘zaki ijod, kasaba uyushmalari.

Глубокое проникновение в Центральную Азию и ее культуру, просвещение (IX-XIX вв.) оказали свое влияние на социально-психологическое состояние и культуру верхней одежды женщин. Исходя из этого, культура ходить по параджи для женщин, и даже для девочек, которые сейчас становятся взрослыми, стала нормой. Одна их стороны сохранилась и продолжает существовать и в настоящее время в виде “хиджаба”.

Ключевые слова: женская свобода, паранджи, устное народное творчество, профсоюзы.

Central Asia, as well as their culture and enlightenment were deeply entrenched (IX-XIX century), influenced the socio-psychological state of women and the culture of outer clothing. On this basis, women and even now adult girls have become accustomed to the culture of parading. One side of them is still preserved and continues to be in the form of “shakes” even in the current period.

Key words: women's freedom, paranji, people's oral creativity, trade unions.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish va sport bilan shug’ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda ayrim muammolar yuzaga kelishi natijasida ularda milliy va jismoniy madaniyatni shakllantirish muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: xotin qizlarning milliy xususiyatlari va hozirgi davr jismoniy madaniyatini yuksaltirish.

Tadqiqot metodi: adabiy manbalarni tahlil qilish metodi.

Asosiy qism. Qadimiy ajdodlar haqidagi afsonalar, har xil manbalar va ilmiy tadqiqotlarning natijalariga asoslanilsa, xotin-qizlar erkaklar va yigitlar bilan ijtimoiy mehnat, ov va turli marosimlarda barobar - teng ishtirok etishgan. “Avesto”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “To‘maris”, “Qirq qiz” kabi tarixiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi qahrmonlarini eslashning o‘zi bunday dalillarni isbotlab beradi.

Sharq xalqlarining, ayniqsa, hozirgi O‘zbekiston hududlarida yashab o‘tgan xalqning ijtimoiy-madaniy turmush madaniyati davirlari osha boyib, rivoj topgan. Bularni Abu Ali Ibin Sino, Forobiy, Al Xorazmiy, Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa juda ko‘p mutaffakkir olimlar ulug‘ zotlar hayoti hamda ularning qoldirgan ilmiy meroslaridan bilish mumkin. Ularda xotin-qizlar timsoli g‘oyat ulug‘langan va go‘zalliklari, iffat va axloqlari badiiy jihatdan tavsiflangan. Markaziy Osiyo va hamda ularning madaniyati, ma’rifati chuqur o‘rnashib qolinishi (IX-XIX asr) xotin-qizlarning ishtimoiy-ruhiy holatlari va tashqi kiyinish madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shu asosda ayollarga va, hatto, endi voyaga yetayotgan qizlar ham paranjida yurish madaniyati odat tusiga aylangan. Ularning bir tomonlari hozirgi davrda ham “xijob” shaklida saqlanib, davom etib kelmoqda.

Xotin-qizlarning paranjida yurish mahalliy kishilarning xohish vaistaglari asosida xilma-xil mazmunnlarni keltirib chiqarganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Ya’ni ko‘chaga chiqmaslik, ariqdan sakrab o‘tmaslik, hatto yaqin qarindoshlar oldida ham yuzini bekitib so‘rashish va hokaza. Bunday jihatlar arab mamlakatlarida to‘la taqiqlanmagan. Buni “Muhammadin Rasululloh” (1997), “Vijdon”ni boshqa arab kinolarida ko‘rish mumkin. “Xijob” va paranjilarda yurgan xotin-qizlarning barchasi ham vijdoni pok halol, eriga to‘la sadoqatli deb bo‘lmaydi. Bunday hayotiy voqeliklar haqida “Paranji sirlari”, “Gulsara”, “Nurhon” va boshqa ko‘pgina grammatik asarlarda o‘z ifodasini topgan. Ma’lumki, XIX asrning II yarmida Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni o‘ganish maqsadida o‘z vakillari, olimlarni tez-tez yuborib turgan. Ular mahalliy millat madaniyatini tarqata boshlagan. Oqibatda zo‘ravonlik bilan Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni o‘zining mustamlakasiga rus-tuzem maktablari, dramatik asarlar, sirk, turli xil tomoshalari bilan mahalliy millat orasiga kirib borgan va o‘z maqsadlari yo‘lida turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilishgan. Bunday jihatlar, ayniqsa, 1917-yildagi oktabr inqilobidan keyin yangi shakl va mazmunda majburan keng tarqaldi. Ularni 1926-

1928-yilda “xotin-qizlar ozodligi” uchun olib borilgan be’mani tadbirlar, paranjilarni yoqish, yosh ayollarni turli ishlarga jalb etish kabi tadbirlar misolida qiyin emas. Ular haqidagi juda ko‘p kitoblar, maqollar, tarixiy muzeylarning eksponatlari guvohlik beradi.

Qadimgi davrlarda xotin-qizlar uchun maxsus madrasalar bo‘lmasada, uy sharoitida podsholar, xonlarning saroylarida xotin-qizlar tahsil olishgan. Natijada Uvaysiy, Nodirabegim kabi iste’doddli shoirlar, davlat arboblari yetishib chiqqan (XVII-XVIII asr). Islom dini tatqiq etgan ba’zi bir ma’rifiy-madaniy jihatlarga qaramasdan xotin-qizlar orasida ishtimoy-mehnat va turmush sohasida taraqqiyatparvarlar bo‘lishgan. Bu jihatlar, aynisa, sobiq sho‘rolar (sovetlar) mustamlakachiligi va istilosи davrida bir munkha “Uyg’onish” davriga aylangan. Bunda Hamza Hakimzoda, Sadiridin Ayniy, Qori Niyoziy, Behbudiy va boshqa ko‘pgina madaniyat arboblari, ma’rifatparvarlarining ro‘li katta bo‘lgan. Natijada Tamaraxonim, Gavhar Raximova (opa singil Petrosyanla, Farg’ona) Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Turg’unboyeva kabi atoqli artistlar, Zulfiya Israilova, Oydin Sobirova, Saida Zununuva kabi shoirlar, Oliya Sultonova (ipakchilik, Farg’ona), Mastura Azizova (traktor haydovchi, urush va keyingi yillarda, Samarcand), Tursunoy Ohunova (paxtachilik, Yangi yo‘l) kabi mehnatkash ayollar, Yodgor Nasiridinova, Raxima Boboyova, Vasila Sodiqova kabi davlat va partiya arboblari, Xadicha Sulaymonova (huquqshunos) Aminova (tarix kabi ilm-fan namoyondalari yetishib chiqqan va ular xalq va vatanga xizmat qilib kelganlar.

Muhokamalar va natijalar. Bugun o‘zbek ayoli ishlab chiqarish, ilm-fan, tadbirkorlik, san’at, sport, hunarmandchilik, qo‘yingki, barcha sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlari, korxona, tashkilot va muassasalarga rahbarlik qilmoqdalar. Respublikamizda xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalash, ayollarning jismoniy, ma’naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar o‘z samarasini bermoqda. Mamlakatimizda tizimli ravishda bir-birining uzviy va mantiqiy davomi sifatida amalga oshirib kelinayotgan Davlat dasturlarida ham xotin-qizlar manfaatlariga yo‘naltirilgan tadbirlarga alohida e’tibor qaratib kelinayotganligi ularga bo‘lgan e’tibor va g’amxo‘rlikning yana bir yorqin ifodasıdir. Respublikada eng yirik jamoat tashkiloti hisoblangan kasaba uyushmalari faoliyatida ham xotin-qizlar va ularning mehnat sohasidagi huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash masalasi alohida o‘rin tutadi. Bunda kasaba uyushmalari faoliyatining asosini tashkil etuvchi jamoa shartnomalari va kelishuvlar, ularni amalga oshirish mexanizmi hisoblangan ijtimoiy sheriklikning ahamiyati nihoyatda kattadir. Shu bois O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashining yaqinda bo‘lib o‘tgan II majlisida kasaba uyushmalarining ijtimoiy sheriklik sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklar va ijro hokimiyyati bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bu yo‘nalishdagi ishlarda amaliy natijalarga erishish, kasaba uyushmalari faoliyatiga zamon talablaridan kelib chiqib, yangicha yondashgan holda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Bunda biz uchun mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senating 2010-yil 12-noyabrda o‘tkazilgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi” mavzusidagi hamda 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlab 2011-yil 21-yanvarda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzalarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar dasturulamal bo‘ldi. Federatsiya kengashining xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi xotin-qizlarning mehnat huquqlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash, reproduktiv salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlar va ularning farzandlarini sog‘lomlashtirish, ishlovchi ayollarning malakasini oshirish ishlarida faol ishtirot etish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarni dam oldirish, ma’naviy saviyalarini yuksaltirish, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish hamda bu orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bilan bog‘liq tadbirlar ham komissiya ish rejasidan alohida o‘rin egallagan.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi xotin-qizlarning bandligi borasidagi ishlarda, xususan, kasanachilik yo‘nalishi imkoniyatlaridan keng foydalanish va, albatta, bunda bosqichma-bosqich samaradorlikka erishishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidan bormoqda. Shuningdek, kam ta’minlangan, ko‘p bolali, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlari himoyasini kuchaytirish hamisha e’tiborimizda bo‘lib qolmoqda. Yana bir muhim masala, bu – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yilida joylarda barpo etilayotgan yangi ish o‘rinlarida mehnat qilayotgan xotin-qizlarning mehnat sohasidagi huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasidir. Ularga xavfsiz va yetarli ish sharoitlari yaratilishi, kasbiy malakalarini oshirish ishlariga ko‘maklashish endilikda xotin-qizlar bilan ishlash komissiyalarining doimiy diqqat markazida bo‘ladi. Kezi

kelganda, kasaba uyushmalari faoliyatini mustahkamlashda xotin-qizlarning alohida o‘rin tutishini ta’kidlash joiz. Binobarin, a’zolarimizning 3 million 300 ming nafarga yaqini, ya’ni 48,9 foizini ayollar tashkil etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi tomonidan davlat hokimiyyati, prokuratura, sud organlari bilan aloqalarni mustahkamlash, huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda tadbirlar ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mehnat sohasida ayollarni huquqiy jihatdan himoya qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Ta’kidlash joizki, korxona, tashkilot, muassasalar ishchi-xodimlari va tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkaziladigan Respublika “Salomatlik” spartakiadasi ham xotin-qizlar keng jalb etilyapti. Ayollar oila farishtalari, ro‘zg’or sarishtalaridir. Bugungi kunda kasaba uyushmalarining joylarda keng quloch yoyayotgan tashabbusi - O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi tantanalarida yangidan-yangi go‘zal bog’lar barpo etish tadbirlarida ham xotin-qizlarimiz o‘zlarining dono va tadbirkorona maslahatlari, nozik didlari bilan munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: “O‘zbekiston”, 1998. 132-b. 7-tom.
2. Abdumalikov R.A., Alibekov Sh., Norkulov Sh. Xalq milliy o‘yinlari mazmunida ma’naviyat masalalari. -Toshkent, 1995.
3. A.K.Ibragimov, F.I.Mo‘minov. Methodology of optimization of trainingfor young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
4. M.J.Abdullayev, Z.M.Turayeva Methodology Of Teaching 18-20 Year Old Girls For Healthy Aerobic Exercises // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) Published: February 28, 2021 | Pages: 77-85
5. А.К.Ибрагимов.Психологические особенности мотивации спортсменов // Журнал. Вестник интегративной психологии. -Ярославл, 2019. №19. 161-164 б. [13.00.00№23].
6. S.S.Abdueva, Sh.Kadirov, M.Fatullaeva, Sh.Khurbanov. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7,Issue 6,2020
7. S.S.Abdueva, Sh.Khurbanov,N.Sabirova. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). 2019 december
8. S.S.Abdueva. Activities that increase children’s interest in the sport of handball. Инновационное развитие науки И обозование международная научно-практическая конференция 2020
9. А.Р.Нуруллаев М.Ю.Гафурова., Мансуров Ш.Ш. Деление спортивных занятий на периоды. Международная академия наук педагогического образования (манпо) Педагогическое образование и наука научно-методический журнал 6/2019 г ст 153-156
10. Abdueva Sitorabonu Savriddin qizi. “Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping”.ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01417.2
- 11.U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multimedimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9,Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7
- 12.Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 1212-1220.
13. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 486-492.
- 14.Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. USING OF INNOVATION TERMS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORT LESSONS AND THEIR SOCIAL AND EDUCATIONAL FEATURES //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.
- 15.Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
16. Akmalovich D. B. et al. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 466-469.

- 17.Fazliddinov F. Professional competence of the specialist in physical culture //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 501-504.
- 18.Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.
- 19.Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
20. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
- 21.S.S.Abdueva The pedagogical significance of physical culture and sports in the upbringing of a harmoniously developed generation. Integration into the world and connection of sciences | Интеграция в мир и связь наук | Dünyaya integrasiya və elmlərin əlaqəsi ISBN 978-9952-8405-4-4 DOI http://doi.org/10.37057/A_5_Noyabr_2020
22. U.A.Farmonov The system of training young basketball players at the initial stage of training at school. Asian Journal of Multimedimensional Research (AJMR) 2020. Vol 9,Issue 11, DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00279.7
- 23.SH.Kadirov. Спорт как важный Фактор социализации учащихся. Professional formation of the future teacher Materials of the international scitntific conference on May 22-23, Prague 2017
- 24.SH.Kadirov. Physical education as the necessary elements of sports culture. XIII international correspondence scientific and practical conference european research; innovation in science,education and technology dio;10 20861 2304-2338-2018-42
- 25.SH.Kadirov.Theory and metohods of physical educattion,sports training,recreational and adaptive physical culture. I international scientific specialized conference international scientific review of the problems of pedagogy and psychology Boston.USA.April 18-19.2018
26. SH.Kadirov. Didactic opportunities to form knowledge about healthy lifestyle to the students in physical education classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 No.12,2019 ISSN 2056-5852
Мактабгача ёшдаги болаларда тана ҳали етарлича турғун эмас, ҳаракат имкониятлари ҳам чекланган. Уларнинг асаб тизими тез ривожланади, скелети ўсиб, мушак тизими мустаҳкамланади, ҳаракатлар такомиллашади. Диққат анча барқарорлашиб, болалар энг содда меҳнат кўниммаларини эгаллай борадилар. Гавданинг умумий статик беқарорлиги ҳамда динамик имкониятлари чекланганлиги 3-4 ёшли болаларга хос бўлиб, бу ёшдаги болаларда гавданинг юқори қисми, елка сатҳи мушаклари ва букувчи мушаклар нисбатан яхши ривожланган, 3-4 ёшли болаларда ҳаракатлар етарлича мувоғиқ бўлмагани холда ҳаракат фаоллиги юқори даражада бўлиб, бу ҳаракатларда йирик мушак гурухлари иштирок этади. Мазкур даврда узоқ муддат бир хил вазият сақлаб турилса ёки бир турли ҳаракатлар бажарилаверса, тез толикиш кузатилади.

7 ёшгача ўпка тўқимасининг тузилиши ҳали тўла ривожланмаган холда бўлади; бурун йўллари, трахея ва бронхлар нисбатан тор, шу сабабли ўпкага ҳавонинг келиши бир оз қийинроқ; қовурғалар бирмунча қияроқ, диафрагма юқориго жойлашган, шунинг учун нафас олиш ҳаракатлари амплитудаси катта эмас. Бола катталарга нисбатан юзаки ва анча тез-тез нафас олади: 3-4 ёшли боланинг нафас олиш суръати - бир дақиқада 30 марта, 5-6 ёшда - 25 марта, катталарда 16-18 марта. Болаларнинг юзаки нафас олиши ўпкада ҳаво айланишининг нисбатан ёмон бўлиши, ҳавонинг ўпкада бир оз туриб қолишига олиб келади, ўсаётган организм эса тўқималарнинг кислород билан етарлича таъминланишини талаб қиласди. Айнан шунинг учун ҳам очиқ ҳавода ўтказиладиган жисмоний машқлар жуда муҳим бўлиб, улар ҳаво алмашинишини фаоллаштиради. 3-4 ёшли болаларда ўпканинг тириклик сигими ($\dot{V}TC$) $400-500 \text{ см}^3$ ни, 5-6 ёшда эса $800-900 \text{ см}^3$ ни ташкил этади.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг юрак-қон томир тизими фаолияти ўсаётган организмнинг талабларига яхши мослашган, тўқималарнинг қон билан таъминланишига бўлган кучли эҳтиёж осонлик билан кондирилади, чунки боланинг томирлари катталарникига нисбатан кенгрок бўлиб, улардан қон эркинроқ оқиб ўтади. Бола организмидаги қон микдори катталарникига нисбатан кўпроқ, унинг томирлар бўйлаб ўтадиган йўли қисқароқ. Масалан, агар катта одамнинг томир уриши бир дақиқада 70-74 зарбага teng бўлса, мактабгача ёшдаги болада ўртacha 90-100 зарбани ташкил этади. Юрак асаб бошқарилуви такомиллашган эмас, шунинг учун унинг кўзғалиши тез, қисқаришлар ритми осонгина бузилиши мумкин, жисмоний юклама остида юрак мушаги анча тез толикиб колади. Лекин фаолият ўзгариши билан боланинг юраги тез тинчланиб, ўз кучини тиклаб олади. Шунинг учун ҳам болалар билан шуғулланганда жисмоний машқларнинг хилма-хиллигига эътибор бериш: ҳаракатли ўйинларни бирмунча тинч суръатли ўйинлар билан навбатлаш ва болага тез-тез қисқа муддатли дам олиш танаффуслари бериб туриш лозим.

Мактабгача ёшдаги болаларда З ёшгача бўлган болаларга нисбатан асаб тизими яхшироқ ривожланган бўлади. Бу даврда бош мияда асаб ҳужайраларининг етилиши жараёни ниҳоясига этади, бош мия ташки кўриниши ва оғирлигига кўра катта одам миясига яқинлашиб қолади, бироқ асаб тизими ҳали анча кучсиз бўлади. Шунинг учун мактабгача ёшдаги болаларнинг ўта таъсирчанлигини ҳисобга олиш, уларга ниҳоятда эҳтиётлик билан муомала қилиш: узоқ муддатли, оғир юкламалар бермаслик, ҳаддан ортиқ толиктирмаслик керак, чунки бу ёшда таъсирланиш жараёнлари тормозланиш жараёнларидан устун бўлади.

Болаларда етти ёшгача, гарчи уларда қон билан таъминланиш катталарникидан яхшироқ бўлсада, суякларнинг шакллананиш жараёнлари тугалланмайди. Скелетда тоғайсимон тўқималар кўп бўлиб, шу туфайли унинг кейинги ривожи рўй беради; айни вақтда суякларнинг юмшоқлиги ҳам шу билан тушунтирилади. Мушак тўқимасининг ўсиши асосан мушак толаларининг йўғонлашиши ҳисобига юз беради. Аммо суяқ-мушак аппаратининг нисбатан кучсизлиги ва тез толикиши сабабли мактабгача ёшдаги болалар узоқ муддатли мушак зўриқишлирга бардош беролмайдилар.

Кичик мактаб ёшидаги болалар юриш пайтида ҳали аниқ ҳаракатлана олмайдилар: улар ритмик тарзда югорулмайдилар, тез-тез мувозанатни йўқотиб йиқиладилар. Уларнинг қўпчилиги пол ёки

ердан яхши итарила олмайдилар, оёқ кафтига тўла таяниб югуради. Улар ўз таналарини ҳатто арзимас баландликка ҳам кўтара олмайдилар, шунинг учун баландликка тўсиқлар оша ҳамда бир оёқлаб сакрашларни бажаришга қийналадилар. Бу даврда мактаб ёшидаги болалар қизикиш билан копток ўйнайдилар, лекин ҳали уларнинг ҳаракатлари ўзаро мувофиқлашмаган, кўз билан мўлжал олиш ривожланмаган: уларнинг коптокни илиб олишлари қийин. Болалар ҳар турли ҳаракатлардан тез толикадилар, чалғийдилар.

4,5-5 ёшларга келиб болаларнинг ҳаракатлари анча мувофиқлашиб қолади, улар сакраш, тўсиқлар оша сакраб ўтиш, тўпни илиш кўникмаларини ўзлаштирадилар. Б ёшлиларда енгиллик пайдо бўлиб, югуриш ритми барқарорлашади, ён томонга тебранишлар камаяди, улар баландликка, узунликка, тўсиқлар оша сакрайдилар, коптокни нишонга уришни ўзлаштирадилар, кўз билан мўлжал олиш кучаяди. Катта мактаб ёшидаги болаларнинг кичикларга қараганда гавдаси бақувват, мушаклари мутаносиб ривожланган. Юриш ва югуриш чоғидаги асосий ҳаракатлари аста-секин автоматик даражасига етади, ҳаракатлар мувофиқлиги кучаяди, қўйл меҳнатига қобилият сезиларли даражада ортади. Турғунлик ортгани учун оддий мувозанат машқларини, чаққонлик билан югуришни амалга ошириш осонлашади. Болалар чидамлироқ бўла борадилар, бироқ улар дастлабки ҳолатларини тез-тез ўзгартириб, ранг-баранг ҳаракатларни бажаришлари лозим. Бу ёшда уларнинг фаолияти аста - секин мазмун билан бойиб, онглироқ бўла боради.

Хулоса. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасининг кўпгина олимлари фикрича, ўсиб келаётган ёш авлодни жисмоний тарбиялашдан мақсад шахснинг жисмоний ва маънавий маданияти асосларини шакллантириш, саломатлик захираларини соглом турмуш тарзида фаол ҳамда узоқ муддат давомида амалга оширилаётган қадриятлар тизими сифатида юксалтиришдан иборатdir.

Уларнинг мулоҳазаларидан келиб чиқиб, мактабгача ёшдаги болаларга нисбатан татбиқ этилса, жисмоний тарбиянинг асосий вазифалари қўйидагилардан таркиб топади.

– болаларда саломатлик, жисмоний тарбия ва спорт қадриятларини ўзлаштиришда онгли эҳтиёжни шакллантириш;

– боладаги жисмоний сифатлар, ҳаракат кўникма ва малакалари ривожининг зарур ҳамда етарли даражасини таъминловчи жисмоний имкониятларнинг табиийликка мувофиқ ва индивидуал - мос ривожлантирилиши;

– мактабгача ёшдаги болаларга умумий жисмоний маълумотларни бериш, бунда уларнинг жисмоний тарбиясига оид ақлий, технологик, ахлоқий, этик ва эстетик қадриятларни ўзлаштиришига эришиш;

– билимларнинг мустақил машғулотлар ўтказишнинг бошланғич кўникмалари даражасида долзарблашуви.

Мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тарбияси тизими, тузилишининг инновацион кўшимчаларига хос асосий муаммолар қўйидагилардир:

а) болаларнинг психик ривожланиши жараёни шароитларини мақбуллаштириш учун жисмоний тарбия воситаларидан фойдаланиш имкониятлари;

б) мактабгача ёшдаги болалар жисмоний сифатларини ривожлантириш ва асосий ҳаракатларини шакллантиришнинг ёш хусусиятлари;

в) мактабгача болалар муассасаларида жисмоний тарбиянинг методологик муаммолари;

г) мактабгача жисмоний тарбия мутахассисларини тайёрлашнинг ташкилий-мазмуний асослари.

Адабиётлар

1. Усмонхўжаев Т.С., Раҳимов М.М., Адиев А.Н. Ўзбек халқ ўйинлари. -Т.: “Ўқитувчи”, 2004.
2. Усмонхўжаев Т.С. Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари. - Т.: “Ўқитувчи”, 2005.
3. Йўлдошев Х.К., Саломов Р. Жисмоний тарбия. - Т.: “Ўқитувчи”, 2005.
4. Абдураҳимов Т. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошари. - Т.: НДА, 1997.
5. Корабаев У.Ҳ. Ўзбекона ўйинлар. -Гулустон №9; 1991.

Moxira GAFUROVABuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasи o'qituvchisi**Murodjon RO'ZIMBOYEV**Buxoro davlat universiteti
tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi**JISMONIY TARBIYA VA TA'LIM JARAYONIGA HARAKATLI (MILLIY) O'YIN
VOSITASINING PEDAGOGIK TA'SIR XUSUSIYATLARI**

Maqolada jismoniy tarbiya va ta'lism jarayoniga harakatli (milliy) o'yin vositasining pedagogik ta'siri, jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o'yinlar o'ta samarali vosita ekanligi, bolalarni harakatli o'yinlar orqali sog'lom, harakatchan qilib tarbiyalash haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: bolalar, jismoniy tarbiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, ta'lism, ijtimoiy, ilmiy.

В статье утверждается, что педагогическое влияние родвижным (национальной) игры на физическое воспитание и процесс обучения заключается в том, что родвижные игры являются очень эффективным инструментом в процессе физического воспитания для воспитания детей здоровым, активным образом с помощью родвижных игр.

Ключевые слова: дети, физическое воспитание, педагогика, психология, анатомия, физиология, образование, социальная, научная.

The article argues that the pedagogical impact of mobile (national) play on physical education and learning process is that mobile games are a very effective tool in the process of physical education to bring up children in a healthy, active way through mobile games

Key words: children, physical education, pedagogy, psychology, anatomy, physiology, education, social, scientific

Kirish. Jismoniy tarbiya oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda barcha o'quv yurtlari ta'lism tizimdagagi yosh avlodni jismoniy baquvvat, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi PF-31-54 sonli "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish" to'g'risidagi Farmoni va uni bajarish tadbirlariga suyangan holda yangi usullar bilan tashkil qilish va o'tkazish maqsadida muvofiqdir. Ushbu ishlar samarali bajarilishi uchun bolalarning eng kichik yoshdan boshlab milliy harakatli o'yinlar vositasi bilan jismoniy salamatlik "poydevorini qurish"ni amalga oshirish mumkin.

Maktab davridan boshlab o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va funksional shakllanishida harakatli o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa, ko'rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin shunday harakatlarni milliy o'yinlar asosida ijro etish odamning ruhiyatiga ijobjiy ta'sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. O'yinlar o'zining hammabopligi (universalligi), ko'p funksionalligi va keng ta'sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo'linadi. Jumladan, jismoniy sifatlar, nuqt, talaffuz, merganlik, tadbirkorlik, hisob va hokazo hislatlarni rivojlantiruvchi o'yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o'yin bo'lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo'ladi.

Asosiy qism. Ma'lumki, harakatli o'yinlar turli xalq va elatlarning rasm-rusumi, udumi, an'analari hamda etnogenetik xususiyatlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham bunday harakatli o'yinlarni ko'pincha xalq o'yinlari deb yuritiladi.

Qadimgi mutafakkir-olimlar va pedagoglar insonda saxiylik, rostgo'ylik, vatanparvarlik hissiyoti, raqibga nisbatan hurmat va tabiatni e'zozlash kabi xislatlarni aynan milliy o'yinlar ta'sirida tarbiyalash imkonini yuqori ekanligini e'tirof etganlar. Bu borada, ayniqsa, o'zbek xalq harakatli o'yinlari turli hayotiy muhim odatlarni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish qudratiga egadir. Xalq o'yinlari shu xalqning kashfiyotidir. Shuning uchun ushbu o'yinlar uning ongida, ro'zg'or ishlarida, oila va mahalla tarbiyasida faol o'rin egallaydi.

Harakatli o'yinlar, shu jumladan xalq milliy o'yinlari noyob qadriyat sifatida faqatgina mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgandan keyingina qayta tiklanib, hozirgi kunda aholi, ayniqsa o'quvchi-yoshlar o'rtasida keng va jadal ommalashib bormoqda.

Xalq harakatli o'yinlari ilmiy obyekt sifatida borgan sari tadqiqotchi olimlar e'tiboridan mustahkam o'rin egallamoqda.

Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malakalari va jismoniy sifatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlar o'ta samarali vosita ekanligini isbotlovchi talaygina ilmiy adabiyotlar nashr etilgan (L.V. Bileyeva, I.M. Korotkov, 1982; I.M.Korotkov, 1988; M.S. Bril, 1980; T.S.Uzmanxo'djayev, F.X.Xo'jayev, 1990, 1992; A.I.Lisista 1991; T.S.Uzmanxodjayev, X.A. Meliev, 2000; V.V. Kuzin, S.A. Polievskiy, 2000; F. Kerimov, N. Yusupov, 2002).

I.M.Karotkov (1982)larning fikricha, zamonaviy sport o'yinlarida jismoniy sifatlar, texnik va taktik mahoratni shakllantirish uchun o'yin uslublaridan qanchalik ko'p va mohirona foydalanilsa, shunchalik sportchilarning qobiliyatları va mahorati yuqori saviyada o'sishi mumkin. To'g'ri, bir qaraganda sport o'yinlari o'zi o'yinlardan iborat bo'lib, yana turli o'yinlardan foydalanish "ortiqcha yukday" ko'rindi. Lekin bunday tushuncha batamon noto'g'ri. Chunki pedagogika, fiziologiya va psixologiya fanlariga oid ilmiy ma'lumotlarga asosan, jismoniy sifatlar, texnik-taktik malakalar va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishda an'anaviy ixtisoslashtirilgan va standart mashqlarni qo'llash, ayniqsa, dastlabki o'rgatish jarayonida yosh shug'ullanuvchilarini tez charchashiga, qiziqishning susayishiga olib keladi. Harakatli o'yinlar esa, aksincha, bolaning emostional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, charchash alomatlarining vujudga kelishi "orqaga" suriladi, eng asosiysi bolaning irsiy (genetik) qobiliyatları hamda yangi harakat malakalari paydo bo'lishi mumkin (I.M. Korotkov, 1971; 1979; A.I. Lisistina, T. S. Usmanxodjayev, 1985; M.N. Jukov, 2003; I. Vlasyuk, 2005 va boshqalar). Agar, voleybol o'yiniga mos harakatli o'yinlar saralab olinsa va bu o'yinlar voleybol to'pi bilan ijro etilsa samara yanada yuksakroq bo'ladi (M.A. Kurbanova, 2003).

Bunday o'yinlarga masalan, "To'p uzat - o'tir", "To'p uzatib estafeta yugurish", "To'pga to'siq qo'y" va boshqa shunga o'xshash o'yinlarni kiritish mumkin.

Sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini shakllantirishda harakatlari o'yinlarning ahamiyati va ularning afzalligi qator ilmiy-uslubiy adabiyotlarda qayd etilgan [20].

A.I.Lisista (1991)ning fikricha harakatli o'yinlar nafaqat jismoniy sifatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga qodir, balki aniq mo'jalga olish, aniq harakat, diqqat kabi xislatlarni ham samarali rivojlantirishi mumkin.

Shunday ixtisoslashgan o'yinlar borki, ularni muntazam qo'llash natijasida yosh sportchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligining taraqqiy etishi sezilarli darajada ancha oson kechadi.

Harakatli o'yinlar bo'yicha O'zbekistonda yetakchi mutaxassis-olimlar T. Usmanxodjayev va F. Xo'jayevlar (1992) turli yo'nalishdagi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish masalalariga oid qator tavsiyalar berib o'tishgan. Jumladan, ularning fikricha harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda bir qator masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. O'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiyl ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish.

2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish.

3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish.

4. Umumiyl va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash;

5. Jasurlik, topqirlilik, zukkolik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Mualliflar turli sinf o'quvchilariga mos o'yinlar, yilning turli fasllarida, kunduzgi va kechqurun o'ynaydigan o'yinlarni saralab berishgan va ularning mohiyatini yoritishga muvaffaq bo'lishgan. Eng asosiysi, mutaxassislar maktab sport seksiylarida, jumladan, sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi bolalarga "Mushuk va sichqon", "Bo'sh joy", "Qoziq", "Bo'ri zovur ichida" kabi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydilar.

Yuqorida tahlil etilgan ilmiy va uslubiy adabiyotlar yoshlikdan boshlab jismoniy tayyorgarlikni rivojlantira borish, nafaqat bolalarni chiniqtirishda, ularning sog'ligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab beryapti, balki ularni sportga bo'lgan qiziqishi ortishiga, sport mashg'ulotlarida o'rnatiladigan texnik-taktik malakalarni tezroq o'zlashtirishlariga imkon yaratishni ko'rsatib berdi. O'z navbatida yosh bolalar jismoniy sifatlarining samarali shakllanishida harakatli o'yinlar o'ta samarali vosita ekanligini ochib berdi. Lekin ushbu adabiyotlar sharhidan ko'rinish turibdiki, qaysi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qanday harakatli o'yinlardan foydalanish ma'qulligini yoritib beruvchi ma'lumotlar niyoyatda kam o'rnatilgan.

Muhokamalar va natijalar. Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o'sib-ulg'ayishidan, xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy harakatli o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh valod tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil

davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liq tarzda matabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotilik xususiyatlarini shakillantirish imkonini yaratadi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan sog'lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Milliy xalq harakatli o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun-qoidalari va o'zining muayyan izini qoldirgani haqiga yuqorida to'xtalgan edik. Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy tarbiyadan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni ham zarardan soqid qilmaslik, ularni ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, "Uloq" o'yini deganda odatda ot bilan o'ynalanadigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiyo ko'pkari o'yini tushuniladi. Bolalarga mo'jallangan "Uloq" o'yini otsiz o'tkaziladi, o'yinchilar, bir parcha echki terisi yopishtirilgan to'ldirma to'pni olish uchun kurashadilar. O'yin qoidalaring ba'zi jihatlari qolganlarinikiga o'xshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu o'yin katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, bunda bir-birini hurmat qilish, samimiy munosabat, qo'pollik qilmaslikka e'tibor beriladi.

Xalq milliy harakatli o'yinlarni bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'g'il bolalarning qiziqishini oshiradi, unga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatini tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yinda bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishiga harakat qiladilar. Xalq milliy harakatli o'yilarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiyoj jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi mashq sifatiga qarash lozim. Birorta o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi mashq bo'lib hisoblanmasin. Masalan, "Do'ppi kiyishda kim g'olib?" milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi – insonni sog'lom va to'g'ri yashashga tayyorlashdir. Maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyaning vazifalarini bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy tarbiyaning umumiyoj maqsadi ko'zdan qochirilmaydi.

Maktabda o'quvchilarni jismoniy tarbiyasida sog'lamlashtirishni, ta'lim berishi va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirishi ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan harakatli o'yinlarga xos nazariy mulohazalar ularning jismoniy tarbiya va sport borasidagi salohiyatini belgilab beradi. Demak, yosh sportchilarni tayyorlashda harakatli o'yinlarni, jumladan, xalq milliy o'yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy xalq harakatli o'yinlari o'quvchilarda xalqning madaniy boyliklari haqidagi tasavvurini ma'lum darajada kengaytiradi, ularni hozirgi hayotga singdirishga yordam beradi. Chunki milliy harkatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan bo'lib, o'quvchilarni aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiat, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatilari kabi jihatlariga e'ibor berish zarur.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. -Тошкент, 2000 й.
2. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. –Тошкент, 2001й.
3. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. –Тошкент, 2002 й.
4. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва харакатли ўйинлар. 2005 й.

Muazzam FATULLAYEVABuxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrasи o'qituvchisi**Marjona ZUBAYDULLAYEVA**Buxoro davlat universiteti
2-bosqich talabasi

VOLEYBOL MASHG'ULOTLARINI O'RGATISH BOSQICHLARI VA USLUBLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Maqolada voleybol mashg'ulotlarini o'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari orqali yuqori samaradorlikka erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: uslubiy o'rgatish, kasbiy ko'nikma, boshlang'ich o'rgatish texnologiyasi, voleybolchining texnik tayyorgarligi, harakat-o'yin malakalari, o'rgatish jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, aytib berish, ko'rsatish va tushuntirish uslublari.

В статье изложены способы достижения высокой эффективности посредством этапов, методов и средств обучения волейболу.

Ключевые слова: методическое обучение, профессиональные навыки, технология начального обучения, техническая подготовка волейболиста, двигательно-игровые навыки, процесс обучения, профессиональное обучение, методы рассказа, показа и объяснения.

The article shows the stages, methods and means of teaching volleyball lessons through ways to achieve high efficiency.

Key words: methodical teaching, professional skills, elementary teaching technology, technical training of a volleyball player, action-game skills, teaching process, vocational training, dictation, demonstration and explanatory methods.

Kirish. Ma'lumki, sportning porloq kelajagi sport zahiralari doirasining kengligi va sifatiga bevosita bog'liqidir. Bu bevosita sport jihozlari, mashg'ulot o'tkazish bazalari, trener mahorati, mashqlarni o'rgatish texnikasi va o'rgatish san'atiga bog'liqidir. Binobarin, o'zbek sportini jahon maydoniga olib chiqish, uni raqobatbardosh pog'onaga ko'tarish bolalar sportini ilmiy asosda tashkil qilish va bu borada samarali pedagogik texnologiyalar joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina maqsadga muvofiq tashkiliy va uslubiy tadbirlarni ilmiy asosda amalga oshirilishi talab qilinadi. Lekin bunday sifatlarga erishish nihoyatda ehtiyojkorlik, mashg'ulot yuklamalarini asta-sekinlik bilan, "to'lqinsimon" yo'nalishda oshira borish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Albatta, bu jarayon uzlusiz va muntazamlik hamda mashg'ulot yuklamalarini shug'ullanuvchi "obyekt"ning funksional imkoniyatlariga mos tarzda qo'llash tamoyillari asosida yanada samarali va jadalroq kechadi. 2000-yildan boshlab yurtimizda kichik olimpiada nomini olgan ko'p bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi ommaviy sport musobaqlari uzlusiz o'tkazib kelinmoqda. Shunday bo'lsada, hali ko'p joylarda sport to'garaklari, BO'SMilar, hatto, ayrim terma jamoalarda ham mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish, yuklamalarni rejalashtirish, umumiyligi va ixtisoslashtirilgan mashqlarni tanlash hamda qo'llashda shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, jinsi, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlari obyektiv test natijalariga asosan amalga oshirilmaydi. Ana shunday kamchilik va muammolar voleybolchilar tayyorlash amaliyotida ham ko'zga tashlanadi [3, 5, 6].

Asosiy qism. Sport malakalariga dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo'lib hisoblanadi. Dastlabki o'rgatish o'z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-teknika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo'lsa, sifatlari bo'lsa, shunchalik sport o'rribosarlarini tayyorlash yo'li qisqaroq va osonroq bo'ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko'nikma va malakalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan o'quv dasturining eng e'tiborli va asosiy bo'limlaridan biri boshlang'ich o'rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo'lib hisoblanadi [5, 7, 11].

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy shart-sharoitlaridan biri – bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo'lishidir. Demak, o'rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o'yin texnikasini mukammal o'zlashtirishdir.

Harakat-o'yin malakalari – to'pni uzatish, qabul qilish (himoya), to'pni o'yinga kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish – belgilangan bosqichlarda, ma'lum uslublar va vositalar yordamida o'zlashtiriladi, mukammallashtiriladi, takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O'rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo'lib, murabbiy-o'qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo'lsa-da, harakatni (o'yin malakasini) ijro etish texnikasiga o'rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog'liqdir: bolaning faolligi, mashg'ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg'ulot o'tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat "boyligi", tajribasi va hokazo [3, 12, 13, 14].

Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o'zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va o'rgatish jarayonida e'tiborga olinadigan omillar ma'lum uslubiy tartibda asoslangan rejulashtiruv hujjatlardan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki "sirli" imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o'rgatish uslublari, bosqichlari va texnologiyasini qo'llashda tayanch omil bo'lib xizmat qilishi kerak.

Dastlabki o'rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarning har biri o'ziga xos uslub va vositalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o'yinchida jismoniy barkamollik va o'yinchi uchun zarur bo'lgan harakat ko'nkmalari va malakalarini sayqallah uchun qo'llaniladi.

Muhokamalar va natijalar. Barcha mashqlar o'z yo'nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashq qilishning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etadi: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, o'yin tayyorgarligi. Har bir tayyorgarlik turida o'zining yetakchi omillari borki, ular yordamida ko'zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdag'i tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Misol uchun, agar o'quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o'quvchini jismoniy tomonidan chiniqtirish, zarba berish usulini ko'p marta takrorlashdan ko'ra foydaliroqdir.

Birinchi bosqich – o'rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko'rsatish va tushuntirish uslublari qo'llaniladi. O'qituvchi shaxsan ko'rsatish bilan birga ko'rgazmali qurollardan foydalanadi: kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazo.

Namoyishni tushuntirishlar bilan qo'shib olib borish kerak. O'qituvchilarning dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich – texnikani soddalashtirilgan (oddiylashtirilgan) holatda o'rganish. Mazkur o'rganish bosqichida muvaffaqiyat ko'p holatlarda yondashtiruvchi mashqlarning to'g'ri tanlanganligiga bog'liqdir. Ular o'zining tuzilishi shakliga ko'ra o'rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o'quvchilar bajara oladigan bo'lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan harakat (hujum zarbasi), uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga (qismlarga) ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi (buyurish, ko'rsatma berish, ko'rish va eshitish, ko'rib ilg'ash, texnik vositalar va hokazo) hamda ko'rgazmali harakat (o'qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo'llash), axborot (to'pga bo'lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug'lik yoki ovozni belgilash) kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich – texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish. Bunda quyidagilar qo'llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o'yin va baholash uslubi, qo'shma uslub, "davra aylana" mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiyidir. Ko'p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni (harakat sharoitini o'zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni) taqazo etadi. Hattoki, charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo'shma va o'yin uslublari bir vaqtning o'zida texnikani sayqallashtirishga, maxsus jismoniy sifatlarni o'stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o'yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – harakatni o'yin jarayonida mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo'llanadi (rasmlar, jadvallar, o'quv filmlari, tasviriy filmlar), o'yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o'yin va "bellashish" usullari (1-jadval).

Tayyorgarlik va o'quv o'yinlarida har bir usulni (malakani) o'rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko'zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi – bu musobaqalashishdir.

1-jadval. Voleybol mashg'ulotlarini o'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari

| O'rgatish bosqichlari va ularning nomi | O'rgatish uslublari | O'rgatish vositalari |
|--|---|---|
| 1-bosqich O'rgatilayotgan malaka (harakat) haqida tushuncha hosil qilish | Tushuntirish-tahvil qilish, ko'rsatish-izoh berish | So'z, suhbat, muloqot, munozara, rasmlar, andozalar, videofilmlar |
| 2-bosqich | Qismlarga bo'lib, element va fazalarga bo'lib o'rgatish, malakani | Tayyorlov-yondashtiruvchi, yo'naltiruvchi, turdosh taqlidiy va asosiy texnik mashqlar |

| | | |
|---|--|--|
| Malakalarga oddiy sharoitda o'rgatish (yakka tartibda qo'shimcha vazifalarsiz) | to'liq holda o'rgatish, xatolarni tuzatish, rag'batlantirish, qaytarish | |
| 3-bosqich Malakalarga murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish (vaziyatl vazifalar berish, juftlikda, uchlikda va h.k.) | Malakalarni to'liq holda o'rgatish, tezlik va aniqlikni kuchaytirib o'rgatish, turli yo'nalishdagi harakatlardan so'ng ijro etish, reproduktiv qaytarish asosida o'rgatish, o'zaro tahlil va baholash asosida o'rgatish. | 1-2-bosqichlardagi barcha vositalar, umumiy va maxsus mashqlar katta tezlik va aniqlikda qo'llaniladi, juftlik, uchlikda qo'llaniladigan mashqlar, trenajyor va texnik vositalar |
| 4-bosqich: O'rgatishni davom ettirish, takomillashtirish va mukammallashtirish | Barcha uslublar | Barcha vositalar va jamoa o'yinlari |

Xulosa. O'qitish (o'rgatish)da faol uslublar katta imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida – muammoli o'qitish (muammoli vazifalarni qo'yish) va o'zining o'zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vazifalarni qo'yish, uning yechimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o'zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi, bu o'quvchi qiziqishini yana ham orttiradi hamda ijodiy fikrlashga o'rgatadi [4, 10, 11].

Yuqorida keltirilgan voleybol mashg'ulotlarini o'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalariga to'g'ri amal qilgan holda mashg'ulotlar olib borilsa kelajakda malakali voleybolchilar yetishib chiqishi shashubhasiz.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири). -Тошкент, 26 май 2020 йил.
2. Мирзиёев Ш.М.“Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон Фармон. 24.01.2020.
3. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –Toshkent, 2011-yil.
4. Mahmudov M.K., Narzullayev F.A. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Voleybol). – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil. 65-67 betlar.
5. Фатуллаева М.А., Нарзуллаев Ф.А. “15-17 ёшли волейболчиларнинг шахслараро муносабат жараёнлари ва психологик тайёргарлик хусусиятлари. Ҳозирги тараққиёт босқичида хотин-қизлар спорти: муаммолар ва ечимлар”. Халқаро онлайн илмий амалий анжуман. –Бухоро, 2020 йил 6 май. 614-617 бетлар.
6. Azimovna F. M., Ashrapovich N. F. Motivation of students to do sports as part of physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1446-1450.
7. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.
8. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.
9. Rakhmonov Rauf Rasulovich Distribution of training loads at the stage of competitive preparation for middle runners // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5958/2249-7137.2021.00376.1
10. Сабирова Н.Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
11. Akmalovich D. B. et al. Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 466-469.
12. Nematovich K. S. The possibilities of physical culture in the modern youth internet community //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 177-180.
13. Муродов Ж. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳатлар кўлами //Архив научных исследований. – 2020. – №. 29.
13. Juraevich M. J. Actual problems of teaching physical culture in schools //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 181-187.

Манучехр ИБРАГИМОВ

Бухоро давлат университети

3-курс таянч докторанти

ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ФУТБОЛЧИ АЁЛЛАРНИНГ ТАЙЁРГАРЛИК ДАВРИДА МАШГУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ВА АСОСЛАШ

Мақолада юқори малакали футболчи аёлларнинг тайёргарлик даврида машгулот юкламаларини режалаштириш, асослаши ва тавсияларни ишлаб чиқиши хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: юқори малакали, тайёргарлик, машгулот юкламаси, режалаштириши.

В статье рассматривается планирование, обоснование и разработка рекомендаций по тренировкам высококвалифицированных футболисток в подготовительный период.

Ключевые слова:: высококвалифицированный, подготовка, тренировочная нагрузка, планирование.

The article discusses the planning, justification, and development of recommendations for the training sessions of highly qualified female footballers during the training period.

Key words: highly qualified, training, training load, planning.

Кириш. Аёллар футболида машгулот жараёнини режалаштириш ва ташкил этиш масалалари кўп жиҳатдан спорт машгулотлари назарияси ва методологиясининг замонавий ютуқларига таянади. Машгулотлар ва мусобақаларда футболчиларни тайёрлаш бўйича кўплаб тадқиқий материаллар тўпланган. Бу аёллар футболи амалиётида кўлланилиб келинмоқда. Шу билан бирга, мусобақаларнинг хусусиятлари ва йиллик циклда машгулот жараёнини режалаштириш асосида юқори малакали спортчиларни тайёрлаш тизимини оптималлаштириш масаласини кўриб чиқиш ва ушбу спорт турининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишни талаб қиласди.

Асосий қисм. Олиб борилаётган кўп йиллик тадқиқот мақсади юқори малакали футболчи аёлларни тайёрлаш учун уларга йил давомида бериладиган машгулот юкламалари режасини ишлаб чиқища педагогик ва физиологик томонларни такомиллаштиришдан иборат.

Ҳар бир даврнинг муайян босқичлари учун тузилган кўплаб машгулот режалари бўлиши мумкин. Бундай режалаштиришнинг вариантларидан бирини кўриб чиқамиз.

Тайёргарлик цикллари ва ҳафталар сони мусобақа тақвимига мувофиқ белгиланади.

Ҳафталик режа тайёргарлик даври режаси асосида ишлаб чиқилади. У ҳафтанинг ҳар бир куни учун машгулотлар сонини, машгулотларнинг йўналиши ва уларнинг давомийлигини акс эттиради.

Тайёргарлик даврининг оптимал машгулот цикли ҳафталик циклларидан (6 кунлик амалий машгулот ва 1 кунлик дам олиш).

Умумий тайёргарлик босқичида (дастлабки 3 ҳафта) асосан функционал тайёргарликка оид машгулот вазифалари ҳал қилинади. Биринчи ҳафтада бир марталик, кейинги кунларда эса икки марталик машгулотларни ўтказиш тавсия этилади.

Махсус тайёргарлик босқичида (кейинги 4-7 ҳафта) умумий ва махсус жисмоний, техник-тактик ва психологик тайёргарлик вазифалари ҳал қилинади. Машгулотлар кунига 2 марта ўзига хос махсус ва номахсус машқлардан фойдаланган ҳолда ўтказилади. Гимнастика ва акробатика машқларига катта эътибор берилади. Гимнастика машқлари ёрдамида кучни ривожлантириш ва сақлаш амалга оширилади. Умумий чидамлилик югуриш машқлари (кросс, тақрорий югуриш), махсус чидамлилик - ўйин машқлари, интервалли югуриш ёрдамида ривожланади. Техник-тактик машқлар сони ҳафтадан ҳафтага кўпайиши керак. Микроциклнинг махсус тайёргарлик босқичида камидан бир марта назорат ўйини ўтказилади. Футболчилар сонига қараб, кўп сонли ўйин машқлари турли ўлчамдаги майдончаларда турли вазифаларни ҳал этиш билан биргаликда бажарилади.

Жисмоний юкламалар машгулот жараёнинда ҳажми ва интенсивлиги бўйича ўзгариб туриши керак, бу эса чарчоқ ва тикланиш жараёнини мослашувчанлик билан бошқаришни таъминлайди.

Юкламалар аста-секин биринчи ҳафтадан сўнгги ҳафтагача оширилади. Сўнгги ҳафта, тақвим ўйинлари бошланишидан олдин кўпроқ юкламали ҳафта бўлиши керак. Юкламаларнинг кўпайиши иш ҳажмининг ошиши билан эмас, балки машқларнинг бажарилиш интенсивлиги туфайли, динамик машқларни ўтказиш (сакраш машқлари ва сакрашлар, дарвоза томон зарбалар) туфайли амалга оширилади.

Кўпинча ҳаддан ташқари юкламалар организмнинг ўсишини таъминлайди, чунки организм одатдагидан юқори чарчоқ бошлангандагина унинг қобилияти ривожланади ва яхшиланади.

Аммо, тўлиқ бўлмаган тикланишда машғулотлар олиб борилганда, юкламалар қолдиқ чарчоқни ҳисобга олган ҳолда берилади ва қолган вақтлар сурункали ортиқча иш ҳолатининг ривожланишига олиб келади. Бунга, албатта, йўл қўйилмаслиги керак. Шу мақсадда, 2-3 машғулотдан сўнг, ишлаш қобилиятини тиклашни таъминлайдиган дам олиш оралиги ёки машғулот бўлиши керак, акс ҳолда машғулотнинг ўсиши тўхтайди.

Юқори малакали аёл футболчиларни тайёрлашда ва маҳоратини оширишда нафакат жисмоний фаоллик, балки машғулотларни тўғри режалаштириш керак. Бундай ҳолда машғулотлар қисқа муддатли, 60 дақиқагача, оғирлиги жиҳатидан интенсив, эмоцияга бой ва кўплаб ўйин вазиятларини ўз ичига олиши керак. Бундай машғулот пайтида аёл футболчиларнинг юрак уриши ўйин даражасида бўлиши керак (150 - 200 зарба / мин).

Иккинчи турдаги машғулотлар 1,5 соатдан 2-2,5 соатгача давом этади, юклама ўртacha ўйин техникаси ва тактикасини такомиллаштириш учун йўналтирилади ва стандарт позицияларни ўрганишга қаратилади. Ушбу машғулотларни ўtkазишида ўйинчининг асосий роли, функциялари, индивидуал хусусиятлари ва ўзига хослиги ҳисобга олиниши керак.

Машғулот цикларида, футболчиларнинг жисмоний сифатларини яхшилашга қаратилган индивидуал машғулотга, хусусан, тезкорлик намоён бўлишининг барча шаклларига, юқори тезлиқда чидамлилик ва уларнинг ҳаракатларини бошқаришга ҳам алоҳида ўрин берилади.

Шуни ёдда тутиш керакки, тезлик, эгилувчанлик, куч, координация ҳар кунги машғулотларни ўtkазишида ривожланади. Бироқ, чидамлилик машқларидан сўнг ёки максимал шароитларда тактик йўналишда ишлаганда, эртаси куни техникани такомиллаштириш устида ишлаш мақсадга мувофиқ эмас.

Машғулот жараёнини режалаштиришда машғулотлар жисмоний, техник ва тактик тайёргарликнинг ўсишини, спорт формасини шакллантириш учун қулай шарт-шароитларни яратишни таъминлайдиган машғулотлар орасидаги танаффусларни таъминлаш керак.

Машғулот юкламаларини режалаштиришда, агар юкламалар бир хил даражада қолса, натижаларнинг ўсиши эртами-кечми тўхтаб қолишини ёдда тутиш керак, чунки организм бундай юкламаларга мослашиб қолиб, самарадорлигини ошириши тўхтаб қолади. Юкламалар ва машғулот циклари тўлқинли эгри чизикқа эга ва нисбатан кичикдан максималгача ўзгариб туради. Бир машғулотдан иккинчисигача дам олиш оралиги тикланишни кафолатлайдиган даражада сақланади, аммо машғулотлар вақти-вақти билан тўлиқ тикланмаслик ("максимал юкламадаги машғулотлар")да ўtkазилади. Бундай ҳолатда, аёл футболчилар юкламаларнинг ортиб боришини енгидиб чиқиб, охироқибат бундай юкламалардан кейин дам олиш пайтида иш қобилиятининг кучли ўсишини бошдан кечиришади, аммо бу машғулотнинг алоҳида таркибий қисмларини такомиллаштиришга қаратилган тадбирларни истисно этмайди.

Биз йиллик цикл давомида Бухоро аёллар футбол жамоаси "Бухоро-W" билан тадқиқот ишлари ва таҳлилларни олиб бордик. Қилинган таҳлилларнинг асосий мақсади футболчи аёлларнинг тайёргарлик даврида асл ҳолатини билиш ва хулоса қилиш эди. Таъкидлаш жоизки, машғулотлар ёки мусобақа микроциклларда юкламалар тақсимотининг энг яхши варианти мавжуд эмас. Чунки ҳар бир жамоанинг ва футболчи аёлларнинг ўзига хос хусусияти мавжуд.

Спорт тажрибаси ва илмий тадқиқотлар шуни кўрсатдиги, бундай варианtlар бир нечта бўлиши мумкин. Биз томонимиздан олиб борилган таҳлиллар натижасида тайёргарлик даври умумий тайёргарлик босқичининг микроцикл юкламалари тузилишининг энг мақбул ва самарали варианtlарини кўрсатди 1-жадвал.

1-жадвал. Умумий тайёргарлик босқичида микроцикл давомида машғулот юкламаларини тақсимлаш (етти қунлик цикл)

| Цикл қунлари | Машғулот | Юклама шиддати | Йўналтирилиши | Машғулотнинг мураккаблиги | Ихтисосла нганилиги | Машғулотлар давомийлиги, (мин.) |
|--------------|----------|----------------|-------------------|--|----------------------|---------------------------------|
| 1 | Кечки | Ўртacha | Умумий чидамлилик | Оддий ўйин машқлари | Maxsus | 90 |
| 2 | Кечки | Катта | Тезлик-куч | Югуриш ва сакраш машқлари. Координацион ва куч учун мўлжалланган машқлар. | Номахsus Номахsus | 150 |

“PEDAGOGIK MAHORAT” ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL 2021, Maxsus son

| | | | | | | |
|---|-------------------------------------|---------|-------------------|--|----------------------|-----|
| 3 | Кечки | Катта | Тезлик-чидамлилик | Мураккаб ўйин машқлари. Оддий ўйин машқлари. | Махсус Махсус | 180 |
| 4 | Кечки | Катта | Куч | Циклик ва координацион машқлар | Номахсус | 180 |
| 5 | Кечки | Катта | Тезлик-куч | Югуриш ва сакраш машқлари | Номахсус Номахсус | 150 |
| 6 | Кечки | Ўртacha | Комплекс | Мураккаб ўйин машқлари. | Махсус | 150 |
| 7 | Қайта тикланиш тадбирлари, дам олиш | | | | | |

Ҳафталик цикл машғулотларни ташкил этиш:

1. Микроциклнинг биринчи кунида асосан аэробик йўналиш бўйича ишлаш режалаштирилган бўлиб, унинг мақсади тикланиш жараёнларини тезлаштириш ва футболчи аёллар организмининг кислород ташиш тизими функцияларини фаоллаштириш эди.

2. Иккинчи кундан бошлаб тезлик ва куч жисмоний сифатларини мақсадли ривожлантириш бошланди.

3. Микроциклнинг учинчи кунида куч учун мўлжалланган сакраш машқлари режалаштирилган эди. Футболчи аёллар тенг икки гурухга ажralиб, баландлиги 60 см бўлган тўсикдан сакрашларни амалга оширидилар, сўнgra икки оёқ билан юқорига сакраб ҳаракат қилишди. Қоида тариқасида 8-10 марта сакраш амалга оширилиб, сўнgra 3 дақиқалик дам олиш бажарилди. Бу вақтда иккинчи гурух ишлашни давом эттириди. Сериялар орасидаги дам олишларда (10 дақиқа) тўпни жонглёрлик ва тўпни узатиш билан тўлдирилди.

4. Тўртинчи куни биз, асосан, кучга йўналтирилган машқлардан ишлашни бошладик. Машқлар тўплами пастки асосий мушак гурухларига: соннинг олд юзасига, соннинг орқа қисмига таъсиридан иборат эди. Машқлар шерик бўлиб, футбол майдонининг чим жойида ўтириб ва ётган ҳолда бажарилди. Вазифани бажарган ўйинчи максимал мушак кучини ривожлантиради ва шерик унинг ривожланишига 8 сония давомида қарши туради. Масалан, спортчи орқа томонида ётади, унинг оёқлари ён томонларга 45-50 см га бурилади ва оёқнинг ички томонида шерикнинг оёқлари бирбиридан ажralиб туради. Вазифанинг моҳияти шундаки, оёқларнинг мушакларини уринаётганда зўриқишидир. Комплекснинг давомийлиги (стречинг), ишларнинг кетма-кет ўзгаришини хисобга олган ҳолда, тахминан 80-90 дақиқани ташкил этди. Умумий машғулот 180 минут вақт давомида давом этади.

5. Микроциклнинг бешинчи кунида тезлик-куч сифатлари учун мўлжалланган машғулотининг ноанъанавий машқлари ўtkазилиб, зинада баландга (стадион) ва пастга югуриш ишлатилган. Зинадан югуриш югуратётганда сонни баланд қўтаришга ўргатиш ва оёқ мушакларининг кучини ривожлантириш воситаси сифатида ишлатилган. Югуриш тезликни “тўсикни” енгib ўтиш усулларидан бири бўлган ҳаракатларнинг частотасини ривожлантириш мақсадига эришди.

6. Микроциклнинг олтинчи куни комплекс ва техник-тактик машғулот режалаштирилган эди.

Изоҳ: Микроциклнинг еттинчи куни икки томонлама ўйин режалаштирилган.

Олиб борилган тадқиқотимизда махсус тайёргарлик босқичининг асл ҳолатини ҳам кузатиб бордик. Машғулотларни кузатиб, таҳлил этдик ва юқори малакали футболчи аёллар учун энг мақбул микроциклни тавсия этиш жоиз деб ҳисобладик.

Биз томонимиздан олиб борилган кузатув ва тадқиқот натижаларида махсус тайёргарлик босқичида юқори малакали футболчи аёллар учун қўйидаги етти кунлик машғулотлар микроциклни тавсия этилди (2-жадвал.).

2-жадвал. Махсус тайёргарлик босқичида микроцикл давомида машғулотлар юкламаларини тақсимлаш (етти кунлик цикл)

| Цикл кунлари | Машғулот | Юклама шиддати | Йўналтирилиши | Машғулот мураккаблиги | Ихтисос-ланганлиги | Машғулотлар давомийлиги, (мин). |
|--------------|-------------------------------------|----------------|---------------|----------------------------------|--------------------|---------------------------------|
| 1 | Қайта тикланиш тадбирлари, дам олиш | | | | | |
| 2 | Кечки | Ўртacha | Тезлик | “Квадрат” туридаги ўйин машқлари | Махсус | 90 |
| 3 | Кечки | Катта | Тезлик-куч | Мураккаблиги ошган ўйин машқлари | Махсус | |

| | | | | | | |
|---|-------|---------|-------------------|---|--------------------|-----|
| | | | | Циклик ва сакраш машқлари. | Номахсус | 180 |
| 4 | Кечки | Катта | Тезлик чидамлилик | Мураккаб ва оддий ўйин машқлари. Оддий ўйин машқлари. | Махсус Махсус | 180 |
| 5 | Кечки | Катта | Тезлик-куч | Циклик ва координацион машқлар. Мураккаблиги ошган ўйин машқлари. | Номахсус Махсус | 180 |
| 6 | Кечки | Ўртacha | Комплекс | Мураккаб ўйин машқлари | Махсус | 90 |
| 7 | Кечки | Катта | | | Назорат ўини | |

Мұхокамалар ва натижалар. Махсус тайёргарлик босқичининг биринчи кунида футболчи аёлларнинг дам олиши режалаштирилди.

Микроциклнинг иккінчи кунда, асосан тезлик учун мұлжалланған машқлар үтказилди. Ундан ташкари кичик ва катта квадрат ўйинлари ташкил этилди.

Учинчи кундан бошлаб тезлик ва куч жисмоний сифатларини мақсадли ривожлантириш бошланди. Унда циклик ва сакраш машқларига еътибор қаратылди.

Түртінчи кунда футболчилар тезлик-чидамлиликка мұлжалланған машқларни бажаришди.

Бешинчи куни, асосан, тезлик-кучга йұналтирилған машқлардан фойдаланиш бошланди.

Микроциклнинг олтінчи куни комплекс ва техник-тактик машғулотлар бажарылди.

Микроциклнинг еттинчи куни иккі томонлама назорат ўини олиб борылди.

Тайёргарлик дастурини амалга ошириш жараённанда футболчиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси хам баҳоланди.

